

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA  
VA  
TARAQQIYOT***

***Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy  
JURNAL***

**2025-yil, 6-son**

**Urganch-2025**

**Bosh muharrir:**

*M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

*S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Mas’ul kotib:**

*U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**Tahrir hay’ati:**

*M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor*

*Sh.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor*

*G.Durdieva – Arxitektura fanlari doktori, professor*

*A.Ashirov – Tarix fanlari doktori, professor*

*G‘.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor*

*Sh.O‘ljayeva – Tarix fanlari doktori, professor*

*S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor*

*O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor*

*D.Jamalova – Tarix fanlari doktori, dotsent*

*F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor*

*Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

*S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*Ulug‘bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*Bahodir Karim – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*M.Asadov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*U.Jo‘raquloov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*N.Afoqova – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.*

*G.Matyoqubova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.*

*Qozoqboy Yo‘ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.*

*M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.*

*I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

*D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.*

*M.Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.*

*M.S.Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.*

*O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).*

*Y.A.Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).*

*Y.M.Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).*

*K.V.Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).*

*L.S.Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).*

*V.A.Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).*

*A.A.Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).*

*A.G.Abdullin – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).*

*Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).*

*Azizullah Aral – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).*

*H.H.Tadiyev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).*

**ISSN 3030-3206**

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.  
№ 6 (27), Urganch innovatsion universiteti, 2025-yil.

## MUNDARIJA:

### TARIX

|                                                                                                                                     |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>B.SADULLAEV.</b> Chap qirg‘oq Kat-qal’a tarixida Shayx Abbos Vali siymosiga doir etnografik ma’lumotlarning aks etishi . . . . . | 4  |
| <b>M.ESHMURODOV.</b> Abulg‘ozi Bahodirxon tarixiy asarlarining lingvistik tadqiqi. . . . .                                          | 12 |
| <b>F.ABDUXOLIQOV.</b> Mirzo Ulug‘bekning nigohi tushgan yana bir qo‘lyozma. . . . .                                                 | 22 |
| <b>G.IBRAXIMOVA.</b> Qo‘ng‘irot so‘fiylari davrida Xorazm vohasi shaharlari. . . . .                                                | 28 |
| <b>S.SAMANDAROVA, U.BEKMUHAMMAD.</b> “Tarjimon” gazetasining Xorazm tarixini o‘rganishdagi ilmiy ahamiyati. . . . .                 | 36 |
| <b>F.JUMANIYAZOVA.</b> Ikkinchi jahon urushi arafasida Xorazm ayollarining ijtimoiy jarayonlarda tutgan o‘rni. . . . .              | 42 |
| <b>I.XAYDAROV.</b> O‘zbekiston sanoatining 1985-1990-yillardagi ahvoli. . . . .                                                     | 47 |

### FILOLOGIYA

|                                                                                                   |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>F.KenjayeV.</b> Erkin Samandar ijodida Jaloliddin Manguberdi obrazi . . . . .                  | 55 |
| <b>U.HAMDAM.</b> Teran mazmunning sodda ifodasi . . . . .                                         | 63 |
| <b>G.ASQAROVA, A.ALLAMBERGENOV.</b> Shoirning rejasi bitta: eng yaxshi she’rini yozish! . . . . . | 71 |
| <b>I.FAXMIY.</b> Ali Askarning meroji. . . . .                                                    | 80 |

## Muassis:

Urganch innovatsion universiteti NTM

## Hamkor tashkilotlar:

Xorazm viloyat turizm boshqarmasi.

Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyat bo‘limi.

“Jaloliddin Manguberdi” fondi.

**TARIX****CHAP QIRG'OQ KAT-QAL'A TARIXIDA SHAYX ABBOS VALI  
SIYMOSIGA DOIR ETNOGRAFIK MA'LUMOTLARNING AKS  
ETISHI**

**Baxrom SADULLAEV,**  
**Tarix fanlari bo'yicha**  
**falsafa doktori, dotsent.**

**UO'K 39 (=512.1)**

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Shayx Abbos Vali siymosining Chap qirg'oq Kat-qal'a tarixida tutgan muhim o'rniga bag'ishlangan. G.P.Snesarevning XX asrning o'rtalarida yodgorlik atrofi va Amudaryoning o'ng sohilidagi Shobboz shahrida (hozirgi Beruniy shahri) mahalliy aholi vakillari bilan olib borgan suhbatlari Chap qirg'oq Kat-qal'a tarixi bevosita qadimiy poytaxt Kat bilan bog'langanligidan dalolat beradi.

**Аннотация:** Данная статья посвящена важной роли шейха Аббаса Вали в истории левобережной Кят-Калы. Исследования Г.П. Снесарева проведенные в середине XX века с местным населением данного памятника и города Шаббаза (ныне город Беруни), на правом берегу Амударьи, свидетельствует о связи истории левобережного Кята с древней столицей Кят.

**Annotation:** This article is dedicated to the important role of Sheikh Abbas Wali in the history of the left bank of Kyat-Kala. The researches, conducted by G.P. Snesarev with the representatives of the local population near this monument and in Beruni city on the right bank of the Amudarya river, testifies the relation direct of the history of the left-bank Kyat-qala with the the ancient capital Kyat.

**Kalit so'zlar:** G.P.Snesarev, Shobboz bobo, Shayx Abbos Vali, qadimiy poytaxt, Kat, Chap qirg'oq Kat-qal'a, Xorazm afsonalari, Shovot.

**Ключевые слова:** Г.П.Снесарев, Шаббаз баба, Шейх Аббас Вали, древняя столица Кят, левобережный Кят, Хорезмские легенды, Шават.

**Key words:** G.P.Snesarev, Shabbaz Baba, Sheikh Abbas Vali, the ancient capital Kyat, left-bank Kyat-qala, Khorezm legends, Shavat.

Bizga ma'lumki, har bir tarixiy yodgorlikni tadqiq qilish jarayonida uning nomi yoki barpo etilish tarixi bilan bog'liq xalq og'zaki merosi, jumladan rivoyat va afsonalarga duch kelamiz. Ushbu tadqiqot XVII asr oxirida quyi Amudaryo havzasining chap qirg'og'idagi Kat-qal'a yodgorligining barpo bo'lishida muhim omillardan biri sifatida qaralgan Shayx Abbos Vali siymosi haqidagi ma'lumotlarni qamrab oladi. Mazkur yodgorlik Urganch shahridan 25 km shimoli-g'arbda, Shovot tumani Kat-qal'a mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan. Ushbu qal'a hayotining so'nggi tarixida muhim o'rin egallagan Shayx

Abbos Vali siymosiga doir rivoyat va afsonalar alohida mavzu sifatida o'rganilmagan va tadqiqot ob'ekti sifatida umumlashtirilmagan.

Chap qirg'oq Kat-qal'a bilan bog'liq afsona va rivoyatlar juda qisqa va bir-biri bilan bog'lanmaydi. Ularni umumlashtirish mushkul. Shunday bo'lsa-da, etnografik tadqiqotlar jarayonida to'plangan afsona va rivoyatlarni yodgorlik tarixining ajralmas bir qismi sifatida keltirib o'tamiz.

Yodgorlik tarixi uchun bu ma'lumotlarning ahamiyati juda katta bo'lib, qal'a tarixining asosan keyingi 300 yillik tarixi bilan bog'liq jarayonlarni qamrab oladi. Tadqiq qilinayotgan Chap qirg'oq (yangi) Kat shahri qadimiy poytaxt o'ng qirg'oqdagi eski Kat tarixi bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bu borada Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining Xorazm viloyati hududida G.P.Snesarev boshchiligidagi olib borilgan etnografik tadqiqotlar natijalari juda muhimdir [8, 22; 1, 233-234].

Yodgorlik tarixi bilan bog'liq aksariyat ma'lumotlar qisqa bo'lsa-da, asosan G.P.Snesarev izlanishlarida o'z aksini topgan. Chap qirg'oq Kat-qal'a tarixiga aloqador afsona va rivoyatlar, uning ilmiy monografiyalarida, shu jumladan, "Xorazm o'zbeklarining islomgacha bo'lgan e'tiqodlari va udumlari" [6], "Xorazm afsonalari O'rta Osiyo diniy e'tiqodlari tarixi bo'yicha manba sifatida" [7] nomli asarlarida keltiriladi. Afsona va rivoyatlarni tadqiq qilish jarayonida yodgorlik nomi va tarixiga taalluqli ma'lumotlar "Xorazmning sug'orilish tarixi" [4], "To'q-qal'a" [3], "Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari" [9] va "Tazkiratul avliyo yohud Xorazm diyorida madfun bo'lgan avliyolar zikri" [5, 6-7] asarlaridagi manbalar bilan qiyosiy tahlil qilib o'rganiladi.

G.P.Snesarevning yodgorlik tarixiga oid ilk tadqiqotlari 1958-1960-yillar davomida amalga oshirilgan. Tadqiqotchi boshchiligidagi o'zbek etnografik guruhi Xorazm viloyati Shovot tumani hududida izlanishlar olib borish jarayonida Chap qirg'oq Kat-qal'a atrofidagi aholi vakillari bilan ham suhbatlashib, yodgorlikka aloqador bir qancha ma'lumotlarni to'playdi [7, 58, 126-129; 6, 30, 284].

G.P.Snesarevning etnografik dala tadqiqotlarida o'ng sohildagi eski Kat bilan bog'liq rivoyat, afsonalar aksariyat hollarda chap sohildagi Kat bilan bevosita bog'liq holda o'rganiladi [7, 125-129]. Ayniqsa, so'nggi yuz yilliklarda shakllangan afsona va rivoyatlardan qadimiy Kat shahri bilan aloqador Shobboz bobo bilan bog'liq hikoyalar o'ta muhimdir.

Shuni qayd qilish lozimki, o'ng sohildagi poytaxt Kat o'z tarixi davomida ko'p martalab Amudaryo toshqinlariga duchor bo'lishi natijasida aholining boshqa joylarga ko'chishi ham tez-tez sodir bo'lib turgan. Bu toshqinlardan biri haqida Abu Rayhon Beruniy o'zining "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ham eslatib o'tadi. Anushaxon davrida ham navbatdagi toshqinlar uning aholisining yangi joyga ko'chirilishiga sabab bo'lgan. Rivoyatlarga qaraganda, eski Kat aholisi Shobboz bobo qarg'ishiga uchragan ekan. Shu sababdan ham Kat shahri tez-tez suv toshqinlariga duchor bo'lib turgan.

Bundan ko'rinadiki, mahalliy aholining bunday ofatlarga tez-tez duchor bo'lishi, toshqinlarning sababini aniqlay bilmaslik, bu ofatlar oldida insonning oqizligi go'yo bu voqealar avliyo qarg'ishi bilan bog'liq turli afsona va rivoyatlar to'qilishiga asos bo'lgan.

Hozirgi kunda bu qadimiy shahar buyuk ajdodimiz, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy nomi bilan atalib kelinmoqda. Bu nom shaharga 1973-yilda olimning ming yillik yubileyi tantanalarida dunyo ilm-faniga qo'shgan hissasi va qolaversa, uning shu shahar atrofida tug'ilib o'sganligi uchun berilgan.

Shaharning keyingi o'rta asrlardagi, ya'ni xonlik davridagi nomi Shayx Abbos Vali deb nomlanib, xalq tilida Shobboz atamasi keng tarqalgan. XVIII–XIX asr rus manbalaridagi xaritalarda aynan mana shu nom uchraydi.

Shayx Abbos Vali – avliyoning nomi, shahar homiysi hisoblanadi. Aynan mana shu avliyo bilan bog'liq afsona G.P.Snesarev tomonidan mahalliy aholi vakili Pirjonov Bekim bilan suhbat asosida yozib olingan.

Afsonaga ko'ra, "Shayx Abbos Valiga qadar Katda zulmkor podshoh Daqi-Yunus hukmronlik qilgan ekan. Bu yerdagi barcha yer-mulklar uning shaxsiy mulki hisoblangan. Daqi-Yunus xizmatida qullar ham bo'lgan. Hozirgi kunda ham qal'a devorlarida tik holatda uchraydigan skeletlar–Daqi-Yunusning qullari ekan. Devor qurilishi davrida vafot etgan qullarni shu zahotiyoq devor orasiga suvab (shuvab) tashalar edi.

Shayx Abbos Vali mahalliy aholi vakili bo'lgan. U qullar bilan o'zaro kelishib Daqi-Yunusga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga undagan. Ular bu zulmkor podshoni tutib olib, uni tikanli o'simliklar ustida sudrab o'z alam-sitamlari uchun qasos olishibdi. Daqi-Yunus bu azoblarga chiday olmay vafot etibdi.

Shundan keyin davlatni Shayx Abbos boshqara boshlabdi. U yerlarni qullarga bo'lib beribdi, suvning taqsimlanishini qattiq nazoratga olibdi. Bu ishda unga ukasi Kechirmas bobo yordam berib, har qanday qoidabuzarliklarni qattiq

jazolar ekan. Shayx Abbos Vali vafotidan keyin mahalliy xalq uni avliyo sifatida qadrlay boshladi va ko‘plab odamlar uning qabrini ziyorat qilardilar” [7, 126].

G.P.Snesarev avliyo haqidagi malumotlarni to‘plar ekan, ularning turlicha mazmunda ekanligiga e‘tibor qaratadi. Shayx Abbos Valining kelib chiqishi haqida shobbozlik qariya Nasrullo maxsumdan quyidagi ma‘lumotlarni keltirgan: “Shayx Abbos Vali mahalliy aholi vakili bo‘lmagan, balki Turkiyadan kelgan. Uning otasi bo‘lmagan, onasi esa og‘ir kasal holda yotgan. Bir kuni u o‘g‘lini chaqirib, unga shu so‘zlarni aytadi: “Men bugun o‘laman, sen meni dafn qilib, o‘zing Xorazmga ravona bo‘l. Sen u yerda biror mulkning podshohi bo‘lasan”. Onasini dafn qilib, Shobboz bobo Xorazmga kelibdi. Biroz vaqtgacha bu yerda hukmronlik qilibdi. Keyin hammasini tark etib, so‘fiylik yo‘liga o‘tibdi va katta shayx bo‘lib yetishibdi” [7, 126-127].

G.P.Snesarev informatorlar bilan suhbatlar asosidagi hisob-kitoblarga tayanib, Shayx Abbos Vali taxminan 1188-yilda vafot etgan, degan fikrni bildiradi. Shuningdek, G.P.Snesarevning Quramboy maxsum tomonidan avliyoning mo‘jizakor fazilatlari haqidagi olgan ma‘lumotlari ham qiziqarlidir: “Bir paytlar bu joylarda urush bo‘lgan. Dushman bostirib kelgan. Ana shunda ularga Shobboz bobo qarshi chiqqan. U o‘zining to‘nida bir uyum toshlarni to‘plab turib, ularni dushman ustiga yog‘dirgan. Shobboz bobo savdoyi, majnun bo‘lgan” [7, 127].

Shusiz ham bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan avliyo Shobboz bobo haqidagi ma‘lumotlar Amudaryoning chap sohilidagi Kat-qal’a (Shovot tumani) atrofidan olingan hikoyalar asosida yanada chuqurlashadi.

1958-1960-yillarda G.P Snesarev Xorazm viloyatining Shovot tumani hududida etnografik ma‘lumotlarni to‘plar ekan, chap sohil Kat-qal’a va uning atrofini obdon tadqiq qiladi. “O‘sha yillarda bu yodgorlik devorlar bilan o‘ralgan yarim vayrona holda ko‘zga tashlanardi. Aholisi asosan atrofdagi qishloqlarga ko‘chib o‘tgan edi. Qal’a ichida faqat 2-3 ta oila istiqomat qilardi” [7, 127].

G.P Snesarev bu yerdagi mahalliy aholidan eshitgan rivoyatlari asosida Chap qirg‘oq Kat-qal’aning tarixi va aholisining kelib chiqishi haqida ma‘lumotlar to‘playdi.

Chap qirg‘oq Katning taqdiri Shobboz bobo afsonalari bilan chambarchas bog‘liqdir. G.P. Snesarev tadqiqot olib borgan vaqtda Xorazmning qadimiy poytaxti o‘ng qirg‘oq Kat (Shobboz) aholisining chap qirg‘oqdagi yangi Katga



ko‘chirilishi haqidagi bir qancha rivoyatlar o‘sha paytdagi katta avlod vakillari xotiralaridan hali ko‘tarilmagan edi.

Qadimiy poytaxt Kat aholisining yangi joylarga ko‘chish masalasi Amudaryo oqimining yo‘nalishi va toshqinlar bilan aloqador tabiiy ofatlarga bog‘liqdir. Bu borada albatta bir qancha manbalarda, shu jumladan Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida ham ma’lumotlar keltiriladi: “Al-Fir 10 milcha va undan ham ko‘proq masofadan ko‘rinar edi. Uni Jayxun har yili oz-ozdan qirg‘oqlarini yuvib ketardi va Iskandar tarixining 1305-yilida undan hech narsa qolmadi” [2, 71].

O‘ng qirg‘oq Kat-qal’aning Amudaryo bilan bog‘liq yana bir ma’lumoti xivalik tarixchi Shermuhammad Munisning XVII asr voqealarini bayon qilish jarayonida eslatiladi: “Anushaxon (1663-1683) hukmronligi davrida o‘ng sohildagi Kat suvsiz qoladi. Shu sababdan Amudaryoning chap sohilida yangi Yormish kanalini qazdirib, uning yonida qal’a qurdiradi va aholini mana shu yangi shaharga ko‘chiradi. Bu qal’a yangi Kat nomini oladi” [4, 200].

Aftidan, Kat - Shobbozning suv toshqinlariga duchor bo‘lishi o‘rta asrlarda ham, yangi davrda ham tez-tez kuzatilgan. Shobboz qariyalarining shunga o‘xshash ofatning 1902-yilda sodir bo‘lganligini G.P.Snesarev ham yozib olgan [7, 128].

Hamma vaqt Shobbozdan ko‘chirilgan aholi haqida suhbat ketadigan bo‘lsa, doimo Shobboz bobo avliyo haqida hikoya boshlanardi. Shahar va uning aholisining boshiga tushgan turli ofatlarga sabab, ularning Shobboz bobo avliyoning qarg‘ishiga uchraganligi emish. Ushbu haqdagi afsona va rivoyatlar uzuq-yuluq va chalkash-chulkash, ularni bir-biriga bog‘lash juda mushkul.

Biroq ularning mazmuni quyidagi fikrlarni yuzaga keltiradi: “Kat - Shobboz shahrida aholi ikki guruhga ajratilgan: “katli” va “shotli”. Bu bo‘linish nimani anglatishi hozirgacha noma’lum. Aftidan, shaharning ikki mahallaga bo‘linishi nazarda tutilgan bo‘lsa kerak. Kunlardan bir kuni “katli”lar avliyoni qattiq haqorat qiladilar, ya’ni uni poxol bosh kiyimini yoqib yuboradilar va buning uchun shayx ularni la’natlaydi. Ba’zi rivoyatlarga qaraganda, aynan mana shu “katli”lar chap qirg‘oqqa ko‘chib o‘tishgan. Bu borada G.P.Snesarevning Chap qirg‘oq Kat atrofidagi 54 yoshli Jamol xo‘jadan olgan ma’lumoti juda qiziqarli: Bu yerlarga kelganlardan biri Shayx Abbos Valining do‘ppisini yoqib yuborgan. Shobbozliklar biz haqimizda “Shobbozning do‘ppisiga o‘t qo‘ygan

katli” deyishadi. Agar kimdir Chap qirg‘oq Katdan o‘ng qirg‘oqqa o‘tadigan bo‘lsa, uni quvib haydab solganlar” [7, 128-129].

Demak, Shayx Abbos Vali o‘ng qirg‘oqdan qadimiy Katning piri-homiysi-himoyachisi bo‘lgan. Hatto u haqida quyidagi maqol ham shakllangan: “Ish boshinda Shayx abbos, osh boshinda – ming shovvoz”. Ushbu maqolni keltirgan axborotchi o‘z navbatida avliyo ismining ma‘nosi to‘g‘risida ham ma‘lumot keltiradi: “Abbos” so‘zi “suv ko‘taruvchi, beruvchi” ma‘nosini anglatadi va bu bilan yerlarni sug‘orishda baland joylarga chig‘ir yordamida suv chiqarilganligiga ishora qiladi. Binobarin, bu axborotchi avliyoning ismi Xorazmda keng tarqalgan, insonlarni eng muhim manba suv bilan ta‘minlovchi avliyolarning vazifalari bilan bog‘liq deb hisoblaydi [7, 129].

Shobbozliklarning piri-homiysi Shayx Abbos Valining yashagan davri, uning tug‘ilishi va o‘limi haqida aniq dalillarni keltirish ancha mushkuldir. Faqatgina uning vafoti bilan bog‘liq ma‘lumotlar mavjud. Yuqorida ta‘kidlanganidek, u 1188-yilda [7, 127], ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra XIII asrda vafot etgan [4, 212].

Shu asnoda biz Qamariddin Eshon Muhammad Karim Eshon o‘g‘li hamda Komiljon Durdi Qilich o‘g‘li tomonidan yozilgan “Tazkiratul avliyo, yohud Xorazm diyorida madfun bo‘lgan avliyolar zikri” risolasida Shayx Abbos valiy haqida qiziqarli yana bir manbaga duch kelamiz:

“Ul Hazrat ba‘zi rivoyatlarga qaraganda, mutassavvuf imom, hujjatul islom Muhammad G‘azzoliy bilan qarindosh hamda hamsaboq ekanlar; Xorazm diyorinda sujjodanishi <sup>1</sup> bo‘lib, shayxlik tariqin oshkora qilib, haloyiqqa tasavvufni bildirgan kishi ham ul zot ekanlar.

Ul zoti sharif Jayxun (Amu) daryosining shimol tarafinda Ko‘hna Kat degan yerda madfundurlar.

Naqldurkim, ul aziz ul mavzega kelib dehqonchilik qilgan ermishlar. Ul mavzening odamlari goho ozor berar ekanlar. Ul aziz aytar ekanlar: “O‘z elimizdan haqorat ko‘rmak bizlarga sunnat”, -deb. Zeroki, Sultoni anbiyo

<sup>1</sup> “Sujjodanishin”, aniqrog‘i “sajjodanishin” (سجاده نشین) – “sajjoda” (سجاده) - joynamoz, “nishin” (نشین) – o‘tirmoq, ya‘ni joynamoz ustida o‘tirib doimiy ibodatda bo‘ladigan kishi.

Muhammad alayhissalomni ham qurayshiylar ko‘p ozorlagan ekanlar. Goho ul aziz boshlariga xas – cho‘pdan soyabon qilib, issiqda ekin o‘rar ekanlar.

Bir kuni shul dasturda o‘tog‘ o‘tab, horib yotgan ekanlar, boshlaridagi cho‘pdan bo‘lgan soyabonni bir bema‘ni o‘tga tashlabdi. Ul hazratning dillari qattiq og‘rib turur. Dili og‘riganlari soyabon o‘tda yonganiga emas, balki shul mavzeda yashayotganlarning behurmat va beandishaligi uchundir. Shuning uchun sohil xalqining kattalariga beboshlarini yomon yo‘ldan qaytarmaganlari uchun bad duo qilgan deyishadi. Rivoyatlarga qaraganda vafoti tarixlari “Sohibi zamon” dur. – 784 hijriy” [5, 6-7].<sup>1</sup>

Ushbu tarixdan ko‘rinadiki, Shayh Abbos valining vafotlari milodning 1382-yiliga to‘g‘ri keladi va bundan ko‘rinadiki, bu siymoning hayot faoliyati asosan XIV asrda sodir bo‘lgan.

Shunday qilib, XX asr o‘rtalarida Shayx Abbos Vali haqidagi afsonalar o‘ng qirg‘oq Kat, ya‘ni Shobboz aholisining esdaliklarida uchrasa-da, qadimiy poytaxt bilan bog‘liq xotiralar hali chap qirg‘oq Kat-qal’a aholisining yoshi ulug‘ vakillari orasida uzuq-yuluq shaklda bo‘lsa ham saqlanib qolgan edi.

Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi o‘zbek etnografik guruhining G.P Snesev rahbarligidagi tadqiqotlari Chap qirg‘oq Kat-qal’a tarixiga aloqador turli mazmundagi bir-biriga qarama-qarshi va bir-biridan qiziqarli rivoyat va afsonalarni taqdim qilgan. Tadqiqotlar Chap qirg‘oq Kat-qal’aning nomi bevosita o‘ng qirg‘oqdagi qadimiy Kat bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Bu qadimiy shahar aholisining Anushaxon davrida yangi joyga ko‘chirilishi asnosidagi tarixiy jarayonlarda aks etgan. O‘z navbatida, Shayx Abbos Vali haqidagi afsonalarning ikkala sohildagi shaharliklar aholi vakillari orasida keng tarqalganligi ham ular o‘rtasidagi aloqadorlikni tasdiqlaydi.

Yodgorlikning madaniy qatlamlari 2500 yillik tarixiy davrni qamrab olsa-da, uning tarixi bilan bog‘liq afsona va rivoyatlar shaharning so‘nggi 300 yillik bosqichini o‘z ichiga oladi. Uning qadimiy nomi masalasi hali yetarlicha tadqiq qilingan emas. Yodgorlikda hayot mo‘g‘ullar istilosidan keyin butunlay to‘xtaydi va Anushaxon (1664-1686-yy) davrigacha huvillab qoladi. Aftidan, yodgorlik atrofi ham uzoq vaqt tashlandiq holatda bo‘lgan. Amudaryoning o‘ng sohilidagi qadimiy Katdan ko‘chib kelgan aholi esa asosan o‘zlarining qadimiy shaharlari

---

<sup>1</sup> Ushbu ma’lumotlarni to‘plashda mualliflar Farididdin Attorning “Tazkiratul avliyo”, Abdurahmon Jomiyning “Hafahot ul uns” va Faxriddin Ali Voizning “Rashahoti ayn al-hayot” asarlariga murojaat qilganligini keltirib o‘tadilar.

bilan bog‘liq esdaliklarini ham shu yerga ko‘chirib keltiradi. Ushbu ma‘lumotlar yodgorlikning keyingi davri bilan bog‘liq bo‘lsa-da, qal’a tarixining XVII–XIX asrlarga oid davrini to‘laqonli yoritishga xizmat qiluvchi manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Аржанцева И.Н. 2016. Хорезм история открытий и исследований. Этнографический альбом. – Ульяновск: Изд-во ООО “Артишок”.
2. Абу Райхон Беруний. 1968. “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар”. // Танланган асарлар. I-том. Тошкент: ЎзССР “ФАН” нашриёти.
3. Гудкова А.В. 1964. Ток-кала. Ташкент: Изд-во “Наука”.
4. Гуломов Я.Ғ. 1959. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти.
5. Қамариддин Эшон Муҳаммад Карим Эшон ўғли, Комилжон Дурди Қилич ўғли. 1997. “Тазкиратул авлиё, ёҳуд Хоразм диёрида мадфун бўлган авлиёлар зикри”. Хонқа: Хонқа туман нашриёти.
6. Снесарев Г.П. 1969. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. Москва: Изд-во “Наука”.
7. Снесарев Г.П. 1983. Хорезмские легенды как источник по истории религиозных культов Средней Азии. Москва: Изд-во “Наука”.
8. Толстов С.П., Жданко Т.А., Итина М.А. 1963. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1958 – 1960 гг. – МХЭ, вып. 6. Москва: Изд-во АН СССР.
9. Хожаниёзов Ғ. 2007. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти.

TARIX**ABULG‘OZI BAHODIRXON TARIXIY ASARLARINING  
LINGVISTIK TADQIQI**

**Madamin  
ESHMURODOV,**  
Urganch innovatsion  
universiteti rektori,  
filologiya fanlari  
doktori, dotsent

UO‘K 811.512.133’373.2:254.2-24

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abulg‘ozi Bahodirxon tarixiy asarlarining yaratilish jarayoni tadqiq qilinadi, shuningdek lingvistik jihatdan tahlil etiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается процесс создания исторических произведений Абулгази Бахадырхана, а также дается лингвистический анализ произведений.

**Annotation:** This article examines the process of creating the historical works of Abulgazi Bahadirkhan. The works are also analyzed linguistically.

**Kalit so‘zlar:** Xorazm, tarix, Xiva xonligi, qo‘lyozma, siyosiy voqealar, adabiy til, tarixiy jarayonlar, etnografiya.

**Ключевые слова:** Хорезм, история, Хивинское ханство, рукопись, политические события, литературный язык, исторические процессы, этнография.

**The keywords:** Khorezm, history, Khiva Khanate, manuscript, political events, literary language, historical processes, ethnography.

Abulg‘ozi Bahodirxon Xorazm tarixida muhim o‘rin tutuvchi xonlardan biridir. Aynan uning zamonidan boshlab davlat hujjatlari turkiy tilga o‘tkazila boshlandi. Uning Xorazm tarixiga oid “Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk” asarlari nafaqat o‘zining tarixiy qimmatini, balki lingvistik, etnografik, badiiy, mifologik qimmatini bilan ham alohida ajralib turadi. Abulg‘ozi Bahodirxonning tabobatga oid asar ham yozganligi ma’lum. Ushbu asar ham til, tibbiyot, adabiyot nuqtai nazaridan tadqiq qilinishi ijodkor haqidagi yangi va fan uchun muhim ma’lumotlarni taqdim qilishi shubhasiz.

Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk” asarlarini bugungi kungacha Sharq mamlakatlari turli tillarga tarjima qilib, bir necha bor nashrlarini amalga oshirdilar. Ushbu asarlar ustida bir qancha ilmiy ishlar olib borildi. Tarixiy voqealar bayoni, adabiy-badiiy qimmatini o‘z bahosini topdi. Xorazm turkiy tarixnavisligida dastlabki manba sifatida e’tirof etib kelindi. Biz quyida ushbu ikki asarning eski o‘zbek tili leksikasini o‘rganishdagi o‘rni va

ahamiyati, undagi davlatchilikka oid terminlar, ayrim o‘zlashma so‘zlarning davlatchilik terminologiyasidagi funksiyalari masalalarini yoritishga harakat qildik.

“Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlari turkman, tojik, o‘zbek, mo‘g‘ul xalqlari tarixini yoritishda tayanch manbalardandir. B.Ahmedov, Q.Munirov, K.Yusupov, Y.G‘ulomov, M.Yo‘ldoshev kabi olimlar Abulg‘ozi ma’lumotlaridan keng foydalanishgan. A.N.Kononov, A.M.Shcherbak, S. I. Ivanov kabi tilshunos olimlar Abulg‘ozi asarlariga suyanishgan. O.Sharafiddinov, M.Yunusov, V.Abdullayevlar adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etishgan.

“Shajarayi tarokima” (1658-1661-yillar orasida yozilgan deb taxmin qilinadi) turkiy qabilalarning, xususan, turkman qabilalarining kelib chiqishi haqida qimmatli ma’lumot beradi. Asarda barcha turklarning afsonaviy podshosi O‘g‘uzxon va uning avlodi tarixi, shuningdek, turkman urug‘lari (solur, bayondur, taka, yovmut, tevachi, Xizr eli, sariq, Ali eli, yozir, ersori va boshqalar)ning kelib chiqishi qisqa tarzda bayon etilgan. “Shajarayi tarokima”, Abulg‘ozixonning o‘z so‘zlariga qaraganda, turkman mullalari, shayxlari va beklariniig iltimosi bilan yozilgan. Ushbu asarning tanqidiy matni, ruscha tarjimasi, katta ilmiy tadqiqot bilan birga, 1958-yili A.N.Kononov (1906-1986) tarafidan Sankt-Peterburgda chop etilgan<sup>1</sup>. Mazkur asarning bizga dunyo xazinalarida yettita nusxasi ma’lum. Ulardan ikkitasi Rossiyada<sup>2</sup> va qolgan beshta nusxasi Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHIda saqlanadi<sup>3</sup>. Ular turli

<sup>1</sup> Qarang: Самойлович А.Н. Одни из списков «Родословного древа туркменского» Абулгази-хана // ДАН-В. 1927. – С. 39-42; Кононов Л. П. Родословный туркмен, сочинение Абу-л-Газн, хана хивинского. -М.-Л., 1958. – С.. 20-27; Собрание, И, 72, №171; Кал Е. Персидские, арабские и тюркские рукописи Туркестанской Публичной библиотеки. Т.,1889. – С. 52. – № 801. (г); Туманский А.Г. Абул-Гази-Бохадур-хан, Родословная туркмен, Ашхабад, 1897 (по ташкентской рукописи). Шажарайи Тарокима. Истанбул. 1937;Кононов А.Н. Родословная туркмен. (текст, перевод, комментарии и исследование). М. — Л., 1958. Самойлович А.Н. По поводу издания Н. П. Остроумовым «Светоч ислама» // ЗВОРАО, XVIII. – С. 2-4; Бартолд В.В. Очерк истории туркменского народа. // Туркмения. Л., 1929. – С. 36. – Сочинения. Т. II. Ч.1. – С. 584-594; МИТТ. ИИ. – С. 28-38.

<sup>2</sup> Rossiyadagi nusxalari tavsifiga qarang: Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей Инстиута Народов Азии. И. История. / Род ред. А.Н. Кононова. -МОСКВА:Наука. 1965. – С. 92-94.

<sup>3</sup> Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet. [https://uriu.uz/media/ilmiy\\_hayot/kitob/5.pdf](https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf)

vaqtlarda ko‘chirilgan bo‘lib, faqat ikkitasida kotiblarning nomi yozilgan. Bulardan biri Mirzo Amon ibn Ison Xuzoriy bo‘lib, nusxani rajab oyi 1341-yili / 17-fevral – 19-mart 1923-yili Buxoroda ko‘chirgan (nusxa raqami 1223). Ikkinchi kotib Muhammadsharifxo‘ja Muhammado‘g‘li Mullo Boqijon Rahmon o‘g‘li iltimosi bilan Rabiul-avval 1344/19-sentyabr – 19-oktyabr 1925-yili ko‘chirgani ma‘lum bo‘ladi (№ 1807)<sup>1</sup>.

Abulg‘ozixonning ikkinchi asari “Shajarayi turk” nomi bilan mashhur. Mazkur asarning asosiy qismi 1663-1664-yillarda yozilgan. Unda Xorazmning XVI-XVII asr birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etiladi<sup>2</sup>.

XIX-XX-asrlarda “Shajarayi turk” ning ko‘plab tanqidiy tarjimalari nashr etilgan bo‘lib, zamonaviy olimlar uchun tarixiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Professional olimlar tomonidan amalga oshirilgan birinchi tanqidiy tarjima 1825-yilda Qozonda nashr etilgan. Uning turkcha tarjimasi filolog Ahmad Vefik Posho tomonidan amalga oshirilgan va dastlab 1864-yilda nashr etilgan.

Nikita Bichurin birinchi bo‘lib turk xalqining epik ajdodi O‘g‘uzkogonning tarjimai holi bilan ajoyib o‘xshashlik borligini payqadi. Xitoy manbalarida bu modundir (ota va o‘g‘il o‘rtasidagi nizo va birinchisining o‘ldirilishi, istilolarning yo‘nalishi va ketma-ketligi va boshqalar). Boshqa olimlar tomonidan tasdiqlangan bu kuzatish ilmiy adabiyotlarda Modun nomini O‘g‘uzkogonning epik shaxsi bilan bog‘laydi<sup>3</sup>. O‘xshashlik yanada hayratlanarli, chunki u yozilgan vaqtda Sharq yoki G‘arb tillariga tarjima qilingan Xitoy yilnomalari yo‘q edi, Abulg‘ozi esa Sharqiy xunlar yoki modunlarni bilmagan bo‘lishi mumkin edi.

<sup>1</sup> Ushbu nusxalarning boshqa kodikologik tavsifi haqida qarang: Собрание восточных Рукописей АН Республики Узбекистан (СВР). История. / Составители: Д.Ю. Юсупова, Р.П. Джалилова. -Тошкент.: Фан, 1988. – С, 152-154.

<sup>2</sup> Абулғозийнинг ушбу асаридан 11 нусхаси Тошкентда (ЎзФАШИ) ва олти нусхаси Санкт-Петербургда сақланади. Қаралсин: СВР. История. – С. 154-155; Ахмедов Б. Историко-географическая литература. – С. 72-78; Шу муаллиф. Тарихдан сабоқлар. – Б. 217-223; Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей Института Народов Азии. II. История. – С. 93-94; Яна қаранг: Лекции И.Н. Березина, записанные студентом В. Игнатьевым в 1866 г., 4-я лекция. / Архив востоковедов ЛО ИНА АН СССР, разряд III, опис 1. – № 31. В «Ученых записках IV АН СССР». VI, 1953. – С. 41 ва кейингилари (№29); Яна асрнинг бошқа нусхалари ҳақида қаранг: Пертсч В. Дие Хандсchrifтен-Верзаэчниссе дер кёнигличен Библиотхек зу Берлин. Абулгази. Шаджарайи турк. Перевод Тредьяковского. (Казан) 1770; Родословное древо тюрков. Сочинение Абул-Гази хана хивинского. Перевод и предисловие Г.С. Саблукова. Казан, 1906. Ўзбек тилидаги нашрлари:

<sup>3</sup> Taskin V. S., Materials on the history of the Sünnu, transl., Moscow, Science, 1968, Vol. 1, p. 12

“Shajarayi turk”ning yozilish sabablari haqida muallifning o‘zi bunday deydi: “Ammo bizning ota-onaqalarimizning beparvolig‘i va Xorazm xalqining bevuqufliqi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizning Abdullaxonning (Shayboniy Abdullaxon II; 1583-1598-yillari Buxoro xoni) otalari (Abulxayrxon; 1528-1568-yillar) birlan bizning otalarimizning (Shayboniy Yodgorxon; XV asr) ayrilgan yeridin to bizga kelguncha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali deb fikr qilduq, hech munosib kishi topmaduq, zarur bo‘ldi [va] ul sababdin o‘zimiz aytduq»<sup>1</sup>.

Ushbu ma‘lumotlardan xulosa qilib biz har ikki asar ham XVII asrda yaratilganligini va shu davr eski o‘zbek tilining o‘ziga xosligini namoyon qiluvchi eng muhim manba ekanligini ta’kidlashimiz joiz.

Har ikki asarning lingvistik tadqiqini amalga oshirish jarayonida quyidagi masalalarga alohida urg‘u bermoq lozim:

Birinchidan, asar leksikasida o‘zlashmalar qatlami, uning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zlashmalarning asar badiiyatidagi o‘rni va ahamiyati, o‘zlashmalar ko‘lami, tarkibiy tahlili, qaysi til lug‘at qatlamiga mansub ekanligi. Ushbu tahlillardan o‘zbek tili tarixiga oid quyidagi muhim ilmiy xulosalarga kelishimiz mumkin: eng avvalo, “Shajarai turk” va “Shajarai tarokima” asarlarida arabiy va forsiy qatlamga oid til birliklarining ko‘lami aniqlashadi, o‘zlashmalarning har ikki asar leksikasidagi o‘ziga xos xususiyatlariga oid muhim ilmiy faktlar to‘planadi, chunki, o‘zlashmaning tarixiy asar badiiyatidagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Bu borada, ayniqsa o‘zlashma so‘zlarning badiiy-tasviriy vositalar – nasriy matnda she’riy san’atlar yuzaga kelishidagi o‘rni va bu orqali asarning estetik ta’siridagi vazifasi ochib beriladi<sup>2</sup>. O‘zlashmaning asar leksikasida qo‘llanish sabablari yoritiladi. Bu orqali Abulg‘ozi Bahodirxonning Sharq mumtoz tarixnavisligi an‘analariga amal qilish prinsiplari oydinlashadi. Arabiy yoki forsiy qatlamga oid birliklarning genetik tahlili orqali ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati va tilshunos sifatidagi qiyofasi, o‘zlashma qatlamga munosabati aniqlashadi.

<sup>1</sup> Абулғози. Шажарайи турк. Нашрга тайёрловчилар Қ.Муниров, Қ.Ўўлдошев. Т. Чўлпон. – Б. 9.

<sup>2</sup> Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet. [https://uriu.uz/media/ilmiy\\_hayot/kitob/5.pdf](https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf)

Ikkinchi navbatda, har ikki asar leksikasiga oid birliklarning asar badiiy-estetik ta'sirini oshirishdagi o'rni va ahamiyati yoritilishi zarur. Bu orqali tilshunoslik uchun quyidagi muhim ilmiy xulosalarga kelish mumkin: Abulg'ozixonning so'z qo'llash mahorati, nozik ma'no qirralari orqali muhim ilmiy ma'lumotni yetkazish qudrati, omonim, sinonim, antonim, polisemantik so'zlarning asar lingvopoetikasida bajargan funksiyalarining keng tahlil qilinishi tufayli lingvopoetika va lingvoestetikaga oid muhim faktlarni qo'lga kiritish mumkin. Biz Sharq mumtoz adabiyotiga mansub she'riy va nasriy asarlarning lingvopoetikasini tahlil qilish bilan birga, Sharq mumtoz tarixnavisligiga oid manbalarni ham lingvopoetik va lingvoestetik nuqtai nazardan tadqiq qilishimiz zarur. Bu umumiy xulosalar chiqarishimizga sabab bo'ladi. Chunki davr tarixnavisligiga oid manbalar ko'p hollarda ijodkorlar yoki tarixnavislar tomonidan yaratilsa-da, asarning badiiyatiga juda kuchli urg'u berilgan hamda she'riy parchalar bilan bezatilgan. Bu jihat ushbu asarlarni bemalol lingvistik, lingvopoetik, lingvoestetik tomondan tahlil qilish mumkinligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, har ikki asar leksikasidagi turkiy qatlamga oid birliklarning o'ziga xosliklarini aniqlash, turkiy qatlam ko'lamini belgilash, ularning asar badiiy, ilmiy maqsadini belgilashdagi o'rni, g'oyasini ochib berishdagi ahamiyati, turkiy qatlam birliklarining genetik tahlili, qadimgi va eski turkiy til leksikasi bilan bog'liqligi, morfologik va sintaktik tomonlari, fonetik jihatlari, davr eski o'zbek adabiy tilidagi funksiyalari, o'rni va ahamiyati, ma'no ko'lamini, hozirgi o'zbek adabiy tiliga nisbatan tahlil va talqinlari, ma'no kengayishi va ma'no torayishi, fonetik qobig'i kabi masalalar yoritilishi zarur. Mazkur tahlillar til taraqqiyotiga oid nazariyalarni aniqlashtirishga, turkiy til birliklarining ma'no taraqqiyotiga oid xulosalarni yoritishga, qadimgi va eski turkiy til hamda eski o'zbek adabiy tili va hozirgi o'zbek adabiy tili birliklarining munosabatlari, mavjudlik va iste'moldan chiqish sabab hamda omillari, qonuniyatlarini oydinlashtirishga sabab bo'ladi.

To'rtinchidan, bevosita mavzu bilan aloqador holatda o'z va o'zlashma qatlam birliklaridan davlatchilikka oid terminlarni ajratish, ularning mavzuiy guruhlarini belgilash, genetik tahlillarini amalga oshirish, asar leksikasida tutgan o'rni va funksiyalarini belgilash, terminlarning qaysi lug'aviy qatlamga mansubligini aniqlash, ular anglatgan tushunchalarning davr ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rnini belgilash, qisqa izohli lug'atini tuzish. Bu tahlillar tarix, etnografiya, siyosatshunoslik, tilshunoslik, lug'atshunoslik, madaniyatshunoslik

fanlarining tegishli tarmoqlari rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy ma'lumotlarni taqdim etishi shubhasiz.

Beshinchidan, har ikki tarixiy asar leksikasiga oid birliklarni mavzuiy-semantik guruhlariga ajratish; bu orqali “Shajarai turk” va “Shajarai tarokima” asarlari leksikasiga oid birliklarning har bir guruhiga mansub soʻzlar koʻlami aniqlashadi, izohli yoki statistik lugʻatini tuzish imkoni yaratiladi, davr tarixi, madaniyati, etnografiyasi, ijtimoiy-siyosiy hayoti va boshqa sohalarga oid muhim ma'lumotlar jamlanadi.

Oltinchidan, asarda keltirilgan toponimlar, etnonim, antroponim, gidronim va boshqa onomasiologik birliklarga berilgan muhim lingvistik izohlarni mukammal oʻrganish. Bu orqali biz leksikologiyaning muhim tarmogʻi hisoblanmish etimologiyaga mansub muhim ilmiy faktlarni qoʻlga kiritishimiz mumkin<sup>1</sup>. Shuningdek, asarda ayrim soʻzlarga berilgan bugungi kunda ham ilmiy etimologiya deb qaralib kelinayotgan izohlarga ilmiy-tanqidiy yondashuv zarur. Bu orqali biz soʻzning chin maʼnodagi ilmiy faktlar bilan isbotlangan etimologiyasiga yetib borishimiz mumkin. Aks holda xalqona etimologiya bilan ilmiy etimologiya qorishib ketishi ehtimoli mavjud.

Ushbu keltirilgan lingvistik tadqiqot yoʻnalishlari biz ushbu oʻrinda sanab oʻtganlarimiz, xolos. Agar har ikki tarixiy asarning mukammal lingvistik tadqiqi amalga oshirilsa, aminmizki, boshqa koʻpgina yoʻnalishlarda muhim yangiliklarni qoʻlga kiritish mumkin. Qolaversa, sanab oʻtilgan ushbu tadqiqot yoʻnalishlarini Xorazm tarixnavisligiga oid barcha asarlarga tatbiq qilish mumkin. Shuningdek, mumtoz adabiyotimizga mansub har qanday ushbu yoʻnalishlarda tahlil qilinsa, oʻzbek tili tarixiga doir qimmatli ma'lumotlar jamlanishi, oʻzbek tili tarixiga oid yaratiladigan izohli lugʻatlar mukammal koʻrinishga ega boʻlishi shubhasiz.

Quyida keltirilgan yoʻnalishlar doirasida Abulgʻozi Bahodirxonning “Shajarai turk” va “Shajarai tarokima” asarlarini tahlil qilib koʻramiz.

Har ikki asarni oʻqish jarayonida amin boʻlamizki, muarrix imkoni boricha turkiy til imkoniyatlaridan foydalanishga, uning maʼno jilolarini namoyon qilishiga intilgan: “Toʻyga kelgan ulugʻ va kichik barcha oʻgʻlonning bu soʻziga

---

<sup>1</sup> Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet.  
[https://uriu.uz/media/ilmiy\\_hayot/kitob/5.pdf](https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf)

tong qoldilar. Taqi aytdilar, bu o‘g‘lonning o‘zi otini aytatur, mundin yaxshi ot bo‘lurmu teb, otini O‘g‘uz qo‘ydilar. Taqi aytdilarkim, bir yashar o‘g‘lonning mundoq so‘zlaganini hech zamonda hech kim eshitgan va ko‘rgan yo‘q turur teb, ani irim etib aytdilarkim bu uzoq umrli va ulug‘ davlatli va uchi uzag‘an va yoni yoyilg‘an bo‘lg‘usi turur, tedilar<sup>1</sup>.” Parchadan ma‘lum bo‘ladiki, asar leksikasida turkiy so‘zlar asosiy ahamiyat kasb etadi. Parchada faqat bir-ikki o‘rindagina arabiy va forsiy o‘zlashma uchraydi, xolos.

Ammo har ikki asar tilida arabiy va forsiy o‘zlashmalar ham salmoqli o‘rin tutishini nazardan chetda qoldirmaslik zarur. Sharq tarixnavislik an‘analariga ko‘ra tarixiy asarlar hamd va na‘t bilan boshlanishi zarurligi barchamizga ma‘lum<sup>2</sup>. Asarning ayni shu qismida, shuningdek, xon, ma‘lum amal yoki unvon egasiga maqto‘v, ta‘rif qismlarida ham arabiy, forsiy o‘zlashmalar ko‘p qo‘llanishi haqida ilmiy tadqiqotlarda alohida ta‘kidlar mavjud<sup>3</sup>.

Xususan, asarda o‘qiymiz: “Bu faqirga, Xudoy taolo inoyat qilib ko‘p nimarsa bergan turur. Xususan, uch hunar bergan turur. Avval, sipohigarlikning qonuni va yo‘sunikim nechuk otlanmoq va yurumak va yovg‘a yosoq yasamoq, ko‘p birlan yuruganda nechuk qilmoq, oz birlan yuruganda nechuk qilmoq, do‘stg‘a-dushmang‘a nechuk so‘zlamog‘. Ikkinchi, masnaviyyot va qasoid va g‘azaliyot va muqatta‘ot va ruboiyot va barcha ash‘orni fahmlamaklik, arabiy va forsiy va turkiy lug‘atlarning ma‘nosini bilmaklik. Uchinchi, Odam ahlindin to bu damg‘acha Arabistonda, Eron va Turonda va Mo‘g‘ulistonda o‘tgan podshohlarning otlari va umrlarining va saltanatlarining kam yoki ziyodin bilmaklik”<sup>4</sup>. Parchadagi *faqir*, *Xudoy taolo*, *hunar*, *do‘st*, *dushman*, *masnaviyyot*, *qasoid*, *g‘azaliyot*, *muqatta‘ot*, *ruboiyot*, *ash‘or*, *Odam*, *ahd*, *podshoh*, *umr*, *saltanat*, *kam*, *ziyod* o‘zlashmalarini sanaydigan bo‘lsak, asarda ushbu ikki til orqali turkiy tilga kirib kelgan so‘zlarning ham ahamiyati va salmog‘i katta ekanligi anglashiladi. Albatta, ushbu o‘zlashmalar asar matnida ma‘lum funksiyalarni bajarishga xoslantirilgan. Parchada ular matnning estetik ta‘sirini


<sup>1</sup> Абулғози. Шажарайи турк. Нашрга тайёрловчилар Қ.Муниров, Қ.Йўлдошев. Т. Чўлпон. 1992. –Б. 18.

<sup>2</sup> Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet. [https://uriu.uz/media/ilmiy\\_hayot/kitob/5.pdf](https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf)

<sup>3</sup> Махмудов Р. Огаҳий тарихий асарларида ўзлашмалар. Филол. фан. доктори дисс. Тошкент. 2022. –Б.26.

<sup>4</sup> Абулғози. Шажарайи турк. Нашрга тайёрловчилар Қ.Муниров, Қ.Йўлдошев. Т. Чўлпон. – Б. 8 – 9.

oshirish bilan birgalikda tazod: *faqir – Xudoy taolo, do‘st – dushman, kam – ziyod*; tanosub: *masnaviyyot, qasoid, g‘azaliyot, muqatta‘ot, ruboiyot, ash‘or; podshoh, saltanat* kabi tasviriy vositalar yuzaga kelishiga xizmat qildirilmoqda.



Asar leksikasiga oid so‘zlarning mavzuiy-semantik guruhlarini ajratish davr etnografiyasiga oid muhim ma‘lumotlarni jamlash imkonini taqdim qiladi. Chunonchi, quyidagi parchaga e‘tibor qarataylik: «[Arab Muhammad] xon bo‘lgandin (1602-yili) olti oydin so‘ng Qo‘sh yoyiq tegandi yurugan o‘rusning qozoqindin ming kishi saratonning avvalgi kuni g‘ofil kelib, Urganchning qal‘asina kirdi. Shaharda ra‘iyatdin o‘zga kishi yo‘q edi<sup>1</sup>. Xonning o‘rdusi va sipoh xalqi Amu suvinining labinda erdilar... [Urus qozoqi] Urganchda ra‘iyatdin ming kishini o‘lturdi va ming qiz birlan juvonni oldi. Ming arabag‘a yaxshi mollardin yukladi. Bo‘z va buyog‘li va palos va to‘n va to‘shak-yastuq mundag‘ nimarsalarning barchasini o‘tga yoqdi. Bularni saranjom qilguncha yetti kun bo‘ldi. Andin so‘ng Urganchdin chiqib daryo labiga yurudu...»<sup>2</sup>

Keltirilgan parchadagi so‘zlarni mavzuiy-semantik guruhlariga ajratsak: davlatchilik terminlari: *xon, qal‘a, shahar, ra‘iyat, o‘rdu, sipoh, xalq*; maishiy leksika: *mol, araba, bo‘z, bo‘yog‘li* (rangli matolar), *palos, to‘n, to‘shak, yastuq*; etnonimlar: *o‘rus, qozoq*; toponimlar: *Qo‘sh yoyiq, Urganch*; gidronimlar: *Amu, suv, daryo* va boshqalar. Ushbu guruhlariga mansub har birlikning o‘ziga xos qo‘llanish sabablari, matnda bajargan funksiyasi, so‘zning qaysi lug‘at qatlamiga mansubligi, kelib chiqish tarixi (etimologiyasi), fonetik, morfologik, semantik taraqqiyoti – mazkur masalalarga oydinlik kiritish bizning tadqiqotlarimizning asosiy maqsadidir.

Asarda keltirilgan etnografiya va tilshunoslikning tutashgan nuqtasi bo‘lmish etnonimlar, ularning kelib chiqish tarixi, nomlanish sabablari (biz bugun

<sup>1</sup> Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet.  
[https://uriu.uz/media/ilmiy\\_hayot/kitob/5.pdf](https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf)

<sup>2</sup> Абулғози. Шажарайи турк. Нашрга тайёрловчилар Қ.Муниров, Қ.Йўлдошев. Т. Чўлпон. 1992. –Б. 160.

nominatsiya prinsipi, nomlash tamoyili deya tahlil qilyayotgan masalalarimizga Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxon, Ogahiy kabi tarixiy, tarixiy-badiiy yoki memuar asar yaratgan ajdodlarimiz o‘z davridayoq chuqur ilmiy xulosalar vositasida aniq faktlarni bizga qoldirganlari tahsinga sazovordir), alohida keltirib o‘tiladi, ya’ni turk-mo‘g‘ul qabilalari, xususan, ular nomlarining ma’nosi haqidagi ma’lumotlar, o‘zbeklar, sartlar hamda turkman urug‘lari (sariq, yovmut, qizil ayoq, ersari kabi) haqidagi ma’lumotlar ham tilshunoslik uchun o‘ta muhimdir. Jumladan, turkiy qabilalarga kiruvchi va turk nomi bilan ataluvchi qabilalar quyidagi katta 5 avlod (bo‘g‘in)ni tashkil qiladi degan<sup>1</sup>. Bular: uyg‘ur, qang‘li/qangli, qipchoq, qalach, qarluq qabilalari. So‘ngra u boshqa turkiy qabila va urug‘lar haqida to‘xtab o‘tadi: 1. Tekrin yoki mekrin. 2. Qirg‘izlar. 3. Kem-kemchutlar. 4. O‘rmonkat. 5. Nukuzlar. 6. Tatarlar. 7. Oyrat/uyrat. 8. To‘rg‘ovut. 9. Qo‘ri. 10. To‘las. 11. Bulg‘ochin. 12. Kermuchin. 13. Tulengut. 14. O‘rasut. 15. Kusutmay. 16. Nayman. 17. Kerayit. 18. O‘ngut. 19. Turg‘oq. Ajoyibi shundaki, Abulg‘oziy bu etnonimlarning ba’zilarini etimologiyasi bilan beradi<sup>2</sup>.

Xususan, Abulg‘ozi Bahodirxon o‘z kitobida mo‘g‘ullarni ikki katta bo‘lakka bo‘ladi. Biri qiyon/qiyot (nirun), ikkinchisi nuguz/nukuz (darlikin). Bulardan tashqari, mo‘g‘ullardan 25 ta urug‘ va qabilalarini tilga oladiki, ulardan barisi o‘zbek xalqining etnik tarkibiga kirgan<sup>3</sup>. “Asl lafzi mo‘g‘ul turur. Avomning tili kelmaslikidin bora-bora mo‘g‘ul tedilar. Mungning ma’nosin barcha turk bilurlar: qayg‘u ma’nosina turur. Ulning ma’nosi sodadil, ya’ni qayg‘uli soda temak bulur”; “Qipchoq – Tan (Don) va Itil (Volga) va Yoyiq (Ural), bu aytilg‘an suvlarning orasinda o‘lturlar”; “Qiniqli turkman birlan birga o‘lturur erdilar. Turkman viloyatg‘a tushgandin so‘ng Issiqko‘l va Chu va Talosh; bu aytilg‘an suvlarning yoqalarinda vatan qilib, ko‘p yillar o‘lturdilar, Urganch podshohlarindin Tekashxon (1172-1200-yillari hukmronlik qilgan) qiniqlining bir o‘g‘lining qizin oldi. Turkan otliq. Sulton Muhammad Xorazmshoh (1200-1220-yillari hukm surgan) ul qizdin tug‘di”. So‘nggi misol: «To‘qtog‘uxon (1290-1312-yillari hukmronlik qilgan Oltin O‘rda xoni) o‘lgandin so‘ng o‘n uch

<sup>1</sup> Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet.  
[https://uriu.uz/media/ilmiy\\_hayot/kitob/5.pdf](https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf)

<sup>2</sup> Mufasssal qarang: Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. -Тошкент.: Фан, 1968. – Б. 32 va keyingilari.

<sup>3</sup> Bular: merkit, qo‘ng‘irot, qoranut, qurlos, elchigin, urmovut/uymovut, ko‘nikmar, arlot, kelkit, boday/baday, qilik, uyshun, suldus/sulduz, eldurkin/ildurkin, kenkit, do‘rban/do‘rman, barin/bahrin, sukut, qurlovut, burqut, uklan/o‘qlan, jurot, hojarot, boyvut, jaloyir.

yoshinda O‘zbekxon (1312-1342) xon bo‘ldi. Taqi elni ota-bobosining dasturi birlan zabt qildi. Har kimning martabasini loyiq hurmat qilib, in’omlar berdi. El-ulusni dini islomg‘a kirguzdi... Andin so‘ng Jo‘ji elini o‘zbek eli tedilar”<sup>1</sup>.

Undan tashqari asarda keltirilgan etnonimlardan boshqa orlot/arlat, og‘or, olayunotli, o‘qli, aymoq, boshqird, bayot, tot, totar, temirli, turumchi, turk, turkman, taka, turbotli, tevachi, jobi, jomachi, cho‘bichoq, cho‘boni, chig‘atoy, cho‘ni, xizir eli, xurosonli, xalaj, dukar<sup>2</sup>, soiq, solur, surxi/surqi, soqar, saljuq, sultonli, savroqi, sovchili, qo‘rg‘oli, qo‘rqin, qorliq, qipchoq, qoratoshli, qalmoq, qirg‘iz, chiroyli, qutlar, lola, mo‘g‘ul, mang‘it, nayman, mo‘ndi, yozir, yag‘mo, yovmut, yurti<sup>3</sup> kabi o‘nlab etnonimlar uchraydiki, ular ustida ham tadqiqot olib borish xalqimiz tarixi, o‘zbek tili tarixiga oid muhim ilmiy xulosalar chiqarishimizga sabab bo‘lishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm tarixnavisligi maktabining asoschisi tom ma’noda Abulg‘ozi Bahodirxon hisoblanadi. Uning asarlarida dasht og‘zaki istoriografiyasidan keng foydalanilgan. Shu bilan birga, Abulg‘ozi o‘z asarlarida fors istoriografiyasi va umuman, Sharq tarixnavisligi an‘analaridan unumli foydalana olgan. U Xorazm vohasida turkiy (chig‘atoy) tilida islom istoriografiyasi doirasida turkiy xalqlarning paydo bo‘lishi, ularning islomlashuv jarayonlari va zamonasida dolzarblik ahamiyat kasb etgan ko‘p mavzu va muammolarga ahamiyat bergan. Uning har ikki tarixiy asarlari tili, lug‘at tarkibi, o‘z va o‘zlashma qatlam, so‘zlarning mavzuiy-semantik guruhlar va ularga oid birliklarni ajratish, so‘zlarning qaysi lug‘at qatlamiga oid ekanligini belgilash, genetik hamda komponent tahlillarini amalga oshirish o‘zbek tili tarixi, xalqimiz tarixi, madaniyati va boshqa sohalar rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> Абулғози. Шажарайи турк. – Б. 102.

<sup>2</sup> Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet.  
[https://uriu.uz/media/ilmiy\\_hayot/kitob/5.pdf](https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf)

<sup>3</sup> Mufasssal qarang: Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Б.35.

**TARIX****MIRZO ULUG‘BEKNING NIGOHI TUSHGAN YANA BIR  
QO‘LYOZMA**

**Firdavs  
ABDUXOLLIQOV,  
O‘zbekiston madaniy  
merosni saqlash,  
o‘rganish va  
ommalashtirish  
bo‘yicha Butunjahon  
jamiyati boshqaruvi  
raisi, san’atshunoslik  
bo‘yicha falsafa  
doktori.**

**UO‘K 95.15**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada buyuk astronom olim va davlat arbobi, temuriyzoda hukmdor Mirzo Ulug‘bekning ilm-fan rivojiga ko‘rsatgan homiyligi, uning davrida yashab ijod qilgan olimlar va mutafakkirlar haqida so‘z yuritiladi.

**Аннотация:** В данной статье говорится о Мирзо Улугбеке, великого астронома, учёного и государственного деятеля, правителя периода Тимуридов, о покровительстве развитии науки, а также учёным и мыслителям, жившим и творившим в его время.

**Annotation:** This article talks about Mirzo Ulugbek, a great astronomer, scientist and statesman, ruler of the Timurid period, about his patronage of the development of science, as well as scientists and thinkers who lived and worked in his time

**Kalit so‘zlar:** Ulug‘bek, As-Sufiy, rasadxona, qo‘lyozma, jadval, miniatyura, astronom.

**Ключевые слова:** Улугбек, Ас-Суфи, обсерватория, рукопись, таблица, миниатюра, астроном.

**Key words:** Ulugbek, Al-Sufi, observatory, manuscript, chart, miniature, astronomer.

Buyuk temuriyzoda hukmdor Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek (1394-1449) Movarounnahr hududida ro‘y bergan Ikkinchi renessansning asoschilaridan biri sanaladi.

Mirzo Ulug‘bek boshqaruvidagi qirq yilga yaqin vaqt mobaynida Vatanimiz hududida ilm-fan, madaniyat, me‘morchilik taraqqiy etdi. Samarqand, Buxoro va G‘ijduvon shaharlarida madrasalar barpo etildi. Xususan, Registon maydonida 1420-yil sentabrda foydalanishga topshirilgan madrasai oliya dunyoning ilk universitetlari bilan bimalol bellasha oladi. Samarqandda Sharqdagi eng yirik ilmiy muassasalardan biri bo‘lgan rasadxona qad rostladi<sup>1</sup>.

Mirzo Ulug‘bekning o‘zi ham davlat boshqaruvidan bo‘sh paytlarida talabalarga saboq bergan, osmon jismlarini kuzatgan, tarixiy va adabiy asarlarga qo‘l urgan.

<sup>1</sup> Якубовский А. Ю. Самарканд при Тимуре и Тимуридах. — Л., 1933. — С. 56.

Mir Alisher Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" asarida Mirzo Ulug'bekning yuksak she'riy iqtidori haqida ham so'z yuritadi va uning she'rlaridan namunalar keltiradi<sup>1</sup>.

Ulug'bek davrida mumtoz o'zbek adabiyoti ham yuksaldi. Ulug'bek hukmronligi yillarida Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Amiriy, Gadoiy singari o'zbek shoirlari ijod qildi. Xuddi shu davrda o'zbek tilida "Gul va Navro'z", "Mahzanul-asror", "Yusuf va Zulayho", "Funun-al balog'a", "Nahjul-farodis" singari asarlar yaratildi. "Qur'oni karim"ga sharhlar bitildi, Sa'diy, Nizomiy Ganjaviy singari buyuk mutafakkirlar asarlari tarjima qilindi.

Buyuk o'zbek shoiri Lutfiy Mirzo Ulug'bek haqida shunday baytni bitgandi:

*Ulug'bekxon bilur Lutfiy kalomin,  
Ki rangin she'ri Salmondin qolishmas<sup>2</sup>.*

Ulug'bek topshirig'i bilan va bevosita uning ishtirokida bitilgan "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi") asari turkiy xalqlar tarixini o'rganishda eng nodir manbalardan biri sanaladi.<sup>3</sup> Mirzo Ulug'bek boshchiligidagi rasadxonadagi kuzatuvlar asnosida 1437-yilda tuzilgan "Ziji jadidiy Ko'ragoniy" asari zaminimizda ilmi nujum, ya'ni astronomiya juda erta taraqqiy eta boshlaganidan darak beradi. Ushbu asarda 1018 ta yulduzning elliptik sistemadagi o'rni aniq hisob-kitoblar asosida ko'rsatib berilgan.

Mirzo Ulug'bekning bevosita rahbarligi ostida ko'chirilgan asarlardan biri Abdurahmon as-Sufiyning (903-986) "Kitabi sivaril-kavakib as-sabita" ("Qo'zg'almas yulduzlar suratlari kitobi") asaridir. Asar nusxasi "Ziji jadidi Ko'ragoniy" bilan deyarli bir paytda ko'chirilgan, deya taxmin qilinadi.

Ma'lumki, yulduzlar jadvallarini tuzish antik davrda, qadimgi Misr, Yunoniston va Rimda boshlangan edi. Bizgacha yetib kelgan eng qadimgi yulduzlar jadvali yunon olimi Yevdoks Knidskiy (er avv. 397/390-345/338)ga tegishli. U o'zining Phainómena («Hodisa») asarida yulduzlarning fazo kengliklaridagi joylashuvi va harakati haqidagi ilmiy tasavvurlarni bergan.

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Мажолисун-нафоис. МАТ 20 жилдлик, Ж15. – Тошкент, Фан, 1994. – Б. 78.

<sup>2</sup> Лутфий. Сенсан севарим. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи С.Эркинов. – Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1987. – Б. 189.

<sup>3</sup> Мирзо Улуғбек, Тўрт улус тарихи. – Тошкент, Чўлпон. 1994. – Б. 224.

Keyinchalik milodiy 147/148-yillarda iskandariyalik astronom Klavdiy Ptolemey (100-160) tomonidan yana bir taqvim - “Megíste” asari yaratilgan. Unda 1025 ta yulduzning joylashuv o‘rni ko‘rsatib berilgan. U 48 ta yulduz turkumini yorug‘lik darajalariga ko‘ra tasniflab chiqqan.

Asrlar davomida G‘arb va Sharqda bu asarga bir qator sharhlar bitilgan. Bu asar arab tiliga ilk bor abbosiy xalifa Xorun ar-Rashid (763–809) davrida vazir Yahyo ibn Barmak boshchiligida tarjima qilingan.

Navbatdagi tarjima va sharh Buvayhiylar sulolasi vakili Adud ud-davla (936–983) davrida faoliyat ko‘rsatgan astronom Abdurahmon ibn Umar as-Sufiyga tegishlidir. As-Sufiy 903-yilda hozirgi Tehron yaqinidagi Ray shahrida tug‘ilgan. U o‘z asarlarini arab tilida yozgan. Keyinchalik Dinovar, Isfahon, Bag‘dod shaharlariga borib ilm o‘rgangan, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullangan. Abdurahmon ibn Umar podshoh Adud ad-Davla ko‘rsatmasi bilan Sheroz shahrida rasadxona qurilishiga ham bosh-qosh bo‘lgan. As-Sufiy taxminan 986-yilda Sherozda vafot etgan.

Uning eng yirik asari bo‘lgan “Kitab as-sivaril-kavokib as-sabita” (“Qo‘zg‘almas yulduzlar tasviri”) asari milodiy 964-yilda yaratilgan. Mazkur asar bevosita Ptolemeyning “al-Majistiy” asari asosida yaratilgan bo‘lsa-da, muallif keyingi davrlarda astronomiya sohasidagi yangiliklar va o‘z ilmiy izlanishlarini bu asarda joylagan. Ptolemey jadvali va uning tarjimalaridagi xatoliklarni aniqlab, ularga tuzatishlar kiritgan. U Ptolemey asaridagi yulduzlarning yunoncha nomlarining arabcha muqobilini topib ishlatgan.<sup>1</sup>

Keyinchalik asrlar davomida bu kitobga Sharq hukmdorlari tez-tez murojaat qilganlar. Misrda Fotimiylar hukmronligi davrida milodiy 1000-yilda munajjim ibn Yunus tomonidan shu asar asosida “Zij al-kabir al hakim” asari yoziladi. 1132-yilda Marvda Bahouddin al-Karakiy tomonidan “Kitob al-muntah al-idrok fi taqosim ul-aflok” deb nomlangan yangi jadval tuziladi. Eronda xulogular hukmronligi davrida mashhur alloma Nasiriddin Tusiy Marog‘a shahrida qurilgan rasadxonada faoliyat yuritib, shu asar asosida “Ziji Elxoniy” jadvalini yaratadi.

Mirzo Ulug‘bek ham astronomiya tarixidagi bu asarlar va inshootlardan yaxshigina xabardor edi. U Samarqandni yirik ilmiy markazlardan biriga

---

<sup>1</sup> Матвиевская Г. П. Абд ар-Рахман ас-Суфи и его роль в истории астрономии. Историко-астрономические исследования, 16, 1983, стр. 93-136.

aylantirish barobarida bu yerda Qozizoda Rumi, Mirim Chalabiy, Jamshid Koshiy, G'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi singari olimlarni jamlay oldi.<sup>1</sup>



Ma'lumotlarga ko'ra, Mirzo Ulug'bek ilmiy faoliyati davomida as-Sufiyning "Kitabi sivaril-kavakib as-sabita" asariga ko'p bor murojaat qilgan. Asar "Ziji jadidi Ko'ragoniy" jadvali uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Uning hukmdorlik paytida Samarqandda ikki marta ko'chirtirilgan.

Ayni paytda ushbu qo'lyozma Fransiyadagi Parij kutubxonasida "Arabe 5036" raqami ostida saqlanmoqda. Garchi qo'lyozmada aniq sana ko'rsatilmagan bo'lsa-da, uni 1429-1437-yillar oralig'ida yozilgan, deb taxmin qilish mumkin.

Kitob 247 sahifadan iborat. Asarning ilk sahifasida shunday ma'noni uqish mumkin: "Bu kitob buyuk sulton, oliy hukmdor, turk, arab va forslar podshohi, Allohning yerdagi soyasi Mirzo Ulug'bek kutubxonasiga tegishlidir. Janubdan shimolgacha bo'lgan yerlar Uning adolatidan bahramand bo'ldi. U o'z idrokining mevalarini jahon ahliga tortiq etdi. Sulton Ulug'bek Ko'ragoniy hazratlarining saltanatini Alloh abadiy qilsin!"

Kitob muqovasi Usmoniylar kutubxonasida o'rnatilgan. Chamasi, Ali Qushchi Istanbulga olib kelgan kitoblar orasida ushbu kitob ham bo'lgan.

Mazkur qo'lyozmada yulduz turkumlari insonlar va jonzotlarning tasvirlari yordamida aks ettirilgan. Qo'lyozmada hammasi bo'lib 78 ta miniatyura o'rin olgan. Asarning 38-sahifasida sefey (Qayqovus) yulduz turkumi uchun chizilgan

---

<sup>1</sup> Бартольд В. В. Улугбек и его время. Петроград, 1918, с. 38.

suvrat aynan Mirzo Ulug‘bekning yuz tuzilishiga o‘xshab ketadi. Ma’lumki, saroy qo‘lyozmalaridagi miniatyuralarda shohlik rutbasi sohibi yuz chizgilaridan qudratli qahramonni aks ettirishda foydalanish oddiy usullardan hisoblangan. Bu o‘rinda ham musavvir asarning ushbu nusxasi ustida ishlarkan, Mirzo Ulug‘bek tasvirini joylagan. Sahifada hukmdor boshida soyabonlik oq kuloh kiygan, oyoqyalang holatda tasvirlangan.<sup>1</sup>



Mirzo Ulug‘bekni hayotligi davrida tasvirlagan yana bir suvrat ayni paytda Vashington (AQSh)dagi Frir galereyasida saqlanmoqda. Mazkur suratning muallifi noma’lum. Surat tepasida arab tilida “as-sulton al-‘azam Ulug‘bek Kurakon, xalldallahu mulkahu” ya’ni “eng buyuk sulton Ulug‘bek Ko‘ragon, Alloh uning saltanatini abadiy qilsin” degan bitik bitilgan. Suratda sulton tabiat qo‘ynida, oq rangli qayqisimon bosh kiyimida, moviy chakmon va yashil yaktakda, oq rangli naqshinkor soyabon ostida, ko‘rpacha ustida o‘tirgan holatda tasvirlangan<sup>2</sup>.

Har ikki suratga xos bo‘lgan bir xil xususiyatlar asosan bosh kiyimda ko‘zga tashlanadi. Hukmdor boshidagi oq rangli ushbu bosh kiyim soyabonli kulohni esga soladi. Kulohlarning uch qismida shohlarga xos to‘g‘a (yoki ukpar) o‘rnatilgan. Har ikki holatda ham hukmdorning yengsiz ustki chakmoni moviy

<sup>1</sup> As-Sufi. Kitabi sivar il- kawakib as-sabita. Wien, Mueller & Schindler. 2022 (faximil). – P 38.

<sup>2</sup> Абдухолиқов Ф. Мирзо Улуғбекнинг нодир сурати // “Тафаккур” журналі, 2022 йил 3-сон. – Б 120.

tusda. Tasvirlardagi yuz chizgilari ham bir-biriga juda o'xshash. Unga qiyosan, as-Sufiy jadvalidagi ushbu suvrat aynan Mirzo Ulug'bekka tegishli deb taxmin qilish mumkin.

O'tgan yili Samarqandda o'tkazilgan O'zbekiston madaniy merosini saqlash, o'rganish va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyatining VI Kongressi doirasida ushbu qo'lyozmaning faksimil nusxasi ham taqdim etildi. Joriy yilda chop etilgan "Sharq qo'lyozmalarida tarixiy shaxslar" kitobida ham Ulug'bekning mazkur asardagi miniatyurasi joy olgan<sup>1</sup>.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдухолиқов Ф. Мирзо Улуғбекнинг нодир сурати // “Тафаккур” журналі, 2022 йил, 3-сон. – Б 120.
2. Абдухолиқов Ф. Шарқ миниатюраларида тарихий шахслар. – Тошкент, “Замон-Пресс инфо” нашриёт уйи. 2023. – Б. 231.
3. Алишер Навоий. Мажолисун-нафоис. МАТ 20 жилдлик, Ж15. – Тошкент, Фан, 1994. – Б. 78.
4. Бартольд В. В. Улугбек и его время. Петроград, 1918, с. 38.
5. Лутфий. Сенсан севарим. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи С.Эркинов. – Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1987. – Б. 189.
6. Матвиевская Г. П. Абд ар-Рахман ас-Суфи и его роль в истории астрономии. Историко-астрономические исследования, 16, 1983, стр. 93-136.
7. Мирзо Улуғбек, Тўрт улус тарихи. – Тошкент, Чўлпон. 1994. – Б. 224.
8. Якубовский А. Ю. Самарканд при Тимуре и Тимуридах. — Л., 1933. — С. 56.
9. As-Sufi. Kitabi sivar il- kawakib as-sabita. Wien, Mueller & Schindler. 2022 (faximil). – P 38.
10. “Тафаккур” ижтимоий-фалсафий, маънавий-маърифий журнал. – Тошкент, 2022. - № 3 (112). – Б. 120-121.

---

<sup>1</sup> Абдухолиқов Ф. Шарқ миниатюраларида тарихий шахслар. – Тошкент, Замон-Пресс инфо нашриёт уйи. 2023. – Б. 231.

**TARIX****QO'NG'IROT SO'FIYLARI DAVRIDA XORAZM VOHASI  
SHAHARLARI****UO'K 94(575.171)"12/15"**

**Gulzoda  
IBRAXIMOVA,**  
Urganch innovatsion  
universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Xorazm vohasi janubiy qismining XIII – XV asrlar davri shaharsozlik an'analari tarixi va umuman iqtisodiy hayot va savdo aloqalari masalasi kam o'rganilgan mavzulardan biri bo'lib, bu yozma manbalar hamda arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlarining kamligidan kelib chiqadi. Xususan, bu asrlarda Xorazmda kechgan siyosiy jarayonlar masalasi yozma manbalarda ancha sust aks etgan bo'lib, shu jihatdan tarixshunoslik nuqtai – nazaridan ham alohida mavzu sifatida o'rganilmagan. Shu jihatdan olganda, Janubiy Xorazm vohasining XIII – XV asrlar davri shaharsozligi hamda tashqi savdo aloqalari masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanib, mazkur maqola shu mavzuga bag'ishlangan.

**Аннотация:** История градостроительных традиций южной части Хорезмского оазиса в период XIII-XV веков и вопрос экономической жизни и торговых связей в целом является одной из малоизученных тем, что связано с отсутствием письменных источников. и данные археологических исследований. В частности, вопрос о политических процессах, происходивших в Хорезме в эти столетия, был отражен в письменных источниках достаточно слабо и в этом отношении не изучался как отдельная тема даже с точки зрения историографии. С этой точки зрения вопрос градостроительства и внешнеторговых связей Южно-Хорезмского оазиса в XIII-XV веках считается одной из актуальных проблем, и данной теме посвящена данная статья.

**Annotation:** The history of the town-planning traditions of the southern part of the Khorezm oasis during the period of the 13th-15th centuries and the issue of economic life and trade relations in general is one of the little-studied topics due to the lack of written sources. and archaeological research data. In particular, the question of the political processes that took place in Khorezm in these centuries was reflected in written sources rather poorly and in this regard was not studied as a separate topic even from the point of view of historiography. From this point of view, the issue of urban planning and foreign trade relations of the South Khorezm oasis in the 13th-15th centuries is considered one of the pressing problems, and this article is devoted to this topic.

**Kalit so'zlar:** Chig'atoy ulusi, Oltin O'rda, Qo'ng'iro't so'fiylari, Amir Temur, temuriylar, Xiva, Vazir, Tirsak,

*Yangishahar (Shemaxa-qal'a), Adoq (Oqqal'a), Qumkend, Bag'dodik.*

**Ключевые слова:** *Улус Чигатай, Золотая Орда, Кунгратские Суфи, Амир Тимур, Тимуриды, Хива, Вазир, Тирсак, Янгишехр (Шемаха-кала), Адак (Ак-кала), Кумкенд, Багдадик.*

**Key words:** *Ulus of Chigatai, Golden Horde, Kungrat Sufis, Amir Timur, Timurids, Khiva, Wazir, Tirsak, Yangishehr (Shemakha-kala), Adak (Ak-kala), Kumkend, Bagdadik.*

Mo'g'ullar bosqini eng avvalo shaharlar taraqqiyotiga juda katta ta'sir qilgan. Shaharlar va qal'alarning biron-tasi ham vayronagarchilikdan chetda qolmadi. Ayniqsa, Gurganj va Chap qirg'oq Xorazmning ba'zi shaharlari qattiq talandi. Rustoqlar, sug'orish inshootlari yo'q qilindi, dehqonlar va shahar hunarmandlari qisman qirib yuborildi, ko'pgina qismi Mo'g'ulistonga haydab ketildi. Ko'plab savdogarlar, din vakillari va boshqa aholi G'arbdagi mamlakatlarga qochib ketishga majbur bo'ldilar. Ammo, mo'g'ul bosqinidan so'ng Xorazm vohasi butunlay vayron qilinib, shaharlar taraqqiyoti yuzlab yillar davomida izdan chiqqanligi borasidagi ilgarigi qarashlar so'nggi arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida xato qarash ekanligi isbotlangan.

Mo'g'ul bosqinidan keyingi Xorazm to'g'risida Yevropa manbalarida ham ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Plano Karpini (1246-yilda kelgan), aka-uka Pololar (1260-yilda kelgan), italyan savdogari Franchesko Balduchchi Pegoletti (1340-yilda kelgan) asarlarida Xorazm shaharlari, ayniqsa, Urganch to'g'risida qimmatli ma'lumotlar mavjud [16, 20; 21,46,209;22,22;23,211].

133-yilda Xorazmga markazlashgan arab sayyohi Ibn Battuta kelgan. Uning "Tuhfat an-nuzzar fi g'aroyib al-amsar va ajoyib al-afsar" ("G'aroyib shaharlar va ajoyib safarlar tomoshasi haqida tuhfa") asarida Xorazm savdo shaharlari to'g'risida ba'zi ma'lumotlar uchraydi [11,8,21,58-63].

XIV asr oxiri – XV asr tarixchisi Ibn Arabshohning asari iqtisod, savdo-sotiq va shaharning boshqa ko'pgina jihatlarini yorituvchi ma'lumotlarga egaligi bilan ajralib turadi. Muallif Xorazmning XIV asrning ikkinchi yarmida iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlardan biri bo'lganligini ko'rsatib o'tgan [10].

Ikkinchi turdagi manbalar ichida alohida qimmatga ega bo'lganlaridan mashhur fors geografi Hamdulloh Mustavfiy Qazvinining "Nuzhat-ul-qulub" ("Qalblar oromi") asari [3,260-263; 4,46,51-54; 14,506-511], Shahobiddin al-Umariyning "Kitob masalik al-absar va mamolik al-amsar" ("Turli mamlakatlar

davlatlari bo'ylab o'tgan yo'llar") asari [24,207-208], al-Bakuviyning (XIV-XV asrlar) "Kitob talxis al-asar va ajoyib al-malik al-qahhor" ("Buyuk podshoning mo'jizalari va yodgorliklari haqidagi kitobning qisqartmasi") nomli asarlaridir [2]. Shuningdek, Shayx al-Birzaliy [24,172-175], an-Nuviyriy [24,152], Ibn Xaldun [24,385-391] kabi arab-fors va temuriylar davrining Nizomiddin Shomiy [12,514-523;19], Sharofiddin Ali Yazdiy [26], Abdurazzoq Samarqandiy [1; 13,531-535], Hofizi Abro'[5], Xondamir [25] kabi mualliflar asarlarida ham XIV-XV asrlar Xorazm savdo shaharlari va ularning xo'jalik hayoti haqida ma'lumotlar uchraydi.

Xorazm savdo shaharlarining geografik holati to'g'risida XIV-XV asrlarda tuzilgan Yevropa xaritalari ham ma'lumot beradi. 1367-yilda aka-ukalar Fransisko va Domeniko Pitsiganilar xaritasida Urganch, 1375-yilgi Katalon atlasida Urganch, Mizdahqon, Xiva, XV asr Venetsiya kosmografi Fra-Mauroning 1459-yilgi xaritasida esa Urganch shaharlari ko'rsatib o'tilgan [6,23-25; 8,114-126; 27].

Barcha bosib olingan yerlar 1224-yilda Chingizxon o'g'illari o'rtasida katta ulus sifatida taqsimlangan. Xorazmning shimoliy qismi Oltin O'rda tarkibiga janubiy qismi esa Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan. Mo'g'ul hukmdorlari urushlar tugashi bilanoq o'z davlatlari rivojini ko'zlab ilgari shahar madaniyatini tiklashga harakat qilganlar. XIII asrning ikkinchi yarmidanoq ilgari vayron qilingan shaharlarning ko'pchiligi tiklandi, yangilari barpo qilindi, sug'orish inshootlari ham ta'mirlandi.

Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan Xiva ham XIII asr oxirlariga kelib, to'laligicha qayta tiklandi. Shahar iqtisodiy hayotida katta rol o'ynagan hunarmandchilik o'zining barcha turlari bo'yicha bosqichma-bosqich rivojlana borib, ba'zi sohalarda yuksak yutuqlarga erishildi. XIII-XIV asrlar shahar hunarmandchiligi hayotida boshlangan bu taraqqiyot, keyingi asrlarda o'zining eng yuqori nuqtasiga ko'tarildi. 1400-1401-yillarda zarb qilingan Amir Temur kumush tangalarining Xivadan topilishi uning shu davrda yirik shaharlardan biri bo'lganligining yana bir dalilidir [17,3-9].

O'ng qirg'oq Xorazm savdo shaharlari to'g'risida so'z yuritadigan bo'lsak, bu davrda uning ilgari mavqeini tiklay olmaganlar.

Ibn Battuta o'z sayohatnomasida Urganchdan Katgacha aholi yashaydigan qishloqlarni uchratmaganligi haqida so'z yuritgan edi. Ammo bu bilan ilgaridan mashhur bo'lgan va Buxoroga olib boruvchi mazkur yo'lda birorta qishloq yoki shahar bo'lmagan, u faqat sahrodan iborat, degan fikr ham noto'g'ri bo'lur edi.

Aftidan, Ibn Battuta katta obod qishloqlar bo'lmaganligi haqida fikr yuritgan bo'lsa kerak.

Kat ilgari mavqeini tiklay olmagan bo'lsa-da, Movarounnahr bilan bo'ladigan savdo yo'lida joylashganligining o'ziyoq, bu shahar keyinchalik ham kichik bo'lsa ham savdo markazi sifatida rol o'ynagan.

Arxeologik tadqiqotlar o'ng qirg'oq Xorazm shaharlaridan yana biri, Katdan yuqorida joylashgan Sho'roxonning mo'g'ullar hukmronligi davrida ham yirik savdo va hunarmandchilik markazi bo'lib qolganligini ko'rsatadiki, bu bizning yuqoridagi fikrimizni to'la tasdiqlaydi.



Xorazmning Oltin O'rda davridagi xo'jalik yuksalishi, unga yana mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatini berdi. Ammo bu mustaqillik uzoq davom etmadi. Taxminan XIV asrning 60-yillarida Oltin O'rdaning so'nggi kuchli xoni O'zbekning o'limi natijasida bu davlatda boshlangan parokandalikdan foydalanib, O'zbekning Xorazmdagi noibi Qutlug' Temur mustaqil siyosat yurgiza boshlagan edi. Shu davrdan boshlab Xorazmda hokimiyat tepasiga Qo'ng'iro't urug'idan bo'lgan So'filar sulolasi kelib, tez orada Shimoliy va Janubiy Xorazmni birlashtirdilar. Qo'ng'iro't so'filari oltin dinor va "ismi yo'q" tangalar zarb qildirib, muomalaga kiritdilar. Buning ustiga 1379–1380–1391-

yillarda Oltin O‘rda xoni To‘xtamish nomidan kumush tangalar ham zarb qilingan [18,44-47].

Ammo bu davrda Movarounnahrni birlashtirib, uning yagona hukmdori bo‘lgan Temur, mo‘g‘ullar istilosidan keyin ancha holdan toygan Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlat tuzishga va tartib-qonun ishlarini joriy etishga kirishgan edi. Xorazmda mustaqil davlatning vujudga kelishi esa Temurning feodal tarqoqlik, o‘zaro nizolarga chek qo‘yish siyosatiga zid edi. Xorazmni Chig‘atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblagan Temur Xorazmni qo‘lga kiritish siyosatini tutdi. Buning ustiga Temur Oltin O‘rda orqali o‘tuvchi Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘ini ham Movarounnahr orqali o‘tishi uchun kurashdi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun Temur Xorazmga 1372-1388-yillar davomida 5 marta yurish qildi va 1388-yildagi beshinchi yurish davridagina, uni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldi. Temurning oxirgi yurishida Urganch shahri vayron etilgan bo‘lsa-da, ammo u tezda, ya‘ni 1391-yildayoq bu shaharni qaytadan tiklashga ruxsat berdi. Temur o‘zining asosiy raqibi, Oltin O‘rda xoni To‘xtamish bilan bo‘lgan kurashda uni yengib, to Moskva ostonasigacha quvib bordi. Qaytishda Oltin O‘rdaning yirik siyosiy-iqtisodiy va savdo markazlari – Saroy Botu, Saroy Berka va Hojitarxon (Astraxan) shaharlarini vayron qildi. Natijada Xitoyni Yaqin Sharq mamlakatlari bilan bog‘lagan savdo yo‘lining Oltin O‘rda orqali o‘tgan shimoliy tarmog‘i barham topib, butun savdo qatnovi yana Movarounnahr shaharlari orqali amalga oshirila boshlandi. Umuman, Temurning ulkan, bir butun, yaxlit va markazlashgan davlat tuzishi, shu hududda siyosiy barqarorlikning mavjud bo‘lishi iqtisodiyotda, ayniqsa, savdo-sotiqda ijobiy o‘zgarishlarning yuz berishiga olib kelgan. Chunki bu davrda, shubhasiz, Temur va uning mahalliy noiblari Xitoy va Hindistondan Markaziy Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga yo‘nalgan asosiy xalqaro savdo yo‘li – Buyuk Ipak yo‘lini egallab, savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta‘minlashda muhim chora-tadbirlar ko‘radilar va Sharq bilan G‘arb o‘rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g‘oyat katta e‘tibor beradilar. Xorazmdagi Temur davri savdo markazlari to‘g‘risida tarixchilar Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy asarlari va boshqa bir qancha manbalarda ma‘lumotlar mavjud. Bu manbalarda Vazir, Tirsak, Yangishahar (Shemaxa-qal’a), Adoq (Oqqal’a), Qumkend, Bag‘dodik, Xiva va qayta tiklangan Urganch kabi shaharlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi va ularning bu davrda ham boy savdo shaharlari bo‘lganligi eslatib o‘tilgan. Garchi Xorazmshohlar va Oltin O‘rda davri savdo shaharlari bilan tenglasha olmasa-da, bu davrda Yangishahar (Shemaxaqal’a), Qumkend va Tirsak shaharlari yirik savdo-hunarmandchilik markazlari bo‘lganligi manbalarda ko‘p bora eslatiladi. Buni arxeologik tadqiqotlar ham to‘la-to‘kis tasdiqlaydi.

1963,1968-1971-yillar davomida Qoraqalpog‘iston arxeologlari Yu.P.Manilov rahbarligida tadqiqotlarni davom ettirib, o‘ng qirg‘oq Amudaryo



bo‘ylab arxeologik ishlar olib borib, Kat, Abu Muslimqal’a, Janpikqal’a yodgorliklarini o‘rganib chiqdilar [15]. Bu arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan eng muhim narsa shu bo‘ldiki, Ibn Battuta ta’kidlagan, o‘ng qirg‘oq Xorazmda Buxoroga qadar Qiyot (Kat)dan boshqa shahar yo‘q degan ma’lumoti unchalik haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Arxeologik tadqiqotlar samarasi o‘laroq o‘ng qirg‘oq Xorazm savdo shaharlaridan topilgan juda boy materiallar ayniqsa, ko‘plagan Oltin O‘rda tangalari shuni ko‘rsatadiki, mo‘g‘ul bosqinidan keyin ham o‘ng qirg‘oq Xorazm savdo shaharlari asta-sekin bo‘lsa-da, o‘z qaddini tiklab olganlar. Ammo, ulardan hech qaysisi X-XIII asrlardagi darajasiga yeta olmagan. 1973, 1978-1981, 1981-1983, 1985-1987-yillarda Janpikqal’ada, 1980, 1985, 1986-1987-yillarda Mizdahqonda, 1963-1965-yillarda SHahrlikda, 1973-1974 yillarda Vayangan (Ardaxushmisan)da olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Xorazm savdo shaharlarining topografiyasi, xo‘jalik hayotini aniqlash bilan birga, ularning olib borgan savdo aloqalarining yo‘nalishlarini hamda muayyan bir o‘lkadan (masalan, Erondan, Volgabo‘yidan va hokazo) qanday mahsulotlar keltirilganligini yoki Xorazmdan shu o‘lkalarga qanday mollar chiqarilganligini to‘liq bo‘lmasa-da, aniqlash imkonini berdi [15].

Yuqoridagilardan umumiy xulosa chiqaradigan bo‘lsak, xullas, XIV-XVII asrlar Xorazm savdo shaharlari to‘g‘risida ko‘pgina arab-fors, yevropa va eski o‘zbek tilidagi manbalarda ma’lumotlar mavjud bo‘lsa-da, ammo umumiy

holatda ular savdo shaharlarining xo‘jalik hayoti, mavqei to‘g‘risida atroflicha ma’lumotlar bera olmaydi. Mavzuning chin ma’noda o‘rganilishi esa XIX asrdan boshlangan. Ammo XIX asr rus va yevropalik tadqiqotchilar bu mavzuni o‘rganishda ko‘proq aynan yuqoridagi manbalar ma’lumotlariga tayanganlar. XIII-XV asrlar Janubiy Xorazm shaharlari va ularning xalqaro savdo munosabatlaridagi o‘rni masalasi kam o‘rganilgan hamda kelgusida chuqur tahlil asosida o‘rganilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матла’ус-садаи ва мажма’ул-баҳрайи. / Мас’ул муҳаррирлар: А. Қаюмов, Муҳаммад Али. – Т.: “O‘zbekiston”, 2008. Ж. II, Қ.1: 1405 – 1429 йил воқеалари. – 632 б.
2. Ал-Бакувӣ, 'Абд ар-Рашӣд. Китаб Талхис ал-ссәр ва 'аджа'иб ал-малик ал-каххәр: ("сокращение [книги о] "Памятниках" и чудеса царя могучего") / издание текста, перевод, предисловие, примечания и приложение З. М. Бунятова. – Москва: Наука, 1971. – 192 с.
3. Бартольд В.В. Дорожник от Бистами до Куня Ургенча. – Соч. Т.3. – М.: Наука, 1963. – С.260-268.
4. Бартольд В.В. Сведения об аральском море низовях Амударьи с древнейших времён до XVIII в. – Сочинения. Т.3. – М.: Наука, 1963. – 712 с.
5. Бартольд В.В. Хафиз-и Абру и его сочинения // Сочинения, Том VIII. Работы по источниковедению. М.: Наука. 1973. – С. 74-98.
6. Брун Ф. Перипл Каспийского моря по картам XIV столетия. // ЗНУ., Т.9. 1879, с.23-25 и. карти.
7. Вактурская Н.Н. Раскопки на городище Ургенч в 1952 г. //ТХЭ, т.2. – М.: Наука, 1958. – С. 476-494.
8. Егоров В.Л. География городов Золотой Орды. // Советская археология (СА), 1974, №1. – С.114-126.
9. Заходер Б.Н. Каспийский свод сведений о Восточной Европе. – Т. 2. – М., 1967. – 213 с.
10. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-макдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). –Т., «Меҳнат», 1992. – 326 б.
11. Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга сайёҳати. -Т., «Шарк баёзи», 1993. – 104 б.
12. Извлечения из “Зафар-намэ” Низам-ад-дина Шами // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.I. VII-XV вв. Арабские и персидские источники (далее МИТТ) // Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича и А.Ю. Якубовского. – С.514-523.
13. Извлечения из “Матла ас-са’дейн” Абд-ар-раззака Самарканди / МИТТ, т.I. – С.531-535.

14. Извлечения из “Нузхат ул-кулуб” Хамдаллаха Казвини // МИТТ, т.І. – С.506-511.
15. Кдырнийзов М.-Ш. Материальная культура городов Хорезма в XIII- XIV веках. – Нукус: “Каракалпакстан”, 1989. – 176 с.
16. Книга Марко Поло / Пер.И.И.Минаева. – М.: Географгиз, 1955 – 376 с.
17. Мамбетуллаев М., Абдримов Р. Основные этапы развития города Хивы // Общественные науки в Узбекистане. 1997. № 7-8. – С.3-9.
18. Мамбетуллаев М.М. О торговых связях Хорезма в древности и средневековье.//Города и каравансарай на трассах Великого Шелкового пути. Тезисы докладов Международного семинара ЮНЕСКО. – Ургенч, 1991. - с.44-47.
19. Низомиддин Шомий. Зафарнома.Форс тилидан ўгирувчи Ю.Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир А.Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 544 б.
20. Пачкалов А.В. Города Нижнего Поволжья в XV веке// Золотоордынская цивилизация. Вып.1. – Казань, 2008. – С. 58-70.
21. Пеголотти Ф.Б. Практический указатель торговцам. Под ред. А.Эванса. -Кембридж-Массачусетс. 1936, с.22 (на англ. языке). – 443 pp.
22. Путешествия в восточные страны Плано Карпини и Рубрука / Ред., вступ. ст. и прим. Н.П. Шастиной. М.: Государственное издательство географической литературы, 1957. - 287 с.
23. Рихард Хенниг. Неведомые земли. – М.: Изд-иностр.лит., 1962. – 516 с.
24. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Том 2. Москва; Ленинград: Академия наук СССР, 1941.– С.90-99, 152, 172-175, 385-391.
25. Хондемир. История монголов. От древнейших времен до Тамерлана / Пер. с перс. и авт. предисл., примеч. В. В. Григорьев. – СПб.: Типография Карла Крайя, 1834. – XII, 159 с.
26. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад, Ҳ. Бобобеков. – Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.
27. Чекалин Ф.Ф. Нижнее Поволжье на карте космографа XV в. Фра-Маура. //ТСУАК. т.ІІ., вып.2. – Саратов, 1890, карта.
28. Шильтбергер Иоганн. Путешествие по Европе, Азии и Африки с 1394 по 1427 г. (перевод Ф.К.Бруна). – Баку: Елм, 1984.- С. 44.
29. Юсупов Ш. Амир Темур ва темурийлар даври Хоразм тарихи хориж ва совет тарихшунослигида // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент – Урганч: Navro‘z, 2019. – Б. 318-321.

**TARIX****“TARJIMON” GAZETASINING XORAZM TARIXINI  
O‘RGANISHDAGI ILMIY AHAMIYATI****UO‘K 94(575.171)”1900/1924”**

**Sayyora  
SAMANDAROVA,**  
Turon Fanlar  
akademiyasi akademigi,  
dotsent



**Umid  
BEKMUHAMMAD,**  
Turon Fanlar  
akademiyasi akademigi,  
dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadidchilik harakatining lideri Ismoil Gaspralining Qrimda nashr qilingan “Tarjimon” gazetasidagi Xorazmga oid maqolalar tahlil etilgan, ularning Xorazm tarixini tadqiq etishdagi ahamiyati yoritib berilgan.

**Аннотация:** В данной статье анализируются статьи о Хорезме, опубликованные лидером джадидистского движения Исмаилом Гаспринским в издаваемой в Крыму газете “Тарджиман”, и их значение в исследовании истории Хорезма.

**Annotation:** This article analyzes the articles of Ismail Gasparinsky, the leader of Jadidchilik movement, about Khorezm, published in "Tarjimon", a newspaper published in Crimea. The importance of the articles in the "Tarjimon" newspaper in the study of the history of Khorezm is highlighted in the article.

**Kalit so‘zlar:** Gasprali, Qrim, “Tarjimon”, Xorazm, Xiva xonligi, gazeta, pochta, islohotlar, yangi usul maktabi.

**Ключевые слова:** Гаспринский, Крым, “Тарджимон” (“Переводчик”), Хорезм, Хивинское ханство, газета, почта, реформы, новометодная школа.

**Key words:** Gasprinsky, Crimea translator, Khorezm, Khiva Khanate, newspaper, post office, reforms, school of the new method

Matbuotning tarixni o‘rganishdagi ahamiyati katta bo‘lib, undagi ma’lumotlarni boshqa manbalar - qo‘lyozma asarlar, arxiv hujjatlari, memuarlar bilan qiyosiy taqqoslash, tadqiq qilish orqali o‘tmish voqe’liklarini xolis, haqqoniy tasvirlashga imkon yaratadi. Aynan shu boisdan ham turkiy musulmon xalqlarda milliy uyg‘onishni yuzaga keltirgan jadidchilik harakatining “Tarjimon” gazetasi ham g‘oyat katta ahamiyatga ega. Dastlab maktab sohasini isloh qilish orqali boshlangan jadidchilik vaqt o‘tib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oldi va o‘sha davrdagi real vaziyatda o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilish, ommalashtirish va turkiy xalqlarni jipslashtirishda matbuot zarur edi. Aynan ana shunday mas’uliyatli vazifani “Tarjimon” gazetasi bajardi va bu boradagi dastlabki

nashr bo'ldi. Jadidlar lideri Ismoil Gaspralining taraqqiyparvarlik g'oyalari ruhiyatidagi "Tarjimon" gazetasi 1883-yil 10-apreldan Qrimning Bog'chasaroy shahrida chop etila boshlandi.

"Tarjimon" gazetasi 20 yil davomida Rossiya imperiyasidagi yagona musulmon matbuoti bo'lib qoldi. Bu davr mobaynida gazeta haftasiga 1-2 marta kichik hajmda nashr bo'ldi. Lekin uning turkiy millatlarga ko'rsatgan ta'siri katta edi. "Tarjimon"ning ta'siri ostida Rossiya imperiyasining turli burchaklarida musulmonlar tarafidan ko'p sonli yangi maktablar ochildi, ko'plab xayriya jamiyatlari tashkil etildi, yangi adabiyotlar shakllandi. Gasprali juda mohir so'z ustasi edi. U jummalarni sodda, qisqa va lo'nda ifodalovchi uslub qo'lladi - "Tarjimon"ning o'rta umumiy turk tilini yaratdi. Gasprali butun turkiy millatlarni "Tarjimon"ning yagona adabiy tili ostida birlashtirishni orzu qildi. Buning uchun umrining oxiriga qadar "Tilda, fikrda, ishda birlik" shiori ostida kurashdi. Gasprinskiy targ'ib qilgan til o'z vaqtida Qrimda, Istanbulda, Toshkent va Bakuda ham birdek tushunarli edi" (1).


"Tarjimon" gazetasi mahalliy va rus tilida chop etilib, biri ikkinchisining aynan tarjimasidan iborat bo'lgan. Vaqt o'tib, I.Gasprali maqolalarning mavzu doirasini kengaytirib, gazetani Rossiya imperiyasidagi turkiy musulmon xalqlarning milliy nashri darajasiga yetkazdi. "Tarjimon" 1914-yil 11-sentabrgacha, ya'ni Gaspralining vafotigacha uning noshirligi va bosh muharrirligida, vafotidan keyin esa o'g'li Rifat va safdoshi bo'lgan Hasan Sabriy tomonidan chop etilgan. Gazeta 1903-yildan haftada ikki, 1905-yildan uch marotaba va 1912-yildan esa kundalik gazetaga aylantirilgan va uning jami 2826 ta soni chiqqan. Rossiya imperiyasi va Usmoniylar imperiyasi bo'yicha "Tarjimon" obunachilari soni 5 ming nafargacha yetgan edi.

Obunchalar orasida Turkistonning turli hududlaridagi turli tabaqaga mansub insonlar ham bo'lgan.

Ma'lumki, Turkistonda birinchi matbaaxona 1868-yilda Turkiston general-gubernatorligining Toshkentdagi okrug shtabida tashkil qilingandi. Biroq matbaaxona kichik bo'lganidan unda bosma imkoniyatlari cheklangan edi. Shu bois matbaaxonada Turkiston general gubernatorligining turli buyruq, ish hujjatlarigina chop etilib borgan. 1870-yilga kelib bosmaxona uskunolari ko'paytiriladi va general gubernatorlikning rus tilidagi "Turkestanskiye vedomosti" gazetasi tashkil etilib, nashr ishlari yo'lga qo'yiladi. Shu bilan birga o'sha yili mahalliy aholi uchun "Turkiston viloyatining gazetasi" ham arab harfida chop etila boshlaydi. Tabiiyki har ikkala nashr general gubernatorlik mahkamasining gazetasi bo'lganidan mustamlakachilik mafkurasi va g'oyalari, targ'iboti asosidagi gazetalar edi.

Ana shunday vaziyatda “Tarjimon” faqat Qrim, Volgabo‘yi, Kavkazdagi musulmonlari uchungina emas, Turkiston ahli, shuningdek Buxoro amirligi va Xiva xonligi aholisi uchun ham milliy ruhdagi, ziyoli qatlam sevib mutolaa qiladigan, gazetxonlarni mushohadaga chorlaydigan gazetaga aylandi.


“Tarjimon”ning g‘oyalari sabab vaqt o‘tib Turkistonning turli hududlarida jadid taraqqiyparvarlari tomonidan “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Oyina”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Hurriyat”, “Najot”, “Turon”, “El bayrog‘i” singari gazetalar chop etilib, ularda ham millat dardi, jamiyatni isloh qilish istagi, muammolarga yechim sifatidagi takliflar yoritilgan mavzular nashr qilindi. Natijada professor Begali Qosimov tadqiq qilganidek, “jadidchilik oqim emas, harakat. Ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakat”darajasiga yetdi. U jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi. Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g‘ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko‘rgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi. Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi” (2).



Aynan ana shu maqsadlarga erishishda matbuot, xususan “Tarjimon” va boshqa jadid gazetolari katta rol o‘ynadi va vaqt o‘tib bugungi kunda tariximizni o‘rganishda eng ahamiyatli, taqqoslab o‘rganuvchi manbaga aylandi. Qrimda yashab faoliyat ko‘rsatgan va dunyoning ko‘plab davlatlariga safarlar qilgan jadidlar lideri va “Tarjimon” asoschisi Ismoil Gasprali tabiiyki Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi vaziyat bilan tanishib bordi. Negaki, “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiori ostida faoliyat ko‘rsatgan Gasprali turkiy dunyoning katta bir hududi va dunyo sivilizatsiyasiga katta hissa qo‘shgan o‘lkaga istiqbolli mintaq sifati qaran.

Filologiya fanlari doktori Zaynobiddin Abdurashidov o‘zining ilmiy faoliyatida jadidchilik harakati va “Tarjimon”ni tadqiq qilgan holda, gazetaning Turkiston bilan bog‘liq bibliografiyasini nashr ettirdi. Professor Z.Abdurashidovning ta’kidlashicha, “mazkur bibliografiyani tuzishda professor Yo. Oqpinar arxivida saqlanayotgan “Tarjimon” gazetasi kolleksiyasidan foydalanilgan. Ushbu kolleksiya 1883-yildan 1917-yilgacha oraliqni o‘z ichiga oladi. Afsuski, gazetaning 1917-yilgi sonlari to‘liq emas hamda 1918-yilgi sonlari

umuman mavjud emas. Professor Yo.Oqpinarning harakati bilan gazetaning turli yillardagi yo‘q sonlari dunyo kutubxonalari va arxivlaridan topilib, imkon qadar to‘liq holga keltirilgan. Mazkur kolleksiya hozirda “Tarjimon” gazetasining to‘liq arxivi hisoblanadi” (3).



Gazetada chop etilib borilgan Xiva xonligi bilan bog‘liq ko‘plab maqola, xabar va lavhalarda Xorazm va xorazmliklarga oid ko‘plab mavzular yoritilgan. Tabiiyki, Qrimda yashayotgan, ammo ikki bora Turkiston va Buxoroda bo‘lgan Gasprali vohadagi vaziyatni Rossiyaning turli hududlarida chop etilgan, shuningdek “Turkestanskiye vedomosti”, “Turkiston viloyatining gazetasi”dagi materiallar orqali kuzatib borgan. Vaqt o‘tib esa bevosita Xorazmdan ham maxsus “Tarjimon” gazetasiga maqola, xabar yozadigan muxbirlar yetishib chiqdi. Shulardan biri Xorazmdagi jadid maktabida o‘qituvchilik qilgan Ramazon Saydashev edi. Natijada “Tarjimon” gazetasida yuqoridagi nashrlar va Ramazon Saydashevning maqola, xabarlar orqali Xorazmga bog‘liq ko‘plab maqolalar yoritildi. Gasprali ba’zida Xorazmdagi jarayonlarga oid o‘zining tahliliy maqolalarini ham yoritib bordi. Bu borada Gasprali va Xiva xonligi bosh vaziri, taraqqiyparvar, islohotchi Islomxo‘ja o‘rtasidagi xat orqali fikrlashuvlar ham katta ahamiyat kasb etdi. Shulardan kelib chiqqan holda “Tarjimon” gazetasida Xorazm bilan bog‘liq holda yoritilgan mavzularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Xiva xoni va amaldorlari, valiahdining Rossiya imperiyasiga safari bilan bog'liq xabarlar;
- Xon va amaldorlarning Turkiston, xususan Toshkentga tashrifiga oid lavhalar;
- Xiva xonligidagi jadid maktablari holatiga oid xabarlar;
- Xorazmdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyat to'g'risidagi maqola, xabarlar;
- Jadidchilik harakati va vohada olib borilgan taraqqiyparvarlarning islohotlariga oid maqolalar tahlili.

Agar “Tarjimon” gazetasidagi yuqorida qayd etilgan turkumlarga oid maqolalar, xabarlar va lavhalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bugungi davrga kelib ularning tariximizni o'rganishda katta ahamiyatga ega ekanligini anglash mumkin. Ma'lumki, biz ta'kidlab o'tgan davr – 1883-yildan 1917-yilgacha bo'lgan oraliqda kechgan jarayonlar haqida Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”, Laffasiyning “Tazkirayi shuaro”, Bobojon Tarroxning “Xorazm navozandalari”, Polvonniyozhoji Yusupovning xotiralarida turli voqealar Feruzxon, Asfandiyorxon bilan bog'langan holda tasvirlab o'tiladi. Biroq, 1883-1917-yillarga oid “Tarjimon” gazetasidagi 150 dan ortiq maqolalar, xabarlar, lavhalarda shu davrda kechgan jarayonlar, voqeliklar yoritib o'tilganki, bu tariximizni o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Shu o'rinda gazetada yoritilgan ayrim maqolalarning izohlarini keltirib o'tsak: “Xiva 1873-yilgi urush natijasida tuzilgan shartnomaga ko'ra 1885-yil uchun Rossiya xazinasiga 150000 rubl pul to'lashi lozim” (21.10.1884), “Xiva xonining ukasi Ashxobod, Tiflis va Istanbul orqali Makkaga ketgani haqida”(9.06.1887), “Xivada xon tarafidan maktab ochilib, unda bolalar rus tili o'rganadilar; maktab xon sarmoyasi bilan ta'minlanadi; maktab uchun 34 xonali bino qurilgan; 2 yil oldin Xiva xoni dunyoviy ilmlar ham o'qitiladigan yangi madrasa ochmoqchi edi, bu ishning boshi bo'lsa kerak” (15.08.1887), “Temir yo'l orqali yuklar tez olib borilishiga qaramay Xivadan jo'natilayotgan yuklar eski usul, tuyalar bilan jo'natilmoqda; bu usul temir yo'ldan ancha arzonligi haqida”(6.09.1887), “Xiva xoni 3 yildan beri e'lon qiladigan Yevropa sayohati bu yil yoz boshlarida amalga oshishi haqida” (31.01.1888), “Kudrin va unung shirkati Qo'qon viloyatida paxta ekishni yakunlagan va birinchi nihollar chiqqan; Xiva xonligida ham paxta ekinzorlari 2 baravar kengaygani haqida” (8.05.1888), “Xivaning Rossiya bilan tijorati rivoji tufayli xon Xivaga telegraf olib kelishga qaror bergani haqida”(27.07.1888), “Hozirda mavjud Toshkent, Buxoro, Chorjo'y va Kerki telegraf yo'liga Xiva ham qo'shiladi; yog'och kamligidan ustunlar temirdan bo'lishi haqida” (24.03.1889), “Turkiston general-gubernatori baron Vrevskiy paroxod bilan Petro-Aleksandrovska shahriga borgan, Xiva xoni bilan ko'rishgan; muzokara mavzulari: Amudaryoni eski o'zani bo'yicha Kaspiyga burish; shahar yaqinidagi Amudaryo qirg'oqlarini mustahkamlamoq,

agar bu suv toshqiniga foyda bermasa shaharni Xiva tarafiga ko'chirish haqida"(23.11.1890), "Ruslar Xiva bilan tijoratlarini kengaytirish maqsadida Petro-Aleksandrovska shahrida katta karvonsaroy qurishlari haqida", (27.01.1891), "Xiva xoni bolalarga rus tili o'qitish uchun bir maktab ochgan; Toshkent o'qituvchilar seminariyasini tugatgan Husayn Ibrohimov maktabga muallim etib tayinlangani haqida" (30.08.1891), "Xiva valiahdi Toshkentga kelib gubernator bilan uchrashgani haqida" (19.09.1891), "Buxoro amiri va Xiva xonining Rossiyaga sayohatlari siyosiy yo'sinda emas; Buxoro amirining maqsadi o'g'lini harbiy maktabga joylash, Xiva xoni esa Yevropaga sayohat qilishi haqida" (25.10.1892), "Ryazan-Ural temir yo'li shirkati Uralsk shahridan Amudaryoga qadar temir yo'l qurishni o'ylab bu yili muhandislarni joy ko'rish uchun yuborishi haqida"(18.04.1893), "3-oktabrda Turkiston general-gubernatori baron Vrevskiy Petro-Aleksandrovska shahriga kelib Xiva xoni bilan uchrashgan; gubernator xon va valiahd sharafiga katta ziyofat bergani haqida" (29.10.1893), "Ryazan-Ural temir yo'li shirkati Uralsk shahridan Xivaning Qo'ng'irotda shahriga qadar temir yo'l qurish va Amudaryoda paroxod yurgizish uchun hukumatga murojaat qilgani haqida"(7.11.1893), Xiva xoni Muhammad Rahimxon Nijniy Novgorod ko'rgazmasidan bosma mashinasini barcha harflari bilan sotib olgan va Xiva madrasalaridan biriga vaqf qilish niyatida ekanligi haqida" (7.07.1896), "Xiva xoni Moskvada bo'lgan vaqtda Amudaryo eski o'zaniga qaytayotganinni bildirgan; komissiya yuborilgan; daryo Kaspiyga quyilsa arzon suv yo'li ochilishi haqida" va boshqalar.

Shu tarzda yuqoridagi singari maqolalar "Tarjimon"da yoritilib, muxlislar bevosita gazeta orqali Xorazmda kechgan jarayondan xabardor bo'lib borishgan. Vaqt o'tib esa ushbu maqolalar, xabar va lavhalar tarixni boshqa manbalarga qiyoslab o'rganuvchi noyob meros sifatida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.Abdurashidov. "Tarjimon" (1883-1917) gazetasidagi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi", T, 2020, 14-bet.
2. B.Qosimov "Milliy Uyg'onish", T, Ma'naviyat" nashriyoti, 2002, 6-bet.
3. Z.Abdurashidov. "Tarjimon" (1883-1917) gazetasidagi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi", T, 2020, 44-bet.

**TARIX****IKKINCHI JAHON URUSHI ARAFASIDA XORAZM  
AYOLLARINING IJTIMOIIY JARAYONLARDA TUTGAN O'RNI**

**Firuza  
JUMANIYAZOVA,**  
Xorazm Ma'mun  
akademiyasi ijtimoiy-  
gumanitar fanlar bo'limi  
kichik ilmiy xodimi, tarix  
fanlari bo'yicha falsafa  
doktori.

**UO'K 63(485.1)**

**Annotatsiya:** Maqolada ikkinchi jahon urushi arafasida xorazmlik ayollarning ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rni, xotin-qizlarning turli-tuman to'garaklarga jalb qilinishi va mexanizatorlik, traktorchilik kabi erkaklar bajaradigan kasblarga tortilishi haqidagi ma'lumotlar arxiv materiallari asosida yoritib berilgan.

**Аннотация:** В статье освещается история репрессивной политики советского правительства в системе высшего образования Узбекской ССР в 1920–1930-е годы и ее трагические последствия на основе первичных источников.

**Annotation:** In the article, on the eve of the Second World War, the role of Khorezm women in the social and cultural life, the involvement of women in various circles and the involvement of men in the professions such as mechanization and tractor-making are highlighted on the basis of archival materials.

**Kalit so'zlar:** : urush, maorif, pedagog, o'quvchi, targ'ibot ishlari, devoriy gazeta.

**Ключевые слова:** война, просвещение, педагог, студент, пропаганда, стенгазета.

**Key words:** war, education, pedagogue, student, propaganda, wall newspaper.

Xorazm okrugida jamiyat hayotiga xotin-qizlarni jalb etib, ularning siyosiy va ijtimoiy faolliklarini oshirish va erkaklar bilan teng huquqli qilish borasidagi ilk harakatlar aslida 1920-yilda, ya'ni Xorazm Xalq Sovet respublikasi davrida boshlangan edi. Jumladan, 1920-yilning may oyida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Turkiston ishchi-dehqon ayollar I – s'yezdi bo'lib o'tib, unda Xorazm xotin-qizlari ham qatnashgan edilar. Buning natijasi o'laroq, Xorazm xotin-qizlari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun 1920-yil 2-iyunda Xiva shahrida qabul qilinib, Xorazm Xalq respublikasi firqa qo'mitasi Markaziy qo'mitasi qoshida respublika xotin-qizlar uyushmasi tashkil etildi[1]. Uyushmaning hududlarda xotin-qizlar bilan ishlash bo'limlari mavjud edi. Uning asosiy maqsadi uyda o'tirgan xotin-qizlarni artellarda foydali ish bilan shug'ullanishga undab, xotin-qizlar klublariga jalb qilib, ularning ijtimoiy madaniyatini oshirish

va shu asosda ayollarni jamiyatning teng huquqli a'zosiga aylantirishdan iborat edi. Shuningdek, xotin-qizlar bilan ishlash uyushmasi eng avvalo ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi dolzarb muammolarga, jumladan, nikoh yoshi va qalin puli kabi masalalarga asosiy e'tibor qaratdilar. Aslida bu Turkiston (Qozog'iston, Xorazm va Buxoro respublikalarini ham o'z ichiga olgan tarixiy o'lka sifatida nazarda tutilmoqda) miqyosidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanib, aynan xotin-qizlar uyushmasining sa'y-harakatlari bilan 1921-yil 14-iyunda Turkiston Markaziy Ijroiya qo'mitasi tomonidan qizlar uchun to'lanadigan qalin pulini bekor qilish va nikoh yoshini oshirish to'g'risida Nizom ishlab chiqildi hamda uni amaliyotga joriy etishga kirishildi. Shu yili Xorazmda ham nikoh yoshi qizlar uchun 16 yosh, erkaklar uchun 17 yosh qilib belgilangan. Ko'pxotinlikka chek qo'yilgan[2].

Maryam Sultonmurodova, Xayrulbanot Saydasheva, Durxon Bekchurina, Saodat Qutlimurodova (Salimova), Hadicha Bekmuhammedova (Rizaeva), Bibijamol Idrisova, Onabibi Safoeva, Xadicha Sultonmurodova, Saodat Ollayorova, So'najon Sharipova, Norjon Abdusalomova, Fotima Bekmuhammedova, Oysha Abdullaeva va Sorajon Sharipova kabi Xorazm respublikasining faol xotin-qizlari uyushma faoliyatida jonbozlik ko'rsatib, mazkur tadbirlarni hayotga joriy qilish yo'lida qattiq kurash olib borishga majbur bo'ldilar. Chunki, bu ijtimoiy-ma'naviy tadbirlarning mazmun-mohiyatini tushunish uchun eng avvalo xotin-qizlar muayyan bilim va tushunchalarga ega bo'lishlari lozim edi. Shu jihatdan olganda, xotin-qizlar bilan ishlash uyushmasi vakillari xuddi jadidlar kabi eng avvalo xotin-qizlarning savodsizligini tugatishga asosiy e'tibor qaratdilar. Bu muammoni bartaraf etishning yagona yo'li esa xotin-qizlar uchun alohida maktablar tashkil qilib, ularning savodini oshirish lozim edi. Shuning uchun, Rossiyaning musulmon o'lkalari va Turkistonda bo'lgani kabi, 1921-yil 5-iyunda Xorazmda ham savodsizlikni tugatish maktabi ochilib, unga dastlab 65 xotin-qiz jalb qilindi[3].

Xotin-qizlar uchun alohida maktablar tashkil qilish masalasi bo'yicha yangi ishlar 1923-yil 28-yanvarda boshlandi[4]. 1923-yil aprelda yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish uchun o'z tarkibiga yanada ko'proq ayollarni birlashtirgan "Xonimlar uyushmasi" tuzildi. Uning birinchi rahbari Xayrulbanot Saydasheva bo'lib, bu oqila va o'qimishli ayol keyinchalik ham xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish va ularning savodini oshirish yo'lida faol xizmat qildi. Bu tashkilot

shu davrda Turkiston va Buxoro respublikalari xotin-qizlar uyushmalari bilan doimo aloqada bo'lganlar. Xorazm kompartiyasi Markaziy Komiteti huzuridagi partiya yacheykasi majlisida 1923-yil 11-noyabrda xotin-qizlar uyushmasi masalasi muhokama qilindi. Unda ko'proq mahalliy xotin-qizlarning jamiyatning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-ma'naviy sohalariga jalb etish masalasiga e'tibor qaratildi.

Xotin-qizlarning savodsizligini tugatish borasidagi sa'yi-harakatlar natijasi o'laroq 1924-yilda Xivada xotin-qizlarning birinchi kommuna maktabi tashkil qilindi. 1924-yilda esa "Xotin-qizlar bilan ishlash bo'limi" tuzildi[5].

Bu yillarda Xorazm respublikasida xotin-qizlar bilan ishlash bo'limi vakillaridan Onabibi Safoeva, Onabibi Murodova, Hojar Kamolova, Guljon Qilicheva, Xadicha Sultonmurodova, xadicha Bekchurina, Sojida Bakirova, Xayrulbanot va Hayot Saydashevalar har bir xonadonga kirib, ayollarning shaxsiy hayoti bilan tanishib, xotin-qizlarni savodli qilish maqsadida keng ko'lamli ishlar olib bordilar. Xotin-qizlarni ayollar klublariga jalb qilishda garmonchi xalfa Onajon Safar qizi ham faol qatnashgan. U xonadonlarga kirib qo'shiq aytib, ayollarni klublarga jalb qilgan[6].

1925-yil 15-iyulda Xiva shahrida birinchi xotin-qizlar bilim yurti ochildi. Bilim yurtining o'qituvchilari: Zaynab Kamolova, Xadicha Valishova, Zaynab Potieva, Hamida Azimovalar o'qituvchilik qilish bilan birga jamoat ishlarida ham faol ishtirok qilganlar. Jumladan, Zaynab Kamolova Xiva shahar sud komissiyasi a'zosi bo'lgan bo'lsa, Hamida Azimova klublar va qiroatxona komissiyasi a'zosi bo'lganlar[7].

Xullas, 1924-1926-yillar davomida Xorazmda endigina xotin-qizlar o'rtasida savodsizlikni tugatish, ayollar qiroatxonalarini va xotin-qizlar klublarini tashkil etish, xotin-qizlarni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy hamda madaniy-ma'naviy sohalariga jalb etish, ayollarni rahbarlik lavozimlarga ko'tarish, ulardan siyosiy rahbarlar tayyorlash kabi harakatlar boshlangan, ammo boshqa hududlarda bo'lgani kabi bu harakatlar Xorazmda ham qattiq qarshilikka uchragan. Shunday bo'lsa-da, xotin-qizlarni jamiyatning teng huquqli a'zosi qilish yo'lidagi harakatlar Xorazm okrugi tuzilgandan keyin ham davom qildi. Jumladan, "Xotin-qizlar bilan ishlash bo'limi" yanada kattalashib, u 1926-yilda Xorazm okrugi xotin-qizlar bo'limiga aylantirildi[8].

Umuman olganda, 1920-30-yillar davomida sovet davlatida amalga oshirilgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tadbirlar jarayonlaridan

Xorazm okrugi xotin-qizlari chetda qolmadi. 1925-1927-yillar yer-suv islohotlari, 1927-yil sanoatlashtirish va 1929-1932 yillar jamoalashtirish va nihoyat 1927 yildan boshlangan va Ikkinchi jahon urushi boshlanguncha davom qilgan “Hujum” harakati kampaniyalariga xotin-qizlar sovet hukumati tomonidan turli yo‘llar bilan jalb qilinib, umumiy holatda sovet hukumati bu jarayonlarda jamiyatda xotin-qizlarning o‘rni masalasiga alohida ahamiyat qaratdi.



Umuman olganda, bu harakat amalga oshirilib, sovet jamiyatida xotin-qizlar teng huquqliligi borasida katta ishlar qilingan bo‘lsa-da, amalda urush boshlanish arafasida O‘zbekiston SSR va shu jumladan, Xorazm viloyati ayollarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma’naviy hayotida o‘rni va mavqei ancha past bo‘lgan. Jumladan, “ayollarga erkaklar bilan teng huquq berilishi” munosabati bilan ayollarning jamoat ishlaridagi ishtiroki ortib borgan bo‘lsa-da, ular jamiyatda, jamoatchilik ishlarida erkaklar bilan teng ishtirok etishi bilan bir vaqtda ularning oiladagi an’anaviy, etnik holatlari: ayollik, onalik mavqei,

oilaviy rollar taqsimotida ular zimmasiga tushadigan ishlar miqdorining ko‘pligi saqlanib qolaverdi[9].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, sovet hukumati O‘zbekistonda dastlabki yillarda xotin-qizlar kuchidan keng foydalanish masalasiga ehtiyotkorona yondashdi. Masalan, dastlab ular fabrika va zavodlarning faqat yengil soha yo‘nalishlariga, tikuvchilik, to‘quvchilik yoki boshqa yengilroq sohalarga jalb qilindilar, ammo og‘ir yuk ko‘taradigan va sog‘ligiga zararli, murakkab sohalarga darhol tortilmadi. Ammo, buni sovet hukumatining bu masalaga gumanistik jihatdan yondashganligiga ishonmaslik lozim. Bu holatni shu davrlardagi jahon miqyosidagi ayollarga nisbatan kechayotgan siyosiy jarayonlarni tahlil qilish

bilan tushuntirish to'g'riroq bo'ladi. Ya'ni, bir tarafdin xorijiy davlatlarning Rossiyaga nisbatan uyushtirilgan intervensiyaning mag'lubiyatga uchrashi bilan ham hali dunyoda "bolshevizm balosi"ni yo'qotishga qaratilgan harakatlar to'xtamagani, ikkinchidan esa, sovet davlatining o'zlarining qurayotgan sotsialistik jamiyatini dunyoga eng gumanitar jamiyat qilib ko'rsatishga urinish ayni kuchaygan payti ekanligini ham hisobga olish lozim. Faqat 20-yillar oxiriga kelib bu yondashuv keskin o'zgardi va mazkur harakat endilikda dunyoqarashlar kurashidan sinfiy kurashga aylandi va shundan keyingina sovet hukumati va kommunistik partiya ushbu ijtimoiy-siyosiy masalani o'zining siyosiy va iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, keskin hal qilish yo'lidan bordi.

#### **Adabiyotlar ro'yhati:**

1. Sobirov O.S., Qozoqov E.Q. Xorazm tarixidan lavhalar. – Urganch, "Murabbiy", 1994. – 38-b.
2. O'sha joyda.
3. Savodxonlik uchun yurish // "Xorazm haqiqati", 1982, 19-noyabr.
4. Savodxonlik uchun yurish // "Xorazm haqiqati", 1982, 19-noyabr.
5. Xorazm xotin-qizlarining shonli yo'li // "Xorazm haqiqati", 1964, 8 mart.
6. O'sha joyda.
7. Sobirov O.S., Qozoqov E.Q. Xorazm tarixidan lavhalar.– Urganch, "Murabbiy", 38-b.
8. Sobirov O.S., Qozoqov E.Q. Xorazm tarixidan lavhalar.– Urganch, "Murabbiy", 43-b.
9. Любимова С. Работа партии среди тружениц Востока / Библиотечка работницы и крестьянки. Москва – Ленинград: Государственное издательство, 1928. стр. 6.

## TARIX

### O'ZBEKISTON SANOATINING 1985-1990-YILLARDAGI AHVOLI



**Izzatullo  
XAYDAROV,**

**Toshkent davlat  
sharqshunoslik  
universiteti "Markaziy  
Osiyo xalqlari tarixi"  
kafedrası professori  
v.b., tarix fanlari  
doktori (DSc).**

**UO'K 230.25**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 1985-1990 yillarda O'zbekiston SSR dagi sanoat sohasidagi jarayonlar yoritib beriladi. Sanoat korxonalariga oid statistik ma'lumotlar tahlil etiladi.

**Аннотация:** В статье рассматриваются процессы в промышленном секторе Узбекской ССР в 1985–1990 гг. Анализируются статистические данные по промышленным предприятиям.

**Annotation:** This article covers the processes in the industrial sector in the Uzbek SSR in 1985-1990. Statistical data on industrial enterprises are analyzed.

**Kalit so'zlar:** Sanoat, ishlab chiqarish, korxona, respublika, qayta qurish, markaz.

**Ключевые слова:** Промышленность, производство, предприятие, республика, реконструкция, центр.

**Key words:** Industry, production, enterprise, republic, reconstruction, center..

Sovet davlati rahbariyatining 1985-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish yuzasidan ilgari surgan rejalarini bajarish borasidagi dastlabki urinishlariyoq kutilgan natijani bermadi. Uzoq yillar davomida joriy etilgan yaroqsiz xo'jalik sistemasini qisman qayta qurish bilan muddaoga erishib bo'lmashligi ayon bo'lib qoldi. To'g'ri, iqtisodni boshqarish sohasida keng ko'lamda qayta qurish jarayonlari amalga oshirildi, xo'jalik hisobidagi munosabatlarni kuchaytirishga va xo'jalik mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan bir qancha tajribalar o'tkazildi. Biroq ma'muriy-buyruqbozlik tizimi mavjud bo'lgan bir sharoitda amalga oshirilgan bu tadbirlar natija bermadi.

Qayta qurish siyosati davomida yo'l qo'yilgan xatoliklar, mamlakat mintaqalari o'rtasidagi aloqalarning buzilishi, siyosiy vaziyatning keskinlashishi oqibatida belgilangan vazifalar uddalanmadi. Jumladan, 1986-yil davomida respublikadagi 321 ta korxona va tashkilot rejada belgilangan vazifalarni bajarishning uddasidan chiqqan olmadi, 347,7 mln rubl miqdoridagi mahsulot

yetkazib berilmadi. 225 ta eng muhim mahsulot turlaridan 86 tasi bo'yicha davlat rejasi bajarilmay qoldi<sup>1</sup>.

Fan-texnika taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlariga doir statistika byulletenlarining ma'lumotlari diqqat bilan tahlil qilinsa, ko'p narsa ravshan bo'ladi. Gap shundaki, hatto rejalashtirilgan topshiriqlar va tadbirlardan orqada qolganlikdan ko'ra ham rejalarining o'zi real va hayotiy emasligida, fan-texnika taraqqiyotining ustun yo'nalishlariga yetarlicha e'tibor berilmaganida edi. Eskirib qolgan texnologiyadan, ma'naviy va jismoniy ishdan chiqib qolgan asboblardan foydalanishning sababi ham shunda edi. Birgina "Hujum" pillakashlik fabrikasini texnik jihatdan qayta qurollantirish masalasi to'rtta besh yillik davomida hal qilinmadi, bu yerda 1927-yilgi nusxadagi 252 ta pillakashlik dastgohining hammasi to'xtab qolish arafasida edi. Mahalliy sanoat korxonalaridagi asbob-uskunalarining 60%dan ko'prog'i 20 yildan buyon ishlatilib kelinardi<sup>2</sup>.

Ko'rib chiqilayotgan davrda aslida iqtisodiy tizimni qayta qurish, uning moddiy bazasini mustahkamlash, yangi texnologiyalarni joriy etish, yuqori darajadagi boshqaruv tizimi asosida iqtisodiyotni va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish mo'ljallangan edi. Lekin keyinchalik ma'lum bo'ldiki, qilingan umidlar xom xayol bo'lib chiqdi. Chunki o'n ikkinchi besh yillikning ikki yili mobaynida iqtisodiy o'sish sur'tlarining pasayishi davom etdi. Natijada, 4,2 mlrd so'mlik ijtimoiy mahsulot, 3,4 mlrd so'mlik milliy daromad, qishloq xo'jaligining 2,2 mlrd so'mlik yalpi mahsuloti kam olindi. Ushbu davr ichida ijtimoiy ishlab chiqarish mahsulotining mutlaq o'sishi amalda yuz bermadi. Bu esa respublikada kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonining ta'minlanmaganini ko'rsatadi<sup>3</sup>.

Korxonalarni to'liq xo'jalik hisobiga va o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlashga o'tkazish ham o'zini oqlamadi, chunki "sotsialistik xo'jalik yuritish" tizimi, rahbarlikning buyruqbozlik usullari ob'ektiv jihatdan bozor munosabatlarining amalda namoyon bo'lishiga to'sqinlik qilardi. Shuning uchun

---

<sup>1</sup> Исаков Б.Н. Ўзбекистонда 80-йилларнинг иккинчи ярми – 2000 йиллардаги тарихий ўзгаришларнинг демографик жараёнларга таъсири. Тарих фанлари номзоди... диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2010. 13 бет.

<sup>2</sup> Ражабов Н. Фан-техника тараққиётини жадаллаштириш – давр талаби // Ўзбекистон коммунисти. 1988. №7.

<sup>3</sup> Осминин В. Ўзбекистон ССР экономикасини қайта қуриш асосида ривожлантиришнинг якун ҳамда проблемалари // Ўзбекистон коммунисти. 1988. №11. – Б.20.

ham ayni davrda o‘zini o‘zi qoplash va mablag‘ bilan ta‘minlashga o‘tkazilgan korxonalar, tashkilotlar va xo‘jaliklarning talay qismi zarar ko‘rib ishladi<sup>1</sup>.

Mazkur besh yillik davrida O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti qaramog‘idagi korxona, tashkilot va xo‘jaliklar soni 4796 tadan 2104 taga qisqardi. Ishlab chiqarish tarmoqlari doirasida 1988-yilda ijobiy natijaga erishgan korxonalar soni 1987-yilda zarar bilan ishlagan korxonalar sonidan ikki baravar kam bo‘ldi. Bunda haqiqiy ko‘rilgan zarar 607,4 mln so‘m o‘rniga 419,5 mln so‘m hisoblangan bo‘lib, jami zarar bilan ishlagan korxonalar soni 1515 tani (yoki 73,6% ni) tashkil qilgan edi<sup>2</sup>.

Mana shunday tang moliyaviy vaziyatda jahon standartlari darajasida energiya tejoychi yangi texnologiyalar xususida o‘ylash u yoqda tursin, ishlab chiqarishdagi yaqqol ko‘rinib turgan yoriqlarni yamash-u hech bo‘lmaganda uskunalarni joriy ta‘mir qilishning o‘zi ham katta gap edi. Zotan, birlashmadagi uskunalarining 75-80%i jismonan eskirgan, ma‘naviy eskirish darajasi esa naq 100%ga teng edi. Shuning uchun vazirlikning bunday o‘zboshimchaligi resurslarni tejashga doir istiqbolli rejani ishlab chiqishga rag‘batni ham so‘ndirar edi.

Ijobiy natijalar uchun intilishlar qanchalik kuchli bo‘lishiga qaramay, islohotlarning samarasi aytarli katta bo‘lmadi. 1988-yilning yanvar-avgustida O‘zbekistondagi 1267 ta sanoat korxonasidan bor-yo‘g‘i 320 tasi (25,3%) to‘liq xo‘jalik hisobi va o‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta‘minlash sharoitida ishlagan<sup>3</sup>.

Sifat muammosi haddan tashqari keskin tus olib ketdi. Mazkur muammoni hal qilish maqsadida mahsulotning davlat qabuli joriy etila boshlandi. 1986-yilda O‘zbekistonda ishlab chiqarishning asosiy uchastkalarini davlat qabuli bo‘yicha 27 ta post nazorat qilgan edi. 1987-yilda davlat qabuli sharoitida ishlovchi korxonalarda yaroqsiz chiqarilgan mahsulotlar hajmi 833 ming so‘mni tashkil etdi. Davlat qabuli joriy etilgan 33 korxonada har oyda o‘rta hisobda 0,9 mln so‘mlik mahsulot qabul qilinmas edi.

<sup>1</sup> “Ўзбекистон коммунисти”. 1987. №9. – Б.35.

<sup>2</sup> Ревун В. Убыточные предприятия: быть или не быть? // Экономика и жизнь. 1990. №2. – С. 37.

<sup>3</sup> Осминин В. Ўзбекистон ССР экономикасини қайта қуриш асосида ривожлантиришнинг яқун ҳамда проблемалари //Ўзбекистон коммунисти. 1988. №11. – Б. 23.

Hayotiy tajriba shuni tasdiqladiki, haqiqiy ma'muriy chora hisoblangan davlat qabuli ishlab chiqarishdagi tanazzulni to'xtatish u yoqda tursin, hatto bu jarayonni sekinlashtira olmadi. Zero, mahsulotlar yuqori sifatli bo'lishi uchun ishlab chiqarish jarayonini tubdan yangilash bilan bog'liq bo'lgan g'oyatda keng tadbirlar majmuini amalga oshirish talab qilinardi. Bir tomondan, moliyaviy mablag'lar va moddiy resurslarning yo'qligi, ikkinchi tomondan, rasmiy hokimiyat organlari reja topshiriqlarining bajarilishini qat'iyat bilan talab qilishi davlat qabulining yuzakilashuviga olib keldi. Ma'muriyatning tazyiq ko'rsatishi oqibatida sifat masalalari asta-sekin ikkinchi-uchinchi darajali masala bo'lib qoldi. Agar 1986-yil dekabrda davlat qabuli talabi bilan 60% mahsulot qabul qilingan bo'lsa, 1987-yilning yanvariga kelib 48,5% mahsulot davlat qabuli talabiga javob berdi. Mamlakatda mahsulot sifatini oshirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasiga ko'ra, 1986-yilda ishlab chiqarishning umumiy hajmida oliy sifat kategoriyasidagi mahsulot salmog'i ittifoq bo'yicha hisoblaganda 15%ni, O'zbekiston bo'yicha esa atigi 10%ni tashkil etdi<sup>1</sup>. Ayniqsa, yengil sanoatdagi ahvol yomon bo'lib, tarmoqda bolalarbop mollar ishlab chiqarish o'rniga "yalpi ko'rsatkichga" zo'r berilardi. Mahalliy sanoatda yalpi mahsulot rejasi bajarilsa-da, biroq 1986-yilda savdo korxonalari bu tarmoqdan 70 mln so'mlik molni olishdan bosh tortgan edi. Chunki u mahsulotlar sifatsiz va xarid qilish uchun yaroqsiz edi<sup>2</sup>.

1990-yil iyun oyida qabul qilingan "SSSR korxonalari to'g'risida"gi Qonun<sup>3</sup> korxonalarning iqtisodiy va siyosiy huquqlarini ancha kengaytirdi. O'sha vaqtdan boshlab korxonalar mulkchilikning har qanday shakliga asoslanadigan, soliqlarni to'lagandan keyin qolgan sof foydadan mustaqil foydalanadigan, o'zlarining davlat bilan munosabatlarini faqat bozor asoslarida belgilaydigan bo'ldilar.

Afsuski, hatto qisman isloh qilingan sovet ijtimoiy va davlat tuzumi ham davlat tasarrufidagi iqtisodiyotdan hayotiy muhim bo'lgan bozorga o'tishda ob'ektiv ravishda qiyinchiliklarni tug'dirdi. Sovet tuzumining "sotsialistik" bozorni tarkib toptirishga intilishi ilg'or tashabbuslari to'la-to'kis barbod qilishni nazarda tutar edi. Milliy respublikalar, jumladan, O'zbekistonning chinakam

<sup>1</sup> Йўлдошева Д. Қайта қуриш шароитида Ўзбекистон саноати. – Т., 1989. – Б.10.

<sup>2</sup> Ўша асар. – Б. 8.

<sup>3</sup> "Известия". 1990, 13 июнь.

iqtisodiy va siyosiy mustaqil emasligi bozor munosabatlariga o'tishga to'sqinlik qildi.

Og'irlashib, serxarajat bo'lib qolgan sovet iqtisodiyotining illatlarini barham toptirish endilikda mumkin emas edi. Chunki respublika iqtisodiyotining barcha sohalarida tanazzul davom etardi.

“Qayta qurish”ning so'nggi yillarida respublika ishchi va xizmatchilarining ijtimoiy rivojlanishida murakkab va ziddiyatli jarayonlar sodir bo'ldi. Ularning miqdor jihatidan o'sishiga mos sifat o'zgarishlari yuz bermadi, ushbu ko'rsatkich aholining tabiiy o'sishidan orqada qoldi, bu esa ishchi kuchining ancha ortiqcha bo'lib qolishiga olib keldi.

Kadrlar tayyorlashda ularning ish haqi darajasi, mehnat sharoitlari, turli mutaxassisliklardagi xodimlarning nufuzi kabi talablar qondirilmadi. 80-yillarning oxirida qariyb 20 ming oliy ma'lumotli mutaxassis va 140 mingdan ortiq o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar aqliy menat bilan emas, balki jismoniy mehnat bilan band bo'ldilar.

Ish bilan band aholi mehnatdagi faolligining pasayib ketishi salbiy holatlar ortib borishining tahlikali belgilaridan biri edi. Mehnat unumdorligining rejalashtirilgan 18% o'sishi o'rniga sanoatda o'rta hisobda 1985-yilga nisbatan faqat 12%, qurilishda 7% o'sishga erishildi, yengil sanoat tarmoqlarida esa u, hatto, 2%ga kamayib ketdi. Respublikadagi mehnatga layoqatli bo'lgan, biroq ish bilan band bo'lmagan aholi sonining yuqori darajaga chiqib ketishi millatlararo mojarolarning ko'payishiga sabab bo'ldi. Ish bilan band bo'lmagan aholi orasida yoshlarning salmog'i ortib borganligi tashvishli bo'lib, ish bilan ta'minlanmaganlar orasida yoshlar 1979-yilda 46,7%ni tashkil etgan bo'lsa, 1989-yilda esa 51%ni (qishloq joylarida 54,1%ni) tashkil etgan edi. Respublikada aholining o'sish sur'ati ittifoqdagidan 3 baravar yuqoriligi ham ahvolni yanada murakkablashtirar edi<sup>1</sup>.

Sovetlar yillarida Markaziy Osiyo mintaqasining ishlab chiqaruvchi kuchlari bir muncha rivojlandi, fan-texnika taraqqiyotining zamonaviy yutuqlari bilan qurollangan insonning tabiatga faol tarzda va ba'zida yetarlicha asoslanmagan holda kirib kelishi uning yashash muhitiga ulkan yuk bo'lishiga

---

<sup>1</sup> “Ўзбекистон коммунисти”. 1990. № 1. – Б. 25.

olib keldi, kishilarning sog‘ligi va hayoti uchun potentsial xavf tug‘diruvchi ekologik vaziyat yuzaga keldi.

O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarish o‘tib borgani sayin atmosferaga chiqarib yuboriladigan zararli moddalarning hajmi ancha ko‘payib, yiliga 4,2 million tonnadan oshdi, shuning 2,9 millioni avtotransportdan chiqar edi. Andijon, Guliston, Qo‘qon, Qarshi, Navoiy, Toshkent, Farg‘ona va boshqa shaharlar havosi juda ifloslangan. Bu hududlarda bir galda havoga chiqariladigan zararli moddalar miqdori yo‘l qo‘yiladigan me‘yorlardan 6-9 marotaba ortiq edi.

Ekologik muammoning keskinligi muayyan darajada milliy daromadda material sarfining o‘lishi tufayli yuzaga kelgan, bu esa insonning tabiatga bo‘lgan antropogen yuklamasining oshishiga olib kelgan. Chunonchi, O‘zbekiston SSRda 1988-yilda milliy daromadning 1 foiz o‘lishi uchun material sarfining 29 foiz o‘lishi talab qilindi. Iqtisodiy struktura ham jiddiy ta’sir etib, unda “ifloslantiruvchi” tarmoqlarga – energetika, metallurgiya va tog‘-kon sanoatiga katta o‘rin ajratilgan edi.

Ishlab chiqarishda material va energiyaning ortiqcha sarflanishi foydali qazilmalar undirishning yirik miqyoslarini, ularni qayta ishlash va yo‘qotishni shartlardi, bu esa, o‘z navbatida, bo‘sh jinslar, kul va toshqolning, suv va havoga zararli tashlandilarning ko‘plab chiqishini tug‘dirardi. Taxminiy ma’lumotlarga qaraganda, O‘zbekistonda har yili 7,5 million tonnadan ortiq faqat hisobga olinadigan sanoat chiqindisi, 60 million tonnadan ortiq yuzadagi jinslar hosil bo‘lardi, lekin ularni ishlab chiqarishga qayta jalb etish darajasi qoniqarli darajada bo‘lmay, o‘sha paytda u 3%dan oshmasdi. Bu esa umumittifoq ko‘rsatkichidan 2 baravar, Ukraina SSRdagidan 4 baravar past edi.

Hosil bo‘lgan chiqindilarni ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish bo‘yicha ahvol quyidagicha edi: ikkilamchi gazmol – 90%, kul va toshqol – 8,6%, kaolinli giltuproq – 4,4%, ikkilamchi polimerlar – 20%. Respublikada amalda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish chiqindilari, asbestli chiqindilar (salkam 2 million tonna), beton va temir beton (6,6 ming tonna), taxta titish va yog‘ochga ishlov berish chiqindilari deyarli ishlatilmasdi<sup>1</sup>.

O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari SSSR tashqi savdo vazirligi hamda boshqa tegishli ittifoq tashkilotlari nazoratida va boshqaruvida bo‘ldi. Butun valyuta va eksport-import operatsiyalari, daromad olish va foydani

---

<sup>1</sup> Шодиметов Ю. Жамият – Экология – Сиёсат // Инсон ва сиёсат. 1991. №6. – Б. 51-54.

taqsimlash ular tomonidan amalga oshirildi, bu mablag'lardan, birinchi navbatda, umumittifoq dasturlari ta'minlandi. Mamlakatning markazlashgan tashqi iqtisodiy faoliyati qay darajada saqlanib qolgan bo'lsa, uni tashkil etuvchi respublikalarning ishlab chiqarishida tanglik holatlari ham, bu sohadagi islohot ham shunday darajada kechdi.

O'zbekistonda mazkur islohot butunlay muvaffaqiyatsiz bo'ldi, respublika eksportining xomashyo yo'nalishini, uning tuzilishini va tovarlarning muayyan guruhini chetdan keltirishdan iborat an'anaviy qaramligini o'zgartirmadi. Respublikaning chet elga tayyor to'qimachilik mahsulotlarini sotishi va undan keladigan foydadan bahramand bo'lish imkoniyatini o'zgartira olmadi.

Shunday qilib, O'zbekiston iqtisodiyotining xomashyo yo'nalishida bo'lishi umumittifoq mehnat taqsimoti bilan mustahkamlandi va uni rivojlantirish paxtachilik bilan qat'iy bog'landi. "Qayta qurish" yillarida esa paxta agrosanoat majmuining xo'jalik mexanizmini takomillashtirishga qaratildi, bu mexanizm Rossiya va ayrim sotsialistik mamlakatlar to'qimachilik sanoatini zarur miqdor va turdagi tola bilan ta'minlashdan iborat vazifani bajardi. O'zbekistonni shu yo'sinda ixtisoslashtirish uning milliy daromadini, demak, aholining turmush darajasi ham past bo'lishini oldindan belgilab berdi. Ma'lumki, bu ixtisoslashuvni saqlagan holda sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, zamonaviy fan-texnika negiziga o'tkazish, shuningdek, mutaxassislariga ta'lim berish va tayyorlash tizimini yangi darajaga ko'tarish va bu yo'l bilan qoloqlikning boshi berk ko'chasidan chiqib olish amalda mumkin emasdi. Markaz esa bu borada g'oyat samarasiz siyosat o'tkazardi. Respublikada keragidan ortiqcha mehnat sarflanishi va ishsizlik (birgina Farg'ona vodiysining o'zida kamida 1 mln. ishsiz bor edi), bularga yana bir qator muammolarning – ko'p miqdordagi aholining, ayniqsa, mahalliy aholining qishloq joylarda to'plangani kabi eski muammolarning qo'shilishi, jamoa qadriyatlari va manfaatlarining (urug'chilik, oila-qarindoshchilik) shaxsiy manfaatlardan ustuvorligi, yoshlarda istiqbol va kelajakka umidvorlikning yo'qligi, masalan, ularning Farg'ona vodiysida va boshqa joylarda ko'proq namoyon bo'lishi, O'zbekistondagi vaziyatni haddan tashqari keskinlashtirib, uni ichki tomondan ziddiyatli va beqaror qilib qo'ydi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Бу ҳақда батафсил қаранг: Ўзбекистон РПДА. 58-фонд, 418-рўйхат, 1-йиғма жилд, 39-51-варақлар.

Holbuki, bir tomondan, respublikaning o'zida ancha kuchli ishlab chiqarish - iqtisodiy baza tarkib topdi. Uning qishloq xo'jaligi, sanoati faqat ittifoq doirasidagina muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmay, xalqaro miqyosda ham sezilarli darajada iqtisodiy ahamiyatga ega bo'labordi. O'zbekiston o'zining sanoat mahsuloti bilan (mustaqil ravishda bo'lmasa-da) jahon bozoriga chiqishga muvaffaq bo'ldi. Chunonchi, respublikaning elektrotexnika buyumlari dunyoning 30 dan ortiq mamlakatiga chiqarilardi. O'zbekiston paxta tozalash zavodlari uchun asbob-uskunalar va paxta bilan bog'liq boshqa texnikani Bolgariya, Yugoslaviya, Kubaga yetkazib beradigan birdan-bir respublika edi. Sharqiy Yevropa mamlakatlariga tabiiy gaz yetkazib berish, rangli metallurgiya va kimyo sanoati mahsulotlarini eksport uchun ishlab chiqarish imkoniyati vujudga keldi. Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarga mashina-texnika buyumlari, kimyoviy mahsulotlar, gazlama, chinni idishlar, rivojlanayotgan mamlakatlarga qishloq xo'jalik mashinalari, kimyo va to'qimachilik sanoati uchun asbob-uskunalar, dizellar, kompressorlar, ekskavatorlar, kinoapparatura eksport qilindi. Biroq O'zbekiston mahsulotlarining ko'pgina turlari unchalik raqobatbardosh emas, shu bilan birga, bu mahsulotlar "SSSR" nomidan chiqarilardi.

Ikkinchi tomondan, respublika iqtisodiyoti SSSRning boshqa xo'jalik rayonlariga majburiy bog'liq qilib qo'yildi. Bu bog'liqlik chuqurlashib borayotgan ishlab chiqarish kooperatsiyasi ta'sirida yanada murakkablashib bordi. O'zbekiston boshqa ittifoqdosh respublikalardan mashinalar, turli asbob-uskunalar, keng iste'mol mollarini olib turishga majbur edi. Sovet tuzumi tomonidan kundan-kunga kuchayib borgan ixtisoslashuv va kooperatsiyalash O'zbekistonni erkin xo'jalik yuritishi uchun imkon bermas edi. Bu esa O'zbekiston bilan Markazning milliy manfaatlari o'rtasida ziddiyatni yanada kuchaytirib yubordi.

## FILOLOGIYA

### ERKIN SAMANDAR IJODIDA JALOLIDDIN MANGUBERDI OBRAZI (“Sulton Jaloliddin” romani misolida)



**Farhod Kenjayev,**  
O‘zR FA O‘zbek tili,  
adabiyoti va folklori  
instituti kichik ilmiy  
xodimi

**UO‘K 821.512.133.09’06-047.48**

**Annotatsiya:** Maqolada yozuvchi Erkin Samandarning “Sulton Jaloliddin” nomli romani tahlilga tortilgan. Ijodkorning tarixiy shaxs Jaloliddin Manguberdi siymosini haqqoniy tasvirlashi va o‘ziga xos uslubi, shuningdek, yozuvchi ijodining asosiy qismini Jaloliddin Manguberdi tasviriga bag‘ishlanganligi haqida so‘z yuritilgan.

**Аннотация:** В статье анализируется роман писателя Эркина Самандара “Султан Джалолиддин”. Обсуждается правдивое изображение автором исторической личности Джалолиддина Мангуберди, его неповторимый стиль, а также то, что основная часть творчества писателя посвящена образу Джалолиддина Мангуберди.

**Annotation:** The article analyzes the novel "Sultan Jaloliddin" by writer Erkin Samandar. The author's truthful portrayal of the historical figure Jaloliddin Manguberdi and his unique style are discussed, as well as the fact that the main part of the writer's work is dedicated to the image of Jaloliddin Manguberdi.

**Kalit so‘zlar:** Tarixiy shaxs, tush, badiiy obraz, badiiy yadro, o‘tmish haqiqati va badiiy to‘qima, roman.

**Ключевые слова:** Историческая личность, мечта, художественный образ, художественное ядро, прошлая правда и художественная фактура, роман.

**Key words:** Historical figure, dream, artistic image, artistic core, past truth and artistic texture, novel.

Jaloliddin Manguberdi obrazi o‘z davridan to bugungi kungacha tarixiy va badiiy asarlarning markaziy qahramonlari sifatida gavdalanib kelmoqda, lekin turli davrlardagi unga bo‘lgan munosabat bir xil emas. Yirik janr hisoblangan tarixiy romanlarni yozish uchun tarixiy faktlarning yetishmasligi qahramon obrazini shakillantirishda ko‘proq xalq og‘zaki ijodi asosida tasvirlanishga olib keladi.

O‘zbek adabiyotida Jaloliddin Manguberdi obrazining shakllanishi va rivojlanishi o‘ziga xos adabiy jarayonni aks ettiradi. Ushbu obrazni birinchi bo‘lib o‘zbek adabiy sahnasiga olib chiqqan ijodkor Maqsud Shayxzoda bo‘lib, u 1944-yilda yozilgan **“Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramasi** orqali bu

qahramonning tarixiy va badiiy talqiniga asos solgan. Keyingi yillarda Jaloliddin Manguberdi obraziga oid turli badiiy yondashuvlar adabiyotda davom ettirilgan bo'lsa-da, eng so'nggi namuna sifatida Nazar Eshonqulning 2019-yilda yozilgan **“Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramasini** qayd etish mumkin.

Agar roman janri nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, Jaloliddin Manguberdi obrazining badiiy talqini istiqlol davri adabiyotining muhim yutug'i sifatida namoyon bo'ladi. Bu yo'nalishda dastlabki qadam Erkin Samandarning “Sulton Jaloliddin” (2007) romanida kuzatiladi. Ushbu asarni istiqlol davri tarixiy roman janrining yuksak namunalaridan biri sifatida baholash mumkin.

Jaloliddin Manguberdi obrazi istiqlol davri o'zbek adabiyotida birinchi marta drama va roman janrida Erkin Samandar ijodida uchraydi. Aslida, Jaloliddin Manguberdi siymosi yozuvchi ijodida yetmishinchi-saksoninchi yillarda, ya'ni istiqloldan oldingi davrda yaratilgan asarlarida uchraydi. Adib o'z asarlarida Manguberdi obrazini yaratishda uni milliy va tarixiy qadriyatlar, ayniqsa, ozodlikning ramzi sifatida talqin qilgan.

Adib ijodining dastlabki mashqlarida ham Jaloliddin obrazi tasvirga olinishi va uning ko'plab o'quvchilar tomonidan mutolaa va e'tirof qilinishi Jaloliddin Manguberdi mavzusida drama, keyinchalik esa roman yozishiga ijobiy ta'sirini o'tkazgan. Yozuvchining o'zi bu haqda shunday xotirlaydi: “Jaloliddin Manguberdi haqida asar yozish orzusi oltmishinchi yillarda yuragimga cho'g' tashlagan. Avval baytlar bitdim, she'rlar yozdim”. [1.2]

Jaloliddin Manguberdi obrazi adibning ijodiy izlanishlarida markaziy o'rin tutadi hamda yozuvchi ijodining badiiy yadrosini tashkil qiladi. Masalan, uning “Xorazm farzandiman”, “Xiva”, “Temirqoziq bog'i” kabi she'rlari, “Olis nidolar”, “Ona va o'g'il” balladasi, “G'ayb qushlari” hikoyasi, “Jaloliddin Manguberdi”, “Ajodlar qilichi” dramalari, “Yot hujra” va boshqa ko'plab asarlarida Jaloliddin obrazi tasvirlanadi. Ijodkorning hikoyalarida ham ushbu davr (XIII asr) voqeliklari va Jaloliddin obrazi asosiy markazda turadi. “G'ayb qushlari” hikoyasida Kubro o'z tug'ilib o'sgan yurti Xorazm bilan vidolashar ekan, uning yolg'iz umidi Jaloliddin Manguberdi bo'lib gavdalanadi. “Jaloliddinni o'ylar ekan, shayxning ko'ngliga ishonch to'lqini indi: Inshoolloh, Jaloliddin Manguberdi yog'iyning dodini bergay, jasur avlodlar vatanni dag'i ozod va obod aylagay!”. [2.24]

Erkin Samandarning xotira bitiklariga nazar soladigan bo'lsak, u “saksoninchi yilga kelib ko'nglimda Jaloliddin Manguberdi haqida roman yozish istagi tug'ildi” [2.6], deya ijodiy niyatni bildirganligini kuzatamiz. Bu fikr

yozuvchining milliy tarixga va qahramonlik mavzusiga bo'lgan qiziqishini, shuningdek, mustaqillik arafasidagi milliy o'zlikni anglash jarayoniga ijodiy hissa qo'shishga intilganligini ko'rsatadi.

Ta'kidlaganimizdek, yozuvchi ijodida Jaloliddin Manguberdi obraziga ancha oldin murojaat qila boshlaganligi ko'rinadi: “yetmishinchi yillarda uch yuz oltmish avliyo maskani – Ko'hna Urganchga ziyoratga borganimda Jaloliddin bog'ining vayronalarini ko'rib yuragim hapqirqqan, anchagacha hayajonimni bosolmay mahzunlar bo'lganman. O'sha yerning o'zida “Temirqoziq bog'i” she'ri yaratilgan” [2.5]. Ayni shu bog' vayronalaridagi ijodkor ko'nglini o'rtagan epizodlar Erkin Samandarning “Sulton Jaloliddin” romanida peyzaj tasviri bo'lib keladi.



Erkin Samandar “Sulton Jaloliddin” asarida Xorazmshoh Alovuddin Muhammadning shaxsiyatini badiiy tahlil qilib, uni romanning markaziy obrazlaridan biri sifatida tasvirlaydi. Yozuvchi tarixiy rivoyatlardan ilhomlanib, Alovuddin Muhammad obrazini murakkab psixologik va falsafiy tahlil asosida gavdalantiradi. Ushbu obrazning ichki dunyosi, fikr va kechinmalari monologlar, o'y-xayollarning yozuvchi tilidan aks ettirilishi hamda dialoglar orqali ochib beriladi. “Yo‘q, u qo‘rqoq emas, u – adashgan shoh! G‘ayrli kimsalarning so‘zlariga kirib, ko‘p noto‘g‘ri qadamlar qo‘ygan, alaloqibat qarg‘ishga qolgan shoh! Odamga (garchi u shoh bo‘lsa ham) bir qarg‘ish tegmasin ekan...”. O‘zini anglash va pushaymonlik holati Xorazmshohning murakkab xarakterini yoritib, uni tarixiy shaxsdan badiiy-simvolik obrazga aylantiradi. “Qarg‘ish” jazosi tortilishi shart bo‘lgan voqea sifatida roman yakunida ham alohida ahamiyat kasb etadi, chunki “qarg‘ish” motivi barcha qahramonlarning fojeaviy halokatini belgilab kelgan. Xorazmshohning ichki monologi va Jaloliddin Manguberdi bilan munosabatlari orqali uning shaxsiy aybdorlik hissi va ijtimoiy mas‘uliyatni his etishi ochib beriladi. “Ko‘p o‘ylag‘onmen. Ruhimni sindirg‘on, dilimdagi o‘tga suv sepgan nedur? Bildimki, ul – qarg‘ishdur... Nohaq o‘ldirilganlar, tepamda tinmay charx urayotgan ruhlar qarg‘ishi. Xususan, alloma Majdiddin Bag‘dodiyni daryog‘a cho‘ktirg‘onim, hazrat Najmiddin Kubro dilin og‘ritg‘onim... Evoh! Bil‘aks, Chingizning dog‘uligi menga hech erdi...

O‘g‘lum!’. Asarning birinchi qismi shuning uchun ham “Qarg‘ish” deb nomlanib, barcha voqealar mana shu syujet asosida o‘tib boradi. Ekspozitsiyada berilgan qarg‘ish voqeligi roman yakuniga qadar davom etib, deyarli asardagi barcha qahramonlar halokati bilan yakunlanadi.

Ayanchli halokatga uchragan qahramonlar halokatini ham jazo motivi sifatidagi qarg‘ish bilan yakunlaydi:

*Yerga sig‘magan hokni osmon netib ko‘zga ilg‘ay...*


*Podshoh bo‘lsin yo gado, qarg‘ish tegmasin ekan” [1.184].*

Asarda Jaloliddinning xarakteri, ayniqsa, otasining iztiroblariga javob sifatida shakllangan ma’naviy jasorat, qat’iyat va fidoyilikni o‘zida mujassam etadi. Qarg‘ish va uning oqibatlari romanda nafaqat markaziy syujetni tashkil qiladi, balki Xorazmshoh va Jaloliddin Manguberdi xarakterlarining shakllanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, bu obraz tarixiy haqiqat va xalq og‘zaki ijodi bilan badiiy sintezda namoyon bo‘ladi. Asarda bosh qahramon obrazi atrofida barcha ijobiy xarakterdagi obrazlar birlashadi. Shuningdek, Jaloliddin Manguberdi va Chingiziylar o‘rtasidagi ziddiyatlar fonida Temur Malik, Najmiddin Kubro kabi tarixiy shaxslarning oliyjanob fazilatlari, qahramonlik va matonatlari tarixiy asoslangan holda badiiy talqin qilingan. Yozuvchi tarixiy voqelik va shaxslarga ijodiy-subyektiv yondashar ekan, Jaloliddin Manguberdi siymosini nafaqat tarixiy shaxs, balki badiiy xarakter sifatida qayta talqin qiladi. Bilamizki, “badiiy xarakter o‘zida obyektiv va subyektiv jihatlarni birlashtiradi. Inson hayotining ijtimoiy-psixologik realligi badiiy xarakterning obyektiv tomoni bo‘lsa, uning ijodkor tomonidan hissiy idrok etilishi va g‘oyaviy-hissiy baholanishi subyektiv tomonidir” [3.352].

Romanda qo‘rquv har qanday tuzumning asosiy harakatga keltiruvchi kuchi sifatida tarixiy davrni baholagan. Yozuvchi asardagi qo‘rquv ostidagi personajlarning uzoqni ko‘ra olmayotgani va faqat o‘zining oddiy ehtiyojlari va omon (sotqinlik yo‘li bilan bo‘lsa-da) qolishini o‘ylayotganini bosh obraz Jaloliddin Manguberdi achinishi bilan tasvirlaydi. Bu qo‘rquv davlatning bosh insonlaridan biri Xorazmshoh Alouddinni asirga olar ekan, uning halokatini muqarrar qiladi.

“Har bir yurt odami mamlakat boshiga ish tushganda, avvalo, o‘z podshohiga qaraydi. Podshoh jasurlik ko‘rsatsa, el jasur, podshoh ko‘ngliga qo‘rquv tushsa, ommaning tizi qaltirashi – haqiqat. Qo‘rquv – yuqumli kasallik” [1.84]. Ushbu



nutq Jaloliddinning otasi Alouddin Muhammad Xorazmshohga nisbatan tanqidiy bahosi bo'lib, unda qahramonning yetakchilik fazilatlari, xalq uchun mas'uliyatni his qilishi va davrning ijtimoiy-madaniy muammolariga nisbatan pozitsiyasi yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, bu nutq qahramonning ijodkor tomonidan hissiy idrok etilgan shaxsiyati, uning g'oyaviy bahosini, xarakterning subyektiv tomonini ham aks ettiradi.

Chingizxon qiyofasidagi dahshatli qo'rquv nafaqat Alouddin, balki Turkon Xotun uchun va butun musulmon xalqlariga ham ulkan sinov – qalblar sinovi bo'lib tasvirlanadi. Oxir-oqibat bu “yuqumli kasallik” yurtni parokanda qiladi va butun xalqni o'z iskanjasiga oladi.

Yana bir jihat - tush epizodi bugungi roman janridagi asarlarning negizi aynan folklor ekanligini yana bir bora isbotlaydi. Ayniqsa, tarixiy romanlar tarkibidagi tush epizodi buni yaqqol ko'rsatadi. Hajm, voqealar ko'lami jihatdan diapazoni keng hisoblangan romanlarda birgina dialog yoki monolog bilan obrazlar xarakterini yoritib bo'lmaydi. Bu o'rinda tush epizodlari obrazning ichki ruhiyatini tasvirlashda badiiy vosita bo'lib keladi.

Insoniyat yaralganidan beri tush ko'rish real hodisa bo'lib, bu insonning uyqu holatidagi tafakkur faoliyatidir. Xorazmshoh Alouddin Muhammad yoki Chingizxon kabi shaxslarning tush ko'rganligi badiiy asarlarda to'qima shaklda keltirilsa-da, bu elementlar inson ruhiyatining va xarakterining badiiy ifodasidir.

Tush orqali insonning ichki dunyosi, fikr-mulohazalari va yashirin maqsadlari aks ettiriladi. Masalan, Xorazmshoh Alouddin Muhammadning tushida koʻrgan hodisalari uning qaror qabul qilish jarayonidagi his-tuygʻularini va feʼl-atvorini ochib beradi. Obraz tushlari uning oʻz-oʻziga qarshi va ruhiy holatini badiiy ifodalashga xizmat qilgan. Chingizxon tushlari esa, aksincha, uning ambitsiyalari, strategik fikrlashi, xarakteridagi qatʼiyat yoki yovuz niyatlarini badiiy talqin qilishda koʻzga tashlanadi. Jaloliddin Manguberdi tushlari qahramonning murakkab dunyosi va xarakteridagi qarama-qarshiliklarni ochib beradi. Tush tasviri ramziy maʼno kasb etib, uning ichki kurashlarini va buyuk maqsadlari yoʻlidagi sinovlarni yoritadi. Masalan, “Qorabayrga qamchi urardi. Shunda ham ot oldinga yurmas” [1.252] kabi tush epizodi bir tomondan, uning qatʼiyatini va oʻz maqsadiga erishish yoʻlidagi kurashini koʻrsatsa, ikkinchi tomondan, hayotdagi toʻsiqlarni ifodalaydi.

Jaloliddin Manguberdi, Chingizxon, Alovuddin Muhammad, Turkon Xotun, Oychechak, Gulbegim kabi tarixiy shaxslar hamda Abdul Mahak, Puraxon, Toʻgʻonbek, Qambarniso singari toʻqima obrazlarning tush koʻrishi ularning xarakterini ochishda muhim rol oʻynaydi. Aytish kerakki, tush xarakter chizmasi emas, yaʼni obrazning tushidan kelib chiqib xarakter chizilmaydi, aksincha uning xarakteridan kelib chiqib tush “koʻrsatiladi”. Asar qahramonlarining tushlari, xuddi oʻzlarining hayotiy tajribalari kabi, ularning qarorlarida va voqealarning rivojida hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlib, oʻquvchini qahramonlarning ruhiy dunyosiga yanada yaqinlashtiradi.

Shu oʻrinda oʻziga xos uslub paydo boʻladi. Yaʼni tarixiy roman yozishda yozuvchilarga murakkab boʻlib kelayotgan jarayon – oʻtmish haqiqati va xalq rivoyatlarini asar davomida qanday bogʻlash mumkin, degan savolga javob sifatida tush epizodini qoʻllash mumkinligini Erkin Samandar koʻrsata olgan. Tarixiy roman janrida mana shu holdagina yozuvchi epos va tarix oldidagi masʼuliyatni chetlab oʻtishi mumkin.

Erkin Samandar “Sulton Jaloliddin” romanida Jaloliddin Manguberdi xarakterining hech bir adib eʼtibor bermagan tomonlarini ham yoritishga harakat qiladi. “Jaloliddin Manguberdi adabiyotga koʻngil qoʻygan, samimiy, hamisha kulimsirab turuvchi inson edi” [4.348]. Yozuvchi tarixiy manbalarga asoslanib, oʻtmishda koʻproq sarkarda va sulton obrazida gavdalangan Jaloliddin Manguberding ruboiy yozganligini badiiy voqeliklarga singdirib, ilk marotaba oʻzbek adabiyotida uning shohligidan tashqari ijodkorligiga ham ishora qiladi:

*Dar razm chu ohanim va dar bazm chu mum,  
Bar do‘st muborakimu bar dushman shum,  
Az hazrati mo barand insof ba Shom,  
Va-zi haybati mo barand zunnor ba Rum!*

Ya’ni:

*Kurashda temirdek qattiq, bazmda mumdek muloyimmiz. Do‘stga sharofatlimiz, dushmanga bermasmiz omonlik, Ulug‘vorligimizdin nabiylar yurti Shomga diyonat namunasini elturlar. [1.23]*



Mazkur ruboiy borasida Erkin Samandar fikrlari bo‘yicha izlanishlar olib borildi va eronlik alloma Rizoqulixon Hidoyat (1800-1871) “Majma al-fusaho” asarining asl nusxasi matnida haqiqatdan bu ruboiy Sulton Jaloliddin Manguberdiga nisbat berilganligi aniq bo‘ldi. Qolaversa, Jaloliddin Manguberdi sulton farzandi va valiahd o‘laroq Najmiddin Kubroning suyukli shogirdi ham edi, shu boisdan uning Kubroviya tariqatidan ta’lim-tarbiya olganligi aniq. Demak, Jaloliddin Manguberdi ruboiy yozganligi haqiqatga juda yaqin. Ruboiyning nazm qoidalariga mukammal javob berishi esa Manguberdining bundan ham boshqa ijod namunalari mavjudligidan dalolat beradi. Bu davrlarda,

ya'ni XII-XIII asrlarda forsiy tilning nufuzi baland bo'lib, ko'plab ijodkorlar, shuningdek, davlat amaldorlari bu tilni mukammal o'rganganlar.

Umuman olganda, yozuvchi Erkin Samandarga xalqimizning suyukli farzandi Sulton Jaloliddin Manguberdi va uning vatan, xalq uchun qilgan buyuk qahramonliklari ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan. Ijodkor o'z tarixiy qahramonni lirik, dramatik, epik turlardagi asarlarida tasvirlab, o'zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Erkin Samandar. Sulton Jaloliddin. –Toshkent: “G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2007. – 288 b.
2. Erkin Samandar. Jaloliddin Manguberdi. –Toshkent: “Sharq”, 1999. – B. 270.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M., Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: “Akademnashr”. 2013, – B. 352.
4. Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. Kamol Matyoqubov tarjimasi. – Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2006. – 384 b.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: “Akademnashr”, 2018 – 480 b.
6. Quramboyev K. Adabiy jarayon. Ijod mas’uliyati. Adabiy aloqalar: (saylanma maqolalar). – Toshkent: “Cho‘lpon”, 2009. – 456 b.
7. Qo‘chqarova M. Hozirgi o‘zbek nasrida badiiy shartlilik. – Toshkent: “Fan”, 2020. – 248 b.
8. Qosimov A. Hamroqulov A. Xo‘jayev S. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: “Barkamol fayz media”. 2019. – 160-b.
9. Rahimjonov N, Qo‘bayev Q. Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi. – Toshkent: “Adolat”, 2005. – 187-b.

## FILOLOGIYA

### TERAN MAZMUNNING SODDA IFODASI

(To‘ra Sulaymon she‘riyati misolida)



**Ulug‘bek  
HAMDAM,**  
O‘zRFA O‘zbek tili,  
adabiyoti va folklori  
instituti yetakchi ilmiy  
xodimi,  
filologiya fanlari  
doktori, professor

**UO‘K 512.71**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada shoir To‘ra Sulaymon she‘rlarining mazmun-mundariyasi, tematik diapazoni, xalqona usuli va sodda ifodasi to‘g‘risida so‘z yuritilib, o‘ziga xos jihatlari ilmiy tadqiq etiladi.

**Аннотация:** В статье рассматриваются содержание, тематический диапазон, народный стиль и простота выражения стихов поэта Торы Сулаймона, а также с научной точки зрения изучаются их уникальные аспекты.

**Annotation:** This article discusses the content, thematic range, folk style, and simple expression of the poems of the poet Tora Sulaymon, and scientifically studies their unique aspects.

**Kalit so‘zlar:** xalq og‘zaki ijodi, folklorizm, xalqona usul, badiiy nutq shakllari, ifoda soddaligi, turg‘un qoliplar, tematik diapazon, epigrafi, shakl va mazmun uyg‘unligi.

**Ключевые слова:** устное народное творчество, фольклоризм, народный стиль, художественные формы речи, простота выражения, устойчивые закономерности, тематический диапазон, эпиграф, гармония формы и содержания.

**Key words:** oral folk art, folklorism, folk style, artistic speech forms, simplicity of expression, stable patterns, thematic range, epigraph, harmony of form and content..

Xalqona usuldagi she‘riyat shartli ravishda “saroy adabiyoti” deganimiz birmuncha “murakkab” poeziya yonida, u bilan yaxshi ma‘nodagi raqobat holida mudom mavjud bo‘lgan. “Sayroy adabiyoti” atamasini temuriylar davri to‘g‘risida so‘z yurita turib, birinchilardan bo‘lib professor A.Fitrat ishlatadi: “Bu davrda biz chig‘atoy adabiyotini uch qismga ajrata olamiz: doston adabiyoti, yassaviylik adabiyoti, saroy adabiyoti”<sup>1</sup>. Xalq og‘zaki ijodi namunalari keyinroq – XX asrdan e‘tiboran tizimli yozib olinib boshlaganiga qaramay, uning ruhi Fitrat eslatib o‘tgan doston adabiyoti va yassaviylik adabiyotining ifoda usulida mavjud edi. Xuddi shu ruh yangi o‘zbek she‘riyatida ham ulug‘ an‘ananing davomi sifatida davom etdi, etmoqda. Shoir To‘ra Sulaymon ana shu an‘ananing yirik davomchisidir. Avvalo, mazkur she‘riyat ildizlari xalq og‘zaki ijodi – folklorga

<sup>1</sup> Фитрат А. Танланган асарлар. Беш жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. Б.38

borib taqalishini qayd etmoq lozim. Shuning uchun ham aynan xalqona usullarda qalam tebratgan shoirlar ijodiga nazar tashlanganda, folklorizmning turli xil tovlanish (variatsiya) larini ko‘rish mumkin. Hamid Olimjon, Mirtemir, To‘ra Sulaymon, Usmon Azim, Muhammad Yusuf, keyinroq Rustam Musurmon, Hayot Shodmon kabi yangi o‘zbek she‘riyati vakillari ijodi aynan xalq og‘zaki ijodi bulog‘idan suv ichgani, ichayotgani bilan ham elga manzur. Yassaviy, Bobur, Mashrab, So‘fi Olloyor kabi mumtoz adabiyotimizning yirik namoyandalari bitiklarining juda ravon o‘qilishi va oson tushunilishining sabablari ham hayotni badiiy-estetik qabul qilish va uni aks ettirishdagi o‘ziga xoslik, shuningdek, albatta, sodda uslublari bilan bog‘liq. Yana Fitratga murojaat qilamiz. Olim hikmatlar muallifi Ahmad Yassaviy to‘g‘risida shunday yozadi: “...uning adabiyotda tutg‘an yo‘li soda (sodda – U.H.) xalq shoirlarimizning tutg‘an yo‘llaridir. Unda Navoiyning ingichka istioralari, Bobir (Bobur – U.H) ning forsha yonishlari yo‘qdir. Uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti atalg‘an she‘rlar bilan barobar yuradi”.<sup>1</sup> Tabiiyki, Fitrat Navoiy va Bobur ijodini “saroy adabiyoti” safiga qo‘shadi. Shunga qaramay, ifoda usuli nuqtai nazaridan bu ikki ulug‘ ustoz va shogird shoirlarning ijodi bir-biridan yaxshigina farq qiladi. Boshqacha aytganda, ular mavzu, vazn, qofiya, tashbeh, obraz va boshqa badiiy san’atlar an’anasida ajralmas uyg‘unlik kasb etgani holda, til va ifodada ayricha maqomlarda turishadi.

Xullas, shoir To‘ra Sulaymon ham, Fitrat ta‘biri bilan aytganda, “saroy” va xalq shoirlaridan keyingisiga mansubdir. Bunga iqrор bo‘lish uchun shoirning bir necha she‘rlariga murojaat qilamiz:

Bobomning orzulari amalga oshmas bo‘lsa,  
Yurgan yo‘limda o‘lan, qo‘shiq qalashmas bo‘lsa.  
Qo‘shiqlarim bog‘lardan, tog‘lardan oshmas bo‘lsa,  
El-yurt baxtini kuylash menga yarashmas bo‘lsa,  
Ko‘nglimda armon yotar,  
Tura bilmas nor misol<sup>2</sup>.

She‘rda so‘z bobodan, uning orzularidan boshlanmoqda. Demak, shoir uchun birlamchi istak – bobolar orzusini ro‘yobga chiqarish. Ya‘ni gapning indallosidanoq ildizga boqish bor. Keyingi misrada o‘lan va qo‘shiq eslanmoqda. O‘lan bu – qadimdan beri aytib kelinadigan xalq ijodi mahsuli, alohida janr, qo‘shiqning bir turi, ko‘pincha childirma jo‘rligida, ba‘zan jo‘rsiz ijro etiladi.

<sup>1</sup> Фитрат А. Танланган асарлар. Беш жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: “Маънавият”, 2000. Б.31

<sup>2</sup> Сулаймон Т. Сенсиз ёлғиз, ғариб бўлдим... Тошкент: “Мовароуннахр”, 2013. Б.176.

Unda xalq orzu-umidlari, quvonch va tashvishlari aks etadi. Shoir shunday o‘lanlar, qo‘shiqlar mo‘l-ko‘l bo‘lsin, deya orzu qilmoqda. Shunchalarki, hatto shoirning yurgan yo‘lida qalashib, bog‘lar, tog‘lardan oshib ketishi (uchinchi misra!) kerak. Chunki shoir el-yurtning baxtini kuylashga chog‘langan. O‘zini shunga mas’ul biladi. Agar bularning bari mumkin bo‘lmasa yoki shoir bunga qodir emasa, uning ko‘ngliga o‘rnidan tura olmaydigan nor misol armon cho‘kadi. She’rning oti ham “Armon”. Bular to‘rtinchi va beshinchi misralarning ma’nolari. Nor – tuya. Bir o‘rkachli erkak tuya. Odamlarning yukini tashib, og‘irini yengil qilgich hayvon. “Qatorda noring bo‘lsa, yuking yerda qolmaydi” degan xalq maqoli bor. Demak, shoir ana shu xalq so‘zini olib, she’rning maqsadiga moslab qayta ishlayapti, natijada folklorizm vujudga kelyapti. Bo‘lganda ham juda chuqur ma’noga ega folklorizm. Qatordagi nor turolmaydigan bo‘lsa, demak, yuk yerda qoladi. Yukning yerda qolishi esa ro‘zg‘orning to‘xtab qolishi va hatto hayotning tugashiga teng. Bunga boshqa shartlar ham omil bo‘lmoqda. Darvoqe, folklor matnlarida shart motivi muhim ahamiyatga ega. Mazkur she’rda ham shu usul qo‘llangan:

Ayrilar bo‘lsa magar kimda kim oshyonidan,  
Muqaddas tosh-tuprog‘i, seryulduz osmonidan,  
Karvon o‘z sarbonidan, bola soyabonidan,  
Qumri o‘z gulshanidan, qunduz Zarafshonidan,  
Ko‘nglimda armon yotar,  
Bebaxt, benazar misol<sup>1</sup>.

O‘zbek “elim, yurtim, bolam-chaqam, yo‘lim, karvonim” deydigan xalq. Har holda, necha asarlardan beri shunday bo‘lib kelgan. Bugun esa globalizm sharoitida tutimlar, ana’analar shiddat bilan o‘zgarishga yuz tutmoqdaki, bunday vaqtda xalqning kayfiyatida ham, dunyoqarashida ham, yashash tarzida ham jiddiy evrilishlar sodir bo‘ldi, bo‘lmoqda. Hozir, ayniqsa, yoshlar orasida “qaerda senga yaxshi bo‘lsa, o‘sha yer sening Vataningdir” degandek yangi tushunchalar tug‘ilib ulgurgan. Lekin “aslida qanday edi?” degan savolga xalq og‘zaki ijodi bulog‘idan suv ichgan To‘ra Sulaymon she’rlarida tayinli javob bor. U aytadiki, o‘z oshyonidan, muqaddas tosh-tuprog‘idan, karvonidan, soyabonidan, gulshani va daryosidan ayrilish bitmas-tuganmas armonga yo‘l ochadi. Ya’ni adabiyot xalq hayotining, o‘tmishi va bugunining ko‘zgusi ekan, unga boqib, kelajak haqida fikr

<sup>1</sup> Сулаймон Т. Сенсиз ёлғиз, ғариб бўлдим... Тошкент: “Мовароуннахр”, 2013. Б.176.

yuritish, elning qaerdan kelib, qay manzilga yo'l olganidan so'zlash mumkin bo'ladi. Boshqacha aytganda, el shoiri ildizni aniq-tiniq ko'rsatib bergan, lekin shoxlarning qaysi tomonga qarab o'sishi endi ko'proq tirik avlodlarga bog'liqdir.

T.Sulaymon she'riyatining tematik diapazoni keng, rang-barangdir. Vatan, yurt, el, an'analarga sodiqlik, yor, hijron, ayriliq, armon, yoshlik, keksalik, umrning shoshqaloqligi, tabiat, ota-ona, bobo-momo, o'tmish, kelajak, baxshi, o'lan, qo'shiq kabilar shoir she'rlarining doimiy mavzulari. Shuningdek, T. Sulaymon uslubi ham o'ziga xos bo'lib, u qarshilantirishlardan mo'l-ko'l foydalanadi: bahorni kuzga, bog'ni vayronaga, vatanparvarni vatangadoga, bolalikni keksalikka qiyos etib, ajoyib tazodli she'rlar bitadi:

Essiz, bolalikni qoldirib ortda

Umr o'tmoqdadir daryo misoli.

Qoldirib-qoldirmay iz bu hayotda

Umr o'tmoqdadir daryo misoli<sup>1</sup>.

She'rda bolalikning ortda qolib ketayotganidan, umrning o'tkinchiligidan, o'tkinchi umrda o'zidan yodgor – iz qoldirib yo qoldirmayotganidan tug'ilgan cho'ng bir armon suvrati chiziladi. Shuningdek, bolalik bilan keksalik antonimlari bir-biriga qarama-qarshi qo'yilib, keksalikda bolalikning qaytadan tug'ilayotgani, ya'ni bani odam qarib borar ekan, fe'lida bolalikning qaytalanishi badiiy san'at – ta'zodni vujudga keltirgan:

Keksalik mo'ralab eshik qoqmoqda,

Bolalik qaytadan qaytarilmoqda...

Bizdan erta kunga nelar qolmoqda?


Umr o'tmoqdadir, umr o'tmoqda<sup>2</sup>.

O'zaro zid tushunchalarni qiyoslab, ularni parallel rivojlantirish asosida badiiy niyatni ro'yobga chiqarish ham she'r mazmunining ta'sirchanlik darajasini oshirib, ifoda soddaligini ta'minlagan, deyish mumkin. Zero, soddalik tildagina (ya'ni tushunilishi oson so'zlar yig'indisidagina) emas, balki g'oyaning o'zida, uni ifodalash usullarida ham aks etadi.

---

<sup>1</sup> Сулаймон Т. Сенсиз ёлғиз, ғариб бўлдим... – Тошкент: “Мовароуннахр”, 2013. Б.191. Б.136.

<sup>2</sup> Ўша манба.Б.137.



T. Sulaymon nafaqat xalq og‘zaki ijodi namunalariga suyanib folklorizm namunalarini yaratadi, ayni paytda, sevib o‘qiladigan shoirlarimizning shohbaytlarini ham epigraf sifatida tanlab olib she‘rlar bitadi. Bu bejiz emas, bu yerda shohbaytlarning o‘quvchi qalbiga ta’sir darajasi hisobga olinadi. Ya’ni xalqona ruhli shoirlar “san’at san’at uchun” emas, balki xalq uchun, o‘quvchi uchun degan shiordan kelib chiqib qalam tebratishadi. Bas, shunday ekan, aytish joizki, mashhur misralarga murojaat qilish va ular yordamida o‘z ko‘ngillaridagini to‘kib solish bunday shoirlar ijodida adabiy priyom darajasiga ko‘tarilgan. Chunonchi: T. Sulaymon

“Majnuntol” she’rida Mirtemirning “Majnuntol tagiga o‘tqazing meni” (62-bet), H.Olimjonning “Ishim bordir o‘sha ohuda” she’rida (66-bet), “Do‘mbiram” she’rida yana H.Olimjonning “Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi manda”, “Men ham” she’rida Zulfiyaning “Safardan bir nafas tinmas karvonman” (143-bet), “Morguzar” she’rida tag‘in H.Olimjonning “Qoyalarda asrlilik doston, Daralarda oppoq, mangu qor” misralarini epigraf qilib keltirib yoki she’r ichida qo‘llab, shuningdek, “Bulbul nolasi” she’rida A.Navoiy ruboiysidagi “Oltin qafas”, “qizil gul” (164- bet) iboralariga murojaat qilib, ular ma’nosini matnga “yedirib” yuboradi. Ya’ni shoir ayrim she’rlarida original, tesha tegmagan ifodalar yaratishdan ko‘ra o‘quvchiga o‘z badiiy niyatini ta’sirchan yetkazish ustida ko‘proq qayg‘uradi. Shuning uchun ham, avvalo, bitik ifodalarining sodda, tushunarli bo‘lishiga e’tibor qaratadi, qolaversa, bunday tayyor “qolip”lar boshqa shoirlarda uchrab qolsa, ikkilanib o‘tirmay shartta ularni qo‘llaydi. Ta’kidlanganidek, bu yerda maqsad “san’at san’at uchun” emas, balki o‘quvchiga ta’sir qilib, uning e’tiboriga she’r g‘oyasini maksimal darajada yetkazishdir.

Ot o‘yini qirq yilda bir bor,

It o‘yini esa har qishda.

Birda otning holi tangu tor,


Itlar esa alqov, olqishda<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Сулаймон Т. Сенсиз ёлғиз, ғариб бўлдим... – Тошкент: “Мовароуннахр”, 2013. Б.117.

Elda “Ko‘za sindirgan azizu suv keltirgan xoru zor” degan maqol bor. Shu maqolning ma‘nosi “Birda otning holi tangu tor, Itlar esa alqov, olqishda” degan qo‘sh misrada folklorizatsiya qilingan.

Ot o‘limi avval azaldan

Bo‘la kelgan itning bayrami<sup>1</sup>.



She'r shu tarzda rivojlantiriladi. Avvalgi bandda “ot xizmat qiladiyu qadr topmaydi, aksincha, itlar olqishu maqtovdan” deyilgandi. Keyingi bandning ilk qo‘shmisrasida esa ma‘no rivojlantirilib, “hatto ot o‘lganda ham itlar bayram qiladi, chunki o‘lgan otning eti itlar uchun yemish, ovqat”, deyilmoqda. Bu qadimdan kelayotgan hayotiy falsafa bo‘lib, xalq maqollarida o‘z ifodasini topganidan ham bilinib turibdi. Xuddi shu ma‘noni aytish kerak bo‘lganda, shoir birinchi bandda o‘z shaklini (“Birda otning holi tangu tor, Itlar esa alqov, olqishda”) o‘quvchiga taklif etgani holda, ikkinchi bandda xalq maqolini deyarli aynan takrorlaydi (“Otning o‘limi – itning bayrami” degan xalq maqoli “Ot o‘limi avval-azaldan

Bo‘la kelgan itning bayrami” sifatida taqdim etilgan). Maqsad yana o‘sha – ma‘noni o‘quvchiga maksimal tarzda ta’sirli qilib yetkazish. Bunday ta’sirga esa ifoda soddaligi orqaligina erishish mumkindir. Xalq maqollari, qo‘shiqlari va boshqa aytimlari ana shu soddalikning oliy ko‘rinishi hisoblanadi. Zero, asrlar shamoli sayqalida folklor mahsulidagi ortiqcha bezaklar, g‘adir-budurliklar tekislanib ketadi, natijada aytilmoqchi bo‘lgan ma‘no o‘zining eng siqiq, eng sodda, eng ko‘rkam ko‘rinishini oladi. Xalqona usulda ijod qiladigan ijodkorlarning maqsadi ham ana shu shaklga imkon qadar yaqinlashish bo‘lib, mazkur usul ularning barchasiga xosdir. Chunonchi, kamina ancha yillar burun shoir M. Yusuf she’riyati to‘g‘risidagi “Qismati – shoirliqi, shoirliqi – qismati”

<sup>1</sup> Ўша манба.Б.118.

nomli maqolasida shunday yozgan edi: “M. Yusuf bunday yuksak soddalikka qanday erishdi ekan?” degan savol meni hamisha o‘ylatib kelgan. O‘zimcha muayyan javoblarni topganman ham. Avvalo, shoir o‘z dardini xalq ichida ko‘pincha tayyor qolipga aylangan badiiy nutq shakllari yordamida ifoda etadi. Ya’ni o‘zbekona nutq shakllarini sindirib, nazmiy qilishga deyarli urinmaydi u, balki aksar holda, aynan oladi. Bu esa she’rning odamlar qalbiyu ongiga tez singib ketishiga olib kelgan asosiy sabablardan bittasi. Qolaversa, ko‘ngli g‘amga to‘lgan insonning yig‘isi qanchalar samimiy va haqqoniy bo‘lsa, M. Yusuf she’riyati ham shoir qalbining ana shunday zo‘riqishsiz nidosi bo‘lib dunyoga keladi. Chin dildan quvongan kishining sevinchlarida qanchalik bola beg‘uborligi va tabiiyligi bo‘lsa, mazkur she’riyat ham ana shunday soflikka chulg‘angandir. Bu esa tashqaridangina oson ko‘rinadi. Aslida, yuksak va teran ma’nolar ifodasiga xizmat qilgan soddalik hamma murakkabliklardan balandda turadi. Chunki bunday she’rlarni birgina istak bilan yaratib bo‘lmaydi: “Padarkushdan pana qilib Ulug‘beking quchgayman...”. Ha, murakkab va ziddiyatli hayot haqida bu darajadagi shaffof soddalik bilan yozish uchun shoir faqat va faqat yuksalishi kerak bo‘ladi, tushishi emas! O‘zbek xalq og‘zaki ijodi – folklorni, mumtoz she’riyatimizning ulug‘ vakillari – Bobur, Mashrab ijodini eslasak, aytmoqchi bo‘lgan muddaomiz yanada oydinlashadi”<sup>1</sup>.

T.Sulaymondan o‘qiymiz:

Izlay-izlay horib bo‘ldim, sensiz yolg‘iz, g‘arib bo‘ldim,

Endi bosgan izlaringni to‘rt tomondan topolmasman.

Toliqib ham tolib bo‘ldim, qirqqa kirmay qarib bo‘ldim,

Laylu nahor seni izlab yer-osmondan topolmasman<sup>2</sup>.

Bu bandda xalq orasida turg‘unlashib qolgan bir necha iboralar bor: “to‘rt tomondan topolmasman”, “qirqqa kirmay qarib bo‘ldim”, “laylu nahor” (ertayu kech, kecha-kunduz ma’nolarida), “yer-osmondan topolmasman”. Mazkur iboralar xalq xotirasida, demakki, faol she’rxon hofizasida klishe – qolip sifatida yashaydi. Ular o‘ziga xos kodlarga o‘xshaydi hamda she’rdagi turg‘un iboralar mazkur kodlarga mos tushishi bilan xotira uyg‘onadi, assotsiya jarayoni boshlanadi. Jarayon xuddi ovoz kuchaytirgich vazifasini ado etadi. Natijada, she’r ma’nosi kuchayib, harakat keladi. Bas, xalqona tilda yaxshi she’rlar bituvchi shoirlar shuning uchun ham xalq orasida mashhuru dostondirlar. Ular uzatgan

<sup>1</sup> Хамдамов У. Рухни уйғотувчи сўз. – Тошкент: “Турон замин зиё”, 2017. Б.121.

<sup>2</sup> Сулаймон Т. Сенсиъ ёлғиз, ғариб бўлдим... – Тошкент: “Мовароуннахр”, 2013. Б.191.

she'r shaklidagi impulsni qabul qilib oluvchi retseptorlar xalq xotirasida mavjud. Yangi yo'ldan yuruvchi, yangi yo'llar ochuvchi ijodkorlarda bunday imtiyoz deyarli yo'q. Shuning uchun ham yo'l boshida ularga ancha-muncha qiyin bo'ladi. "She'ringizni tushuntirib bering" qabilidagi maqolalar yoziladi.

Xalqona ruhdagi she'riyatda, odatda, badiiy ma'no shunchalar aniq anglab yetiladiki, natijada uning ifodasi ham favqulodda sodda, tiniq va tushunarli qiyofa kasb etadi. Buning uchun shoir ma'noning og'ir yuki ostida qolib ketmasligi kerak, bil'aks, uni anchayin yuqoridan turib kuzatish imkoniga ega bo'lmog'i lozim. Yo'qsa, uslub, til, ifoda chaplashib, ma'no xira tortadi.

Xalqchilligi, musiqiyliigi, tig'iz folklorizmi va turg'unlashgan iboralarga boyligi, sodda ifodasi bir tomonda, boshqa tomonda, bularning bari zimnida – xalqning dardi, kayfiyati ufurib turgani bois ham shoir T. Sulaymon she'rlari el aro sevib o'qiladi. Bitiklarning ko'pdan ko'p qo'shiqlarga aylanganligining tub sabablarini ham shu yerdan qidirmoq kerak. Nafsilamrini aytganda, T.Sulaymon kabi shoirlarning eng yaxshi bitiklari avvalboshdanoq qo'shiq bo'lib dunyoga keladi. Shoir o'z she'rlarini "o'lanlarim, termalarim" deya bejiz erkalamagan. O'lan va termalar, ayni damda, qo'shiqlardir. Zero, ular ko'pincha ijroga mo'ljallangan bo'lib, baxshilar tomonidan aytiladi. Shoirning baxshichilikka, baxshilarga alohida muhabbati, yaqinligi, o'zini mudom baxshilar sinovidagi shoir deb bilishining zaminida ham katta ma'no bor:

Mezbonlar yo'qlovi – so'rog'idaman –

Tog'oshar baxshining sinog'idaman...<sup>1</sup>

Shuningdek, shoir o'langa, umuman, xalq og'zaki ijodiga yaqinlikni o'lmaslikka ishora deb biladi. Chunki xalq hayoti yakka shaxs umriga qiyos qilinganda mangudir: "O'lmaslikka ishora – o'langa oshiqligim"<sup>2</sup>

So'z yakunida yana bir fikrni alohida ta'kidlab aytishni istardimki, To'ra Sulaymon kabi shoirlar botinida xalq ruhi bilan sug'orilgan turli xil ohanglar yashaydi. Ohang borki, demak, uning o'z shakli bor. Xuddi aruz bahlari kabi. Har bir bahrning o'z shakli, har shaklning o'z ohangi bo'lgani kabi, turkona – xalqona usulda she'r bitgich shoirlarimizning ham asrdan asrga o'tib kelayotgan xuddi shunday rango-rang shakl va ohanglari mavjud. Ba'zan mavzu, dard ohangni yetaklab kelsa, ba'zan ohangning o'zi she'rga doyalik qiladi. Bu esa, yana bir alohida tadqiqot mavzusidir.

<sup>1</sup> Сулаймон Т. Сенсиз ёлғиз, ғариб бўлдим... – Тошкент: Мовароуннахр, 2013. Б.97.

<sup>2</sup> Сулаймон Т. Сенсиз ёлғиз, ғариб бўлдим... – Тошкент: Мовароуннахр, 2013. Б.135.

## FILOLOGIYA

### SHOIRNING REJASI BITTA: ENG YAXSHI SHE’RINI YOZISH!



**Guljamol Asqarova**



**Anvar  
ALLAMBERGENOV**

*O‘zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyeva hayoti va ijodi xususida tadqiqotchi Anvar Allambergenov va shoira Guljamol Asqaorva suhbat*

**Anvar Allambergenov:** Halima Xudoyberdiyeva kimlarning ijodidan ta’sirlangan va o‘z navbatida qaysi ijodkorlar undan ilhomlangan?

**Guljamol Asqarova:** Men 15 yillar o‘smirligi yoshligimda xayolan, 22 yil yonida yurib bilganim aziz ustozim Halima Xudoyberdiyeva asli qon-qoni bilan shoir bo‘lib yaralgan deb o‘ylayman. Ota tarafdin Tilla momo, ona tarafdin Oltin momolar haqida gapirib berganlarida har ikkalasi ham baxshilikdan xabardor, Mashrablaru Huvaydolardan xirgoyi qilib yuradigan ta’bi nazmi bor ayollar bo‘lganini bilib olganman. Va Halimai jahonimizni boyovutliklar “Halima tilla bilan oltinni (Tilla momo va Oltin momo nazarda tutilmoqda) qorishmasi” deyishar ekan. Qarang, taqdirda kelgani boshqachada baribir. Halima opam Moskvada Oliy adabiyot

kursida saboq olganlari bois mumtoz adabiyotimiz bilan birga jahon adabiyotiniy ham sevardilar Hazrati Rumi bobomizni, Bedil, Mashrab, Navoiy bobolaru Zebinisobegim va Nodirabegim, Jahon otin Uvaysiy momolarimizning g‘azallarini yod aytardilar. Rus she’riyatini yaxshi bilardilar. Pushkin, Lermontov, Yesenin, Yevtushenko, Axmatova, Svetayevalardan ta’sirlanganlarini aytganlar. “Umrimning eng yaxshi va yorug‘ lahzalari Moskvada o‘qigan yillarim edi” deb ko‘p takrorlar edilar.

Biroq, Halima opam ko‘pincha suhbatlarimizda “Ish, lavozim va hayotiy tashvishlar, kasalliklar meni ko‘p chalg‘itdi, kitobdan bosh ko‘tarmasdim yoshligimda, hozirda kam o‘qiyapman-da, savodni oshiraylik, qizaloq” deb qo‘yardilar. Biz birgalashib o‘qigan kitoblar bor, ya’ni ikkovimiz bir paytda o‘qib

ta'sirlarimizni o'rtoqlashdik. Radiy Fishning "Jaloliddin Rumi" asarini 1998-1999-yillarda birga o'qigan edik va Toshkentdagi Anhor bo'yida o'tirib ikkovimiz muhokama qilardik. Ehh, qanday shukuhli kunlar edi-ya...

Halima Xudoyberdiyeva kabi ulkan ijodkorlarning ta'sir doirasi keng bo'ladi, ular ko'plarni "zaryadlay" (quvvat bag'ishlash ma'nosida) oladilar. Shu ma'noda Halima opamdan ta'sirlanganlarni sanaydigan bo'lsak, ro'yxat uzun bo'ladi.

Yana bir narsani ta'kidlashim o'rinli deb o'ylayman. Davrimiz ijodkorlari orasida o'zidan keyingi avlodning nafaqat ijodiga, balki hayot tarzi yaxshilanishiga eng ko'p hissa qo'shgan ijodkor bu Halima Xudoyberdiyevadir. Opaning aralashuvi bilan o'sha paytda o'nlab ijodkorlar uy-joyli bo'lganlar, lavozimga erishganlar. Halima opam ham shoir sifatida, ham o'z davrining jamoat va davlat arbobi sifatida insoniylikning namunalarini ko'rsata olgan ijodkordir va shoirning dunyoga qiladigan yaxshiligi ham shu deb o'ylayman.

**Anvar Allambergenov:** Ustoz mumtoz adabiyotimiz vakillaridan qaysi biriga ruhdosh edi, qaysidir ma'noda taqdirdosh edi?

**Guljamol Asqarova:** Ruhdoshlik va taqdirdoshlikni umumiy ma'noda shoir taqdiri oson kechmasligi bilan izohlash mumkin. Qaysi asl shoir "yallama yorim yalloa"ni kuylab o'tgan, qaysi shoir faqat baxt qo'shiqlarini baralla aytib o'tgan? Hech biri! Shu ma'noda Anna Axmatovanning "Hamma ketdi, hech kim qaytib kelmadi" deb boshlanuvchi dahshatli she'ri yodimga tushadi doim shoirlik taqdiri haqida o'ylasam. Halima opam bilan toza havoda aylanib yurganlarimizda Axmatovanning "...Meni ayirdilar yolg'iz o'g'limdan, bandi do'stlaringa berdilar azob, xato topdilar har aytgan so'zimdani, har bir qadamimni yetkazdi kazzob" degan satrlarini o'qib bersam, "Otasi qamoqda payti shu Anhor bo'yicha yursak ham ortimizda anov tashkilotning odami soyadek ergashib yurardi" degan gaplarini eslayman.

Axmatova o'sha she'rining so'nggini dahshatli tugatgan: ...Va so'nggi nuqtaga yetganda yo'lim, Dedilar yashayver ey baxti qaro. Endi kezurman men shaharlik dalli, O'lim nafasi bor maydonlar aro" deydi. Halima opam ham shu kabi taqdirni yashadi.

Halima opamni o'sha 1994-yillardan keyin yozilgan va uzoq vaqt ta'qiqda bo'lgan bir qator she'rlarini biz 2017-yil Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlaganlaridan keyin "Osoyishta sham" degan kitobga jamladik. Ustoz ikkalamiz shu kitobni tayyorlagan paytlarimiz ham bir

davrlar ekan. Eshlasam entikaman, sog'inaman. Shu kitobdagi "Dahshatli yoz" turkumiga Halima Xudoyberdiyeva shunday izoh yozgandilar:

*Nega o'sha yoz dahshatli edi?..*

*Negaki, o'sha yozda oilamizning qahraton sovuqlaridan battar kunlari boshlangan edi. Rus shoirasi Anna Axmatova tili bilan aytganda «...uyimiz la'natlangan, ishimiz toptalgan» kunlarning boshi o'sha yozda edi... Biz bu yozda goh izg'irindan, sovuq nigohlar, sovuq xabarlardan muzlaganmiz, goh tuhmatning qozonlarida qovurilganmiz. Umr yo'ldoshim — bolalarimning otasi qamoqda... Bolalarim azobda, ro'zg'orim parishon... O'zim qamoq eshiklarida... O'zim hayron, o'zim giryonu nolon, o'zim vayron edim o'shanda... Bu turkum o'sha kunlarning chil-chil singan oyna kabi sochilib yotgan suvratlari... O'sha dahshatli yozning qamchidek olovli tillarining butun borlig'imda qolgan izlaridir...*

*Mana o'sha turkumdagi dahshatli she'rlardan biri:*

### **XATO KETDIM MEN**

*Poklayman deb dunyoni*

*Kirlanib bitdim o'zim.*

*Abdulla To'qay*

Kulgan men emasman. Menmas yig'lagan —

Sim-sim sirqiragan sato, ketdim men.

Moziy qa'rlaridan inju yig'magan —

Bugunga sig'magan sado, ketdim men.

Goh tikan ko'klarkan gulzorlarida,

Ko'nglim yerga kirdi ozorlaridan —

Kir-chir qo'llar tegib bozorlarida,

Ohori to'kilgan mato, ketdim men.

Paydo. Shaydo edim. Nopoyt<sup>1</sup> ayladilar,  
Bargu xazonimdan bayt ayladilar,  
Jayronday jonimni sayd ayladilar,  
Jonim sayyodlarga ato ketdim men.

Dunyoga nurli yo‘l solmoqchi edim,  
Bandi bo‘ldim. Garchandki soqchi edim,  
Dunyo dog‘ini ketkazmoqchi edim,  
O‘zimga dog‘ tegdi. Xato ketdim men.

Kulgan men emasman. Menmas yig‘lagan...

05.04.1997

Mana shu she’rda Halima Xudoyberdiyeva Axmatovaga, Svetayevaga va azobli taqdir sohibi bo‘lgan shoirlarga taqdirdosh, ruhdosh emasmilar!? Halima opam ko‘pchilik o‘ylagandan va anglagandan ko‘ra iztirobli hayotni kechirdi. Shu bois ham “Tashim xiromonu, ichkarimda dod”, “Ich-ichida yo‘lbars o‘kirib, sirtidan mayin jilmaygan ayol” kabi azobli satrlar to‘kildi qalamlaridan. Alloh ruhlarini shod aylasin!

**Anvar Allambergenov:** Ardoqlim, buyugim deb e’tirof etadiganingiz Halima Xudoyberdiyevadan nimalar oldingiz va nimalar olishga ulgurolmadingiz?

**Guljamol Asqarova:** Hayot sururini, falsafasini, she’r shavqini, ruhimni boyitgan go‘zal fazilatlarini, odamiy mehrni, olamlar hikmatlarini oldim! Ruhimga yuqtirish “payida” bo‘ldim. O‘zlari aytganlaridek, “Biz ustozlardan yorug‘lik, yorug‘ oldik”. Halima opamning sokin turishiday ham olam-olam hikmat mujassam edi, shoshmasligi, vazminligi va viqoriga ta’rif yetmasdi. Xotirjam va ko‘ngilparvar edilar. Bir holatlardan asabiy bo‘lsam, “Bolam, qani beparvo bo‘lamiz” deb hazil qilardilar. “Beparvoroq bo‘lmasang, kasal bo‘lasan xolos, o‘zingni asra” derdilar. Chunki o‘zlari o‘zlarini asramay, jonu jahonlarini she’r yo‘lida azoblab yashagan edi ustozim.

---

<sup>1</sup> Нопойт — ўлдирдилар.

Halima opam dengiz edilar, men Rumiylar ta'bir bilan aytganda “suvni dengizning o'zidan ichib ulg'aydim”. Shukrlarim ko'p.

Umlari uzoq bo'lganda edi deyman, to'yib bo'lmas suhbatlar bo'lardi. Hozir dunyo bo'm-bo'sh...Chunki ko'p azizlarim bu dunyoni tark etdilar...



**Anvar Allambergenov:**

Adabiyotshunosligimizda halimashunoslik qanday darajada deb o'ylaysiz? Yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, Halima Xudoyberdiyeva ijodi o'zining mukammal tadqiqini topdimi?

**Guljamol Asqarova:**

Men o'zimni “halimashunos” derdim. Halima opam ham o'zlarini she'rlarini o'zlaridan ko'p yod bilishimdan hayratlanardilar. Halima Xudoyberdiyeva ijodi ham ko'p tadqiqotlarga manba bo'la oladi. Men bir-ikki holatlarda ilmiy ishlar qilinganini bilaman, biroq yanayam mukammalroq yondoshuvli ilmiy

qarashlar zarur, deb o'ylayman. Biz Shekspir sonetlaridan hayratlanamiz. Albatta bu sonetlardagi achchiq haqiqatlar bor. Shekspir: “..chidab turolmayman, qadr va qimmat tilanchilik qilsa yo'llarda agar...soddalik ustidan kulsa fisq, fujur, g'iybat...tubanlik bo'yniga taqilsa siymu zar, nohaq jazolansa barkamollik ham...sharmandalik hurmat ko'rsa damba-dam...kuchlilarni zaiflar chiqarsa ishdan...to'g'rilik yuziga tupurishsalar...ahmoqlik Payg'ambar robini kiysa...hasad ilhom tilin tiyib qo'ysa shart...haqiqat bo'htonning xizmatini qilsa...” deydi. Lekin Halima Xudoyberdiyevada dunyoning sharafsizligi, chirkin jihatlari, adolatsizliklar ham shu darajada ochib berilgan. Biroq siz aytgandek, bu she'rlar o'z tadqiqini topganicha yo'q. Mana shunday she'rlardan bittasi:



### MASHRABNING AYTGANI

Bilmam qaydan boshlab, qaydan qaytdim men,  
Bu gal Mashrab aytganini aytdim men.

Ayonsan, noayon aylaydi dunyo,  
Bilmam, uvolingni naylaydi dunyo.  
Imonni fitna ko'lida cho'ktirib,  
Imonsizga belbog' boylaydi dunyo!

Sutingdan qaymog'ing betini olib,  
Suyaging qoldirib, etingni olib,  
Ruh taningdan ishqing, o'tingni olib,  
Unga yaxna muzni joylaydi dunyo!

O'g'rilar-ku ko'p izzatli arboblari,  
Egnidagi choponlari zarboplar,  
Ular yayrab o'zin oftobda toblar,  
Ular qolib seni poylaydi dunyo!

Savodsizu ulamoni o'qitib,  
Zarli, zo'rlilarni uchar o'q etib,  
Haq deganni yuzi bilan yiqitib,  
O'z gunohin o'zi toylaydi dunyo!

Mo'min zotning boshin qo'yib xatarga,  
Parvoz berib kapalakmijoz g'arga,  
Suringanni qulatib chuqur jarga,  
Og'zi moyini tag'in moylaydi dunyo!

Jaras<sup>1</sup>larning sasin tindira borib,  
Zulm etib, faryod undira borib,  
Tik qadlarni bukib, sindira borib,  
Bir kun o‘z qaddini yoylaydi dunyo!

Intiqom bor, ko‘za sinar, but ketib,  
Bir kun boshdin oyog‘iga dud ketib,  
Bir do‘zaxiy olov ketib, o‘t ketib,  
O‘z ko‘z yoshin o‘zi soylaydi dunyo!

Ayonsan, noayon aylaydi dunyo,  
Bilmam, uvolingni naylaydi dunyo!

01.02.1996

**Anvar Allambergenov:** Yosh shoiralardan kimlarning ijodida Halima Xudoyberdiyevaga ergashishni va an‘analarini ko‘rasiz?

**Guljamol Asqarova:** Halimai jahonimiz she‘riyatda maktab yaratish baxtiga musharraf bo‘lgan ijodkor hisoblanadi. Unga havas qilib she‘r yo‘liga kirgan va yoki uning she‘riyatini mezon qilgan yoshlar ko‘p. Ergashish bu ustozni izidan ketib o‘z izini yo‘qotib yuborish degani emas. Sharqda hech bir yo‘lga ustozsiz, uning duosisiz kirilmaydi. Hech kimga taqlid qilmay, suyanmay o‘zi yo‘l solish baxti daholargagina nasib etadi. Taqlidning aynani yomon, lekin taqlid yo‘rgagidan chiqib o‘z aytar so‘zini topish baxti ham bor gap. Shu ma’noda Halima opaga aynan ergashishni ko‘p hollarda ko‘raman, lekin adabiyotning ulkan osmonida yop-yorug‘ yulduz bo‘lish baxti hammaqayam nasib qilganini kam ko‘rganman. Muhimi esa, odamlarni qalbiga she‘rni, uning go‘zal ta‘sirini olib kirishda Halima opaning “Onaginam”, “Muqaddas ayol”, “Dunyo”, “Bilmam adashdimmi”, “Turkning ko‘zi” va shu kabi mashhur she‘rlarining hissasi ulkan.

Halima opa 70-80-yillar avlodining ayol ijodkorlari orasida alohida sanaladigan shoir va she‘riyatda ruhni yangilay olgan ijodkor. Bu borada

---

<sup>1</sup> Жарас — қўнғироқ.

adabiyotshunos olim To‘xtasin Jalolovning “O‘zbek shoirlari” kitobida juda yaxshi izoh berilgan. O‘sha izohda “Halima mudrab yotgan ayollar she’riyati olamiga bo‘rondek kirib keldi” degan ma’nodagi fikr aytilgan edi. Va meningcha ham bu fikr o‘z o‘rnida berilgan to‘g‘ri baho edi!

**Anvar Allambergenov:** Ustozning ustozlari hamda shogirdlari haqida ham to‘xtalsangiz?

**Guljamol Asqarova:** Ustozim deb avvalo kitobni va hayotni aytardilar. Keyin Zulfiyaxonim Isroilovanning ham Halima opa taqdiridagi o‘rni xotiralarda, maqolalarda ko‘p o‘qiganmiz. Shuningdek, Sharof Rashidovning ijodga bo‘lgan mehridan Halima opam ko‘p bahramand bo‘lganlar. Odamga yaxshilik qilgan insonlar ham ustozlik qilgandek gap aslida.

Halima opam ko‘p suhbatlarimizda sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To‘xtaboyevni e’tirof etgandilar. Eski davrlarda, adashmasam 85-yillardamikan, Halima opamni ishdan olish maqsadida shaxsiy hayotini muhokama qilish uchun uyushtirilgan navbatdagi fitna majlisida ming‘ir-ming‘ir gaplar aytilganda ustoz Xudoyberdi To‘xtaboev “Menga qaranglar, Halima yaxshi shoirmi? She’rlari zo‘rmi?. Halima bu lavozimida ijodi sabab turibdi, qo‘yinglar endi hadeb taqdiriga yopishavermanglar”, degan ekanlar. Ana shunday haqiqatparvar odamlarniyam Halima opam o‘ziga ustoz deb bilardilar.

Shogirdlariga kelsak, Eshqobil Shukur va Salim Ashurni ayrica mehr bilan yaxshi ko‘rardilar, Dilfuza Shomalikovani, Zebo Mirzayevani, Qo‘chqor Norqobilni, Hayot Shodmonni yaqin olardilar. Aslida yaxshi ijodkorlarning barchasi Halima opamni ustoz deb biladilar. Bizning avlod ichida Gulnoz Mo‘minova, Iqbol Qo‘shshaevaga mehrlari ayrica edi. Meni esa Xudoga shukrkim, o‘zingiz bilganingizdek, “Guljamol nafaqat shogirdim, balki farzandlarim qatorida farzandim” deb e’tirof etganlar. Shu onamdan va ustozimdan olgan mehr taftining o‘zi o‘lgunimcha yetadi inshaaloh.

**Anvar Allambergenov:** Ustozning so‘nggi kunlari haqida aytib bersangiz, uning qanday ijodiy rejalari bor edi?



**Guljamol Asqarova:** Halima opam ko‘p xasta bo‘ldilar. O‘tgan og‘ir yillar uning sog‘ligiga ko‘p ta‘sir qilgandi. Shukrki, 2017-yil orden bilan taqdirlanganlarida qancha odamlar ustozning xonadoniga yog‘ilib kelgani, qo‘ng‘iroqlar qilib tabriklaganlariga guvoh bo‘lganman. Halima opam ancha kuchga kirgandilar, asosan yonlarida bo‘lgan o‘sha kunlarni bir kitob qilish niyatim bor. Xotiralarni yozaman nasib etsa.

O‘lim haqida ko‘p gaplashgan bo‘lsak-da, Halima opam heyotsevar, yorug‘ inson bo‘lganlari uchun hali ko‘p umidlarimiz bor edi. “Hali yer ustidamiz, qadamlarimizdan shamol o‘tib turibdi, hali hammasi bundan-da yaxshi bo‘ladi” derdilar. Meni ko‘p duo qildilar. Eslasam, yuragim oqib ketadi. Qanday ayollar o‘tib ketdi-ya...Endi takrori yo‘q, afsuski...

Shoirning eng katta, eng yangi, eng eski orzusiyo rejasi bitta bo‘ladi: Eng yaxshi she‘rini yozish! Bu orzu Halima opamdayam bor edi. Afsus, avvalo xastalik, keyin o‘lim chorasiz qoldirdi...

Ustozimning manzil-makonlari obod bo‘lsin!

## FILOLOGIYA

### ALI ASKARNING MEROJI

(tosh parchasi haqida falsafiy esse)



**Ilg'or FAXMIY,  
Ozarbayjon  
Respublikasi**

Esimda bor: Oshiq Ali Askarga (1821-1926) nisbatan hech qachon bir xil munosabat bo'lmagan. Kimdir uni oddiy xalqning sevimlisi, har doim xalq bilan yonma-yon bo'lgan, el-yurtning go'zalliklarini madh etgan xalq san'ati vakili sifatida qabul qilgan bo'lsa, yana kimdir uni katta ilm-irfon egasi, o'z ma'naviy yuksalishida avliyo darajasiga ko'tarila olgan Haq oshiqdari qatorida ko'rib, uning qo'shiqlaridagi tasvirlarda so'fiy ramzlarini izlagan (haqiqat, odatdagidek, har doim “oltin o'rtalik”da bo'ladi).


Taqdir taqozosi bilan Oshiq Ali Askarning o'tgan oyda barpo etilgan haykaliga ham munosabat xuddi shunday – ya'ni ikki xil va qarama-qarshi bo'ldi.

Haykalning fotosuratlarini ko'rganimda, ayrim jihatlar men uchun qiziq

tuyuldi. Chunki uni ko'rishim bilanoq haykal realistik uslubda ishlangan emasligini angladim. Sevinib ketdim. Chunki sovet davridan qolgan realizmdan yetarlicha charchagan edik. Ko'zlarimiz biror yangi va o'ziga xos obraz ko'rishni xohlaydi.

Qolaversa, realistik san'at asari kerak bo'lsa, uni oddiy haykaltarosh yasasa bo'lardi, lekin xalq rassomi Natig Aliyevdek taniqli rassomning loyihasi qabul qilinmasdi.

Qayd etishim joizki, bundan o'n yillar avval Natig Aliyev va Rahib Hasanov tayyorlagan “Aliog'a Vohid



haykali” hech qanday so‘zsiz qabul qilinmagani ham birmuncha munozaralarga sabab bo‘lgandi. Kimlardir bu haykalni Vohidning butun hayoti, qalbi va ijodini aks ettiruvchi san’at asari deb hisoblasa, boshqalar hech narsani tushunmay, Vohidning sochlari orasidagi musiqa ijrochilariga qarab yelkalarini qisib qo‘yishgan. O‘shanda aruz vazni haqida endigina yoza boshlagan edik, adabiy yig‘inlarga borib, ustozlar o‘rtasida shu haykal haqida bahs-munozaralarga guvoh bo‘lgan edik.

Ko‘z o‘ngimda marhum san’atkorimiz, xizmat ko‘rsatgan rassom Odil Rustamovning bir kekxa g‘azalxonimizga bu haykalning mazmun-mohiyatini sabr-toqat bilan tushuntirayotgan manzarasi namoyon bo‘ldi.

Alasqar shaxsini kim qanday qabul qilishi uning shaxsiy ishi. Holbuki, bu yodgorlikda ko‘rganimiz xalq artisti Natig Aliyevning tasavvur va tafakkuridagi Oshiq Ali Askardir.

Suratlar meni qanchalik qiziqtirgan bo‘lsa ham, haykal oldida turganimda, suratlardan bu asar mohiyatining o‘n foizini ham his qilmaganimni angladim.

Ro‘paramdagi odam shunchaki bir xalq san’atkori emas, haqiqiy ma’noda Haq oshig‘i – ilm-u urfonning yuksak cho‘qqilariga ko‘tarilgan, avliyo, hatto payg‘ambar darajasiga yetgan Haq oshig‘i; o‘lmas satrlari qoyaga o‘yib bitilgan mangu ijodkor. Uning qo‘lidagi soz boshqa oshiqlar chaladigan oddiy cholg‘u emas. Hatto mening oldimdagi obraz ham, nazarimda, soz chalayotgani yo‘q... Bu “havo” sozidir. Xuddi havoda o‘ynab turgandek. U qanotlarini yoygan o‘ynoqi qushdek o‘z dunyosida edi. Oshiq Ali Askar esa, go‘yo, bu sho‘x, havo sozini sinchiklab o‘zlashtirishga harakat qiladi.

Toshdagi misralarni kuzatar ekanman, yozuvchining ta’kidlashicha, Oshiq Ali Askar so‘zlari xalqimiz xotirasida xuddi toshga bitilgandek muhrlanib qolgan va hech qachon o‘chmaydi, deb o‘yladim. Xuddi payg‘ambar so‘zlari kabi...

Payg‘ambarimizning asosiy mo‘jizalaridan biri nima edi? Albatta, Me’roj... Ha, asosiy fikrimga keldim.

Bu haykal oldida turganimda birdan g‘alati bir tuyg‘uni his qildim. Go‘yo Me’roj voqeasining boshlanishini kuzatayotgandek edim. Shunchaki, soz bu yerda Buroq (yorug‘likdan tug‘ilgan chaqmoq ot) obrazida ijro etadi. Go‘yo mashhur soz kuychalari ham inson ruhini ko‘taradigan, osmonga olib chiqadigan Buroq qanotlari...

Ehtimol, aynan shu Buroq nuri uning koʻzlarini kuydirishi mumkinligini bilgani uchun Oshiq Ali Askar yuzini boshqa tomonga burib, unga qaramaydi.

Uning sozni ushlab turgan qoʻllari ham menda butunlay boshqacha taassurot qoldirdi. Goʻyo soz oʻz-oʻzidan erkin, ozod bir mavjudot boʻlib, xuddi Buroq kabi koʻkda uchib, yettinchi qavatda kezib, goh-goh yerga tushib Oshiq Ali Askarning – bu Haq oshigʻining koʻksiga, yuragiga suyanadi, uning ruhi bilan muloqot qiladi va uni oʻzi bilan Merojga chiqishga chorlaydi, u bilan birga osmonga koʻtariladi.

Haykalga qarar ekanman, bu soz haqiqatan ham osmonga koʻtarilishga shay turgan Buroqni eslatdi. Bu soz donishmandni osmonlarga olib chiqadigan vosita. Oshiq Ali Askar ham ozgina ehtiyotkorlik, ozgina ishonch bilan bu Buroqni mahkam ushlab, u bilan birgalikda osmonga koʻtarilib, Tangri huzuriga yetib borsin, elning-yurtning dard-alamini, tortgan azoblarini, iztiroblarini Haq-taoloning huzurida bayon qilsin.

Ammo qoʻllari osmonlarga koʻtarilishga shay turgan sozda boʻlsa ham, Oshiq Ali Askarning koʻzi negadir osmonda emas, yerga qarab qadalgan. Goʻyo butun el-yurtning yuz yillik, ming yillik dardi, azobi, iztirobi uning qattiq chizgilarida va ayniqsa, koʻzlarida aks etgandek. Goʻyo bu dard va iztirobning ogʻirligi uning yerdan osongina uzilib, sozi bilan birga osmonning yettinchi qatlamiga koʻtarilishiga imkon bermayotgandek.

Oshiq Ali Askarning hayoti, xususan, soʻnggi oʻn yilliklar Ozarbayjonning eng ogʻir fojialari bilan yuzma-yuz kelgan qonli davrlarga toʻgʻri keladi (ikki asrning kesishishi, milliy mojarolar, arman fitnalari, bolshevik bosqini, yer yoʻqotishlar, shaxsiy oilaviy fojialar va h.k.).

Va men oʻylaymanki, asarning kompozitsiyasi Oshiq Ali Askar ruhining va hayotining asosiy kodini ochib bera olgan - badiiy til bilan aytganda, koʻzlari yerda (oʻz xalqida), qoʻllari esa osmonda (Xudoda) boʻlgan haqqa oshiq...

(Beixtiyor Qurʼondagi “Hammangiz Allohning arqonini mahkam ushlang...” oyati yodga tushadi).

U goʻyo yerda qolib, odamlarga gʻamxoʻrlik qilgisi keladi, ammo havodor musiqa uni koʻkka tortadi. U sozdan mahkam tutib, osmonga koʻtarilgisi keladi, lekin koʻzini xalqning dard-u musibatlaridan ajratolmaydi.

Oshiq Ali Askarning koʻkka (Alloh huzuriga) koʻtarilish uchun nafosat bilan soz (Buroq) tutgan qoʻllarida bir donishmand odamning, avliyoning kuch-qudrati bor, lekin uning yerga (odamlarga) qaragan koʻzlarida bir el oqsoqolining

mashaqqat va g'am-tashvishlari jamlangan. Shuningdek, nafaqat og'riq, balki g'alati bir uyalish hissi mavjud. Ha, bu toshga do'ngan qarashlar zamirida g'alati bir afsuslanish va xijolatni his qildim: Men Me'rojga ko'tarilib, el-yurtning dard-iztiroblarini Haq Taolo huzurida arz qilaman, lekin buning qanchalik foydasi bo'ladi, umuman, bo'ladimi, yo'qmi, bilmayman. Men yer bilan osmon o'rtasida osilib qolgan El oshig'i – Haq oshig'iman...

Men hatto unga taskin ham beraman: – Biz uchun tashvishlanma, sozingni mahkam tut. Bu sozning havosi seni arshi a'loga ko'taradi, u yerdan qarasang, bizning mayda-chuyda ro'zg'or tashvishlarimiz, iztiroblarimiz shunchalik kichik bo'lib ko'rinadiki... Mayda-chuyda muammolarimizga e'tibor berma, ovora bo'lma. Sozga aylangan Buroq seni kutmoqda. U seni ko'klarga ko'taradi. O'zingga munosib bo'lgan baland osmonlarda o'rnatib ol, keyin bizni ham izingdan ergashishga chaqir... Balki biz ham o'z Buroqimizni topa olardik, sening yo'ling bilan osmonlarga ko'tarilib, yerdagi zulmdan, adolatsizlikdan qutulardik...

Oshiq Ali Askar nigohlari bilan javob beradi: Axir men o'n yillardan beri shu xalq ichidaman, kelgindi bosqinchilar zulmi tufayli xalqimiz chekkan azoblarni ko'rganman, zamon taloto'plarida yashayotgan xalqimiz zulmlarini shohidiman, qanday unutamani. Bularning hammasini qanday esdan chiqarib, o'z ruhimni osmonlarga ko'taraman? Xalqning holatini qanday unutib, o'z ma'naviy yuksalishimni o'ylayman? Bu mumkinmi?

Ha, haykal oldida turganimda birdan qalban shu tosh parchasi bilan gaplashayotganimni his qildim.

Ochig'ini aytsam, beixtiyor uni tosh haykal sifatida emas, ruhi va joni bor mavjudot sifatida qabul qilganman.

Odamlar toshdan o'yib yasagan haykalingni tirik mavjudot sifatida qabul qilsa, u bilan muloqotda bo'lsa, meningcha, haykaltarosh uchun bundan katta muvaffaqiyat bo'lishi mumkin emas. (Ey haykaltarosh) Demak, sen bir sovuq tosh bo'lagini jonlantirishga muvaffaq bo'lgansan.

Haykalda Oshiq Ali Askar tanasiga quyuq ranglar bilan g'alati bir ulug'vorlik berilgan. Darhaqiqat, Oshiq Ali Askar jisman katta odam bo'lgan. Biz buni bilamiz. Lekin negadir oyoqlari ko'proq e'tiborimni tortdi. Ular kuchli, mustahkam oyoqlar edi.

Men uning ko‘zlariga va oyoqlariga qaradim. Bu ko‘zlardagi bir dunyo dard, azob yukini, ehtimol, faqat shunday baquvvat oyoqlar ko‘tara olardi. Aks holda, Oshiq Ali Askar butun umri davomida oyoqda tura olmasdan bu dard-u azob yukining ostida juda oldin sinib ketgan bo‘lar edi.

Oshiq Ali Askar yodgorligi atrofida shou-spektakl yaratayotganlar va hech narsani tushunmaydiganlarga bir-ikki og‘iz so‘z aytmoqchiman:

Senga biror narsa yoqmasligi mumkin, biror joyda kamchilikni ko‘rishing mumkin. Bu sening shaxsiy ishing. Ammo ko‘p yillik badiiy tajribaga ega bo‘lgan professional ijodkorning ayrim asarlarida yoki so‘zlarida nuqson topilsa, avvalo o‘ylab ko‘r, nahotki, shunday zabardast ijodkor nima qilayotganini, nima haqida gapirayotganini, nima yaratayotganini bilmaydi? Sen ko‘rib turgan “nuqson”ni u ko‘rmayaptimi? Nahotki, sening ko‘zlaring va fikring undan o‘tkirroq bo‘lsa? Yoki o‘z obrazini yaratgan ijodkor uni sendan kam biladimi, kamroq yoqtiradimi?! Axir sen kimsan, u kim?

Agar narsa sen istagandek, sen orzulaganingdek bo‘lmasa, buni nuqson sifatida qabul qilish – jaholat, nodonlik. Muallif shunday ko‘radi, shunday yaratadi, bas!

Agar biror narsa sen hohlagandek bo‘lmasa, uni nuqson sifatida qabul qilish jaholat va nodonlikdir. Muallif shunday ko‘radi, shunday yaratadi, tamom!

Agar yoqtirmasang, yeng shimar, hohlaganingni va ko‘rmoqchi bo‘lganingni o‘zing yarat, uddalay olmasang, hech bo‘lmaganda jim tur. Chunki muallif sen ko‘rmoqchi bo‘lgan narsani taqdim etishga majbur emas. Bu uning yondashuvi va nima qilishni u sendan ko‘ra yaxshiroq biladi. Chunki u o‘z ishida professional, sening esa kimliging aniq emas. Qo‘lingdan kelgani xato topib shov-shuv ko‘tarish va masxara qilishdan iborat. Kim ham shunday qilardi?- o‘zi hech narsa qila olmaydigan ahmoqlar!

Oshiq Ali Askar yodgorligi haqida so‘nggi fikrim: san’atkor shoirimiz qalbining chuqur qatlamlari, hayoti, ijodi, borlig‘ining mazmun-mohiyatini bunday chuqur aks ettiradigan haykalni oldin ko‘rmaganman. Buning uchun muallifga rahmat ...

**Almaz Ulviy,**  
**Isxoqjon Ismailov**  
**tarjimalari**







O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

# INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

6 (27)  
2025-yil, iyun.

|                            |               |
|----------------------------|---------------|
| Bosh muharrir:             | M.Eshmurodov  |
| Bosh muharrir o‘rinbosari: | S.Samandarova |
| Mas’ul kotib:              | U.Bekmuhammad |
| Texnik muharrir:           | A.Xushnudov   |
| Navbatchi:                 | A.Xushnudov   |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni №062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 5,5 b.t. Buyurtma №1/25.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

---

Urganch innovatsion universiteti  
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,  
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.  
Tel: (+998) 90-436-20-22